

## Iqbol Mirzo



### SIZNI KUYLAYMAN

*Toshkent – 2007*

Bundan o'n yil muqaddam Chingiz Aytmatov Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy o'zbek she'riyati iqbolini ko'rayotganligini aytgan edi. O'tgan yillar buyuk adibning o'ziga xos bashoratini isbotladi. Bugun adabiyotga, so'zga ozgina e'tiborli kishi O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning qanotli she'rlaridan hech yo'qsa to'rt satr yod biladi. Ona xalqini samimiy sevgan shoir bugun xalq sevgan shoirga aylandi.

Ushbu kitobga eng sara she'rlar jamlandi.

**Mas'ul muharrir:** *Rahmon Qo'chqor*  
**Nashrga tayyorlovchilar:** *Azizbek Anvar,*  
*Orifjon Madvaliyev*

\*\*\*\*\*

### KO'NGILDAGI GAP

Men 1967 yilning birinchi mayida Farg'onaning Bag'dod tumanidagi Qo'shtegirmon qishlog'ida tug'ilganman. Qishlog'imdan uchta ariq oqib o'tadi. Shu ariqlarda cho'milib, baliq ovlab ulg'ayganman. Hamqishloqlarim dehqonchilik, duradgorlik, temirchilik va qisman chorva bilan mashg'ul. "Qo'shtegirmon" nomi "Boburnoma"da bir necha joyda uchraydi. Shu bilan ham maqtanishim mumkin.

O'qituvchilar oilasi bo'lganidan, tabiiy, kitobga, adabiyotga alohida e'tibor qaratilardi. Esimda, beshinchida o'qiyotganimda Sergey Yeseninning "Zamin darg'asi"

(Ustoz Erkin Vohidov tarjimalarida) kitobini yod olganim uchun dadam mukofot tariqasida Qo'qon shahriga tomoshaga olib borgandi. O'sha davrdagi vahimali hikoyalar ta'siridami, har qalay, xon O'rdasi menga juda sovuq va omonat tuyulgan edi. Keyin mavlono Muqimiy uy muzeyiga kirib, tasodifan Charxiy domla bilan uchrashganimiz, u kishining ba'zi so'zlari, jumladan, "she'r nonday tabarruk" deganlarini aniq-tiniq eslayman. Men ilk bor tirik shoir bilan yuzma-yuz turardim, hayajonim zo'rligidan duduqlanib, gapirolmay qolganim, dadamning hijolat bo'lib kulgani, keyin erkatalib, siz hammadan zo'r shoir bo'lasiz, deb peshonamdan o'pgani, kaftining harorati ham yodimda.

Hozir ham yaxshi shoirlar oldida hayajonim bor, buning sababi, azbaroyi adabiyotga hurmat-e'tiqodimdan.

Bolaligim paxtaning qora mehnatida kechgan. Bugun o'ylasam, naqadar shafqatsiz,adolatsiz kunlar bo'lgan ekan. O'sha rangsiz kunlarda ham she'r bilan ovunib, kitob bilan andarmon bo'lib kulfatlarni sezmagan ekanman...

Ilk mashqlarimni 7-8 yoshlarda tog'am G'ulom Abdulla ta'sirida yoza boshlaganman. Lekin ular shunchaki mashqlar edi, xolos. Rostakamiga, keyinroq, 20 yoshlarimda she'r yozadigan bo'ldim. Bu jismoniy balog'at bilan ham bog'liq ekan-da...

Menga muhabbat qalam tutqazgan. Keyinroq bu tuyg'u yurt ishqiga, vatan sevgisiga aylandi.

Bir paytlar vatan mavzuida yozsang, kimdir nimadir ta'ma qilayotgandek tuyularding. U kunlar ham o'tdi. Tushundimki, shoir millat taqdiri uchun eng mas'ul shaxs ekan. Shoir o'z xalqisiz hech kim emas, hech narsa emas.

Shoir o'z ixtiyori bilan o'ziga dard yuqtiradigan tabibga o'xshaydi.

Hamma yaxshi shoir-adiblarni va Muhammad Yusufni ustoz deb bilaman. Uning samimiyligi, chapaniligi yoqadi. O'zi ham she'rlariga o'xshardi: birovga yomonligi yo'q, sodda odam edi. Agar shoir o'z asarlariga o'xshamasa, chinakam fojea, aslida, shu... Kim nima desa, og'zi o'zida, Muhammad akachalik millatni, shu tuproqni sevgan odamni ko'rмаганман.

Men shoirlar orasida yomon odamni uchratmadim. Ular ichida kayfiyat va muhit kishilari bor. Lekin yaqinroq borib, samimiyoq bo'lsangiz, shoirning go'zal qalbini ko'rishingiz mumkin.

Odam ulg'aygani sari muammolari, savollari ham ulkanlashib borarkan. Shu savollar kurashga, mas'uliyatga, ijod va yashashga undaydi.

Men ham shu qorako'z, bag'rikeng, oqibatli xalqni, ya'ni Sizni yaxshi ko'raman. Hamma yozganlarim Sizga bag'ishlangani uchun to'plam nomini "Sizni kuylayman" deb qo'ydim.

Xudo umr bersa, Sizning xizmatingizdaman.

**Ehtirom bilan Iqbol Mirzo,  
15.01.2007.**

## BUNCHALAR SEVDIRDING MENI, BUNCHALAR?

*Oy - ko`kka tavakkal chertilgan tanga,  
Holbuki, har ikki olam bir menga.  
Ayt, nima yomonlik qilovdim senga?  
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar?*

## ISTAYSIZMI-YO'QMI

Istaysizmi-yo'qmi, gardun aylana,  
Istaysizmi-yo'qmi, qaytib kelaman.  
Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,  
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

Oy botadi – yulduzlarning habibi,  
Tong otadi, ta'nasi yo'q samimi.  
Tabiatning qonunidek tabiiy –  
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

Quchog'iga yashirmaydi xiyobon,  
O'rtamizda udum otlig' biyobon.  
Sizga nima, kuysam o'zim kuyaman,  
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

Chaqmoq kalit bo'ldi qulfi dilimga,  
Tegmagan bir qizning zulfi dilimga.  
Sizdan o'zga xon yo'q mulki dilimga,  
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman

Boshingizda yaproq bo'lib aytaman,  
Poyingizda tuproq bo'lib aytaman.  
Tuproqdayam mushtoq bo'lib aytaman,  
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

1998

## YODINGDA QOLMOQCHI EDIM

Fuzuliy lutf etib ketgan bir zamon,  
Go'zallar vafosiz, aldoqchi dedim.  
Yoningda qolishga yo'q edi imkon,  
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Negadir istardim qiynalishingni,  
Yuragingga kamand solmoqchi edim.

Onangga aytolmay qolsang tushingni...  
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Do'stlar kechib qo'ygan edi bahrimdan,  
Kimilardandir qasos olmoqchi edim.  
Haydab chiqardilar hayotlaridan,  
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Alamim, hasadim, ginam tufayli,  
Ehtimol ustingdan kulmoqchi edim.  
Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang mayli,  
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Ko'zingni ko'zimga bermading sira,  
Ishondingmi, yo'qmi, bilmoqchi edim.  
Seni ko'p o'yladim. She'r yozdim qara,  
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

1998

## **YOLG'IZ**

Milyon yilda meni yaratdi hayot,  
Meni so'rab, tog'lar qator cho'kdi tiz.  
Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Bug'lanib, qaytadan to'kiladi suv,  
Quyoshdan ishorat – ko'z yorar ildiz.  
Men, axir ularga o'xshamayman-ku,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Har elat o'zicha atar shamolni,  
Mingta ism bilan yashaydi yulduz.  
Sen qaydan topasan boshqa Iqbolni,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Nafasim – g'animat, so'zim – g'animat,  
Fojia – moyimdan uzilgan har iz.  
Mening nigohlarim eng ezgu ne'mat,  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.

Yaratganga borib aytaman seni!  
O'zi hukm etsin odil va xolis.  
Men qatib kelmayman, tushunyapsanmi?  
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz...

1995

## GO'YO

Bir daraxtni ko'rdim – mag'rur, barkamol,  
Istagan faslida gullaydiganday.  
Pisandiga yaqin kelmas qor, shamol:  
Durkun bargi mangu so'lmaydiganday.

Shul daraxtning oldida xor, g'aribman,  
Yo'l yarmiga etar-etmas horibman,  
Havodan kuz hidin olib turibman,  
Bahor menga qaytib kelmaydiganday.

Bir irmoqni ko'rdim – o'jar irmoqni,  
Surib xasni, loyqa qilib tuproqni,  
Tashlab ketayotir bog'ni, o'tloqni –  
Zum to'xtasa, sira bo'lmaydiganday.

SHul irmoqning huzurida kim bo'ldim?  
To'xtab qoldim, til tishladim, mum bo'ldim.  
Hasrat keldi, ko'z yoshimga lim bo'ldim,  
Eski ko'ngil endi to'lmaydiganday.

Bir dilbarni ko'rdim – qoshi qaroli,  
Qoshlaridan yurak-bag'rim yaroli,  
Bo'lsam edi xizmatkori, qaroli,  
Qul bo'lmasam, baxtim kulmaydiganday.

Shul dilbarning qoshida bechoraman,  
Yuragimdan nolib, qayga boraman.  
O'zim bilan olishib ovoraman,  
Men ham unga parvo qilmaydiganday.

Bir kimsani ko'rdim, aziz yoronlar,  
Firib bersa, chap berolmas shaytonlar,  
Yig'mish dunyo, qurmish turlik oshyonlar,  
Go'yo bu zot aslo o'lmaydiganday.

Shul kimsaning yonida men nimaman,  
Balki uning yukin ortgan kemaman.  
Siz nimasiz? Dard so'yladim kimga man,  
Kimligimni hech kim bilmaydiganday.

2001

## AYYOR QIZ

Kulib qarab, kulib ko'zin obqochgan,  
O'rgatvolib, keyin o'zin obqochgan,  
Quchoqlasam, titrab yuzin obqochgan,  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

Huv, deydi-yu, o'ylar yostiq-ko'rpasin,  
Ko'zda yosh yo'q – ayaydi-da surmasin,  
Eshitsinu lekin birov ko'rmasin...  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

Kuydirmajon edi, qurg'ur, sho'x edi,  
Ko'nglim unda edi, ko'nglim to'q edi.  
Qosh terganda yig'lagani yo'q edi...  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

Erta pishar edi qo'qon gilosi,  
Yuragimdek qop-qora qon gilosi.  
Allaqachon bo'lган talon gilosi...  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

Tengdoshini sevgan bo'lar teng tentak,  
To'yda bildim, ancha ekan deng tentak.  
O'sha kuni sal yig'labman men tentak...  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

To'y buzishga etarmidi jur'atim?  
Un tortgani tegirmonga jo'nadim.  
Tuguniga sig'magandir suratim...  
Tugunchagin tugib qo'ygan tayyor qiz,  
Yolg'on yig'lab, erga borar ayyor qiz.

2002

## ENTIKARDI...

Entikardi adirlaru dalalar,  
Qizil kiygan qizdek qirmiz lolalar.  
Qizil kiygan qizni yaxshi ko'rardim,  
Bilar edi tog'alaru xolalar.

Dirillardi mendan qochib varraklar,  
Varragimdan cho'chib uchgan laylaklar.  
Hurkak-hurkak titrab tunda yuraklar,  
To'lqin-to'lqin tortar edi nolalar.

Bola edim bo'shanggina, ko'ngilchan,  
To'shak bo'ldi go'shanggaga ko'ngilchang.  
Mana, bugun bo'yga etib o'g'ilchang  
Senga yozgan she'rlarimni yod olar.

Mening esa qonim qaynab jo'sh urar,  
To'lqin-to'lqin tortib, gup-gup musht urar.  
Qaytib-qaytib yuragimga bosh urar,  
Sen tug'ishing kerak bo'lgan bolalar.

2002

## BIR KUN

Bir kun kelib, qabog'ing qirg'oq bo'ladi,  
Ikki chashming – ikkita irmoq bo'ladi,  
Kiprigingdan dilda mavj – titroq bo'ladi,  
O'shanda ham bitta man dengiz bo'laman.

Bir kun kelib, barmoqlaring shox bo'ladi,  
Tirnoqlaring bittadan yaproq bo'ladi,  
Besamar bosh qo'yganim – tuproq bo'ladi,  
O'shanda ham bitta man ildiz bo'laman.

Bir kun kelib, chor atrof chor bog' bo'ladi,  
Oyday to'lib, olmalaring oq bo'ladi,  
Devoringga epkin urgan – oh bo'ladi,  
O'shanda ham bitta man olis bo'laman.

Bir kun kelib, ayriliq adog' bo'ladi,  
Tog'ni quchib, ko'zyosh to'kkan – tog' bo'ladi.  
Sening umring dunyodan uzoq bo'ladi,  
O'shanda ham bitta man yolg'iz bo'laman.

1995

## TILLO ZANJIR

Bo'yningizga tillo zanjir solgan kim?  
Tillo zanjir solib bog'lab olgan kim?  
Qaysi baland qo'rg'onlarning gulisiz?  
Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz?

Mohitobonmisiz bulutga tutqun?  
Yoki jayronmisiz burgutga tutqun?  
Yoki soyning ermag'i – sumbulisiz?  
Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz?

Yo jilg'asiz o'zanidan adashgan,  
Yo yulduzsi nogoh erlarga tushgan,  
Yoki qora qismatning bir qulisiz?  
Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz.

Men-ku hasrat, qayg'ularga ko'nganman,  
Hammagini she'rlarimga ko'mganman.  
Qaysi shoirning ezilgan dilisiz?  
Kulsangiz ham bunchalar qayg'ulisiz?

1998

## KUYGANYORDA YOZILGAN SHE'R

Meni yomon ranjitding,  
Sendan qattiq xafaman.  
Lekin sendek kuydirgi  
Qizni qaydan topaman.

Sevgi, sevgi, der ekan,  
Sevgi dilni er ekan.  
Qizga mehring berguncha  
Muzga bag'ring ber ekan.

Buloqdek qaynab yotsam,  
Sochingni o'ynab yotsam,  
Hech kim xalal bermasa,  
Ko'zingni o'y lab yotsam.

Yuragingni kuydirgan  
Sevgi – qizilcho'g' ekan.  
Yashnar ekan uf tortsang.  
Puf deganda yo'q ekan.

Azob chekkin, ataylab  
Qo'lingdan suv ichmayman.  
Ko'y lagimning tugmasi  
Botmasin, deb quchmayman.

1998

## HUZUR

Qalampirga qo'shib eyman holvani,  
Ajrata bilmayman misni tilladan.  
Qo'llimga uraman doim bolg'ani,  
Jonimni og'ritib huzur qilaman.

Suv ichsam ko'zimdan toshadi darrov,  
Yig'lasam, holimga o'zim kulaman.  
Yo'q joydan yo'llimda yarataman g'ov,  
Jonimni og'ritib huzur qilaman.

Yayrayman tepkilab, toptab dilimni,  
Siz bog'dan kelsangiz, chohdan kelaman.  
Eng zarur pallada tishlab tilimni,  
Jonimni og'ritib huzur qilaman.

Yaramni ko'chirib sepaman tuzni,  
Eng ko'rimli joyga surat ilaman.  
Kun bo'yi ataylab o'ylayman sizni,  
Jonimni og'ritib huzur qilaman.

Bir so'zning quliman, bir kalomga zor,  
Siz menga achinmang, shafqat tilamang.  
Menga ozor bering, azizim, ozor,  
Jonimni og'ritib huzur qilaman.

1998

## SENI SOG'INIB

Qorako'z qaldirg'ochoyimsan o'zing,  
Ko'ksim ayvon bo'ldi seni sog'inib.  
Ko'zimdan bir lahma ketmadi ko'zing,  
Ko'zim giryon bo'ldi seni sog'inib.

Ko'changdan kechalar o'tganim pinhon,  
Kelmasingni bilib kutganim pinhon,  
Oyu yulduzlardan tutganim pinhon,  
Ishqim doston bo'ldi seni sog'inib.

Jonimga tig' urib qiynaydi sog'inch,  
Keyin tig' sug'urib qiynaydi sog'inch.  
Xayrlashmay turib qiynaydi sog'inch,  
Yuragim qon bo'ldi seni sog'inib.

Belgisiz xilxona, ko'hna mozorni –  
Mozorki, qarovsiz xarobazorni

Eshitganing bormi, ko'rganing bormi?  
Dilim vayron bo'ldi seni sog'inib.

Sargardonlik majnun-layliga edi,  
Bizniki faqat gul sayliga edi.  
Olisda bo'lsang ham mayliga edi,  
Bog'im xazon bo'ldi seni sog'inib.

Netay, peshonamda shu dard bor bo'lsa!  
Qaniydi bu dardga xaridor bo'lsa...  
Seni tanlarmidim, ixtiyor bo'lsa!  
Holim yomon bo'ldi seni sog'inib.

2004

## O'ZBEK

Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,  
Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.  
Tush kabi jimirlab ming yil oqsa ham,  
Noming aytar enasoylaring, o'zbek.

Nuh to'foni, demak, qismat shamoli,  
Kimningdir kamoli, kimning zavoli.  
Sargashta kun ko'rding ohu misoli,  
Shundan hamon mungli kuylaring, o'zbek.

Dili qonga to'lib, ko'zları – yoshga,  
Alp Tegin bir hikmat chegirdi toshga:  
«Bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa...»  
Bolangga bog'lidir o'ylaring, o'zbek.

Bir zamon olovni iloh bilgan el,  
Quyosha qarashni gunoh bilgan el.  
Har bir bosqinchini qo'noq bilgan el,  
Yovga so'qmoq bo'lgan ko'ylaring, o'zbek.

Ismingni ayirib kechdi asrlar,  
Xonliknibeklikka bo'lgan ne sirlar?  
Kentlarga sochilgan o'rda, qasrlar...  
Qumdan qorilganmi loylaring, o'zbek.

Dil qo'zg'alsa, elni to'xtatib bo'lmas,  
Sel qo'zg'alsa, gilni to'xtatib bo'lmas,  
Zanjir uzgan qulni to'xtatib bo'lmas,  
Tig' bo'ldi har bitta mo'ylaring, o'zbek.

Bo'yningdan ketgan yo'q hali dor izi,  
Qo'y, qora kunlarning o'chsin qorasi!  
Sen borsan – temurning ulug' vorisi,  
Osmoningga qaytdi oylaring, o'zbek.

Katta qishloq ekan parij, london, rim,  
Dalamni sog'inib ezildi ko'nglim.  
Dunyo go'zali – sen, qadoqqa'l singlim,  
Go'zadir o'ngigan ko'ylaging, o'zbek.

Haftalab yo'l qarab sarg'aymas kumush,  
Tog'ni tolqon qildi bobomeros musht,  
Tin oldi davonga boqib alpomish,  
Tog'larni qo'pordi yoylaring, o'zbek.

Qo'lingni ko'zimga suray, otajon,  
Yoningda ul bo'lib yuray, otajon,  
Yaxshi kunlaringni ko'ray, otajon,  
Sovimasin qo'lda choylaring, o'zbek.

Onajon, havoli bog'lar muborak,  
Handalak band bergen chog'lar muborak,  
Kelin yuzidagi dog'lar muborak,  
Bug'doylarga to'lsin uylaring, o'zbek.

Sumbula – to'kinlik, to'ylar mavsumi,  
Bir qo'zg'alib olar bog'bonning xumi.  
Asli, bir satrdir she'rim mazmuni:  
To'ylarga ulansin to'ylaring, o'zbek!

2004

## SO'ROQ

Qoshlaring kamon deymi,  
Yuragim nishon deymi,  
Kipriging paykon deymi,  
Jigar-bag'rim qon deymi,  
Ko'zlaring cho'lpon deymi,  
Ko'zlarim giryon deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Tunda qo'ling axtargan  
Qo'limdan so'zlasammi,  
Ko'zyoshlarim quritgan

Gulimdan so'zlasammi,  
Faqat senga eltuvchi  
Yo'limdan so'zlasammi,  
Nigohing qaratgani  
O'limdan so'zlasammi,  
Jon deymi, jonon deymi,  
Bu nechuk hijron deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Eshicingdan ichkari  
Jannatligin aytaymi,  
Har qadaming mo"jiza  
San'atligin aytaymi,  
Tabassuming olamga  
Minnatligin aytaymi,  
Sensiz yashashning o'zi  
Mehnatligin aytaymi,  
O'zingga oson, deymi  
So'zimga ishon, deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Bu benavo ko'ngilning  
Navosidan so'ylaymi,  
Har oshiqning yolg'izlik  
Da'vosidan so'ylaymi,  
Yoki isming yukidan,  
Ma'nosidan so'ylaymi,  
Zamonaning Kumushi  
Ra'nosidan so'ylaymi,  
Bu o'zga zamon deymi,  
Bu boshqa doston deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Sevgidan yana boshqa  
Qayg'udan gapirsammi,  
G'ubor va hovur bosgan  
Ko'zgudan gapirsammi,  
Ertakchini qo'rqiitgan  
Mavzudan gapirsammi,  
Ochlikdan gapirsammi,  
Uyqudan gapirsammi,  
Kaftlarim qalqon deymi,  
Gaplarim tolqon deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Sensiz sendek beparvo  
Kezlarimni kuylaymi,  
Atirgulga bo'y bergan  
Hislarimni kuylaymi,  
Maysa boshga ko'targan  
Izlarimni kuylaymi,  
Sen deb mendan yuz burgan  
Do'stlarimni kuylaymi,  
Kuylarim – osmon deymi,  
O'ylarim – armon deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

Sochlaring rayhon deymi,  
Borlig'ing bo'ston deymi,  
Zulfing parishon deymi,  
Bir taraf Qo'qon deymi,  
Bir yon Andijon deymi,  
Hamma el hayron deymi,  
Munis, mehribon deymi,  
Rostimni yolg'on deymi?

2000

## XUDOGA SOLDIM

Uning qovog'idan boshimga yoqqan  
Qorini Xudoga soldim-da qo'ydim.  
Qonimni qaynatib, jonimni yoqqan  
Korini Xudoga soldim-da qo'ydim.

O'sha-ku xor kelsa toptagan tikka,  
O'sha-ku zo'r kelsa darrov bosh bukkan,  
O'shaning Mashrabu Xallojga tikkan  
Dorini Xudoga soldim-da qo'ydim.

Yulduzlar sayriga tortar sanalar,  
U hamon urug' deb sochar kanalar,  
Sillasi qurigan buva, enalar  
Zorini Xudoga soldim-da qo'ydim.

Shudir el haqidan qasrlar qurban,  
Asli-ku, non urgan, asli Haq urgan,  
Uning alohida qatorda turgan  
Norini Xudoga soldim-da qo'ydim.

So'rasang, iblisga taqalar nasli,

Xoinlik – hunari, kazzoblik kasbi,  
Dunyoni yutmoqqa shay turgan nafsi –  
G'orini Xudoga soldim-da qo'ydim.

Alamim tog'cha bor, mayda dard emas,  
Garchi qasd olmagan yigit - mard emas,  
Lekin Xudoyimga yordam shart emas,  
Barini Xudoga soldim-da qo'ydim.

2001

## DARD

Qaydan kelayotir uyur-uyur g'am,  
Qaydan ko'chayotir palaxsa hasrat?  
Qaydan yog'ayotir shirg'oqdek alam,  
Qaydan sizayotir laxta-laxta dard?

«Milt» etgan shu'la yo'q, «yilt» etgan uchqun,  
Vahima suzadi bahri muhitda.  
Og'rigan chol kabi ruhiyat tushkun,  
O'limni kutgandek og'ir sukutda.

Bunday chog' do'st bekor, janona bekor,  
Faqat g'ussalarni toshiradi may.  
Tuyg'ularni ermak qilgan kabi tor,  
Suyagingni teshib o'yin qilar nay.

Vaqtiki, yorishar charxpalak olam,  
Jilva qilar ruhing – yog'du tushgan gard.  
Ammo qayga ketar uyur-uyur g'am,  
Ammo qayga singar laxta-laxta dard.

2002

## KO'RINADI

Men muhit tomonga yuzimni bursam,  
To'rt fasl bir joyda jam ko'rindadi.  
Bunda baxti qaro kuylaydi hurram,  
Baxti raso dilda g'am ko'rindadi.

Qarasam, beshikdan tobutga qadar,  
Birov umr so'rар, yana birov – zar.

Berganga bittasi ko'pdir, birodar,  
Olganga mingtasi kam ko'rindi.

Uzoqni ko'zlagan otliqni ko'rdim,  
Qismati eshakka bog'liqni ko'rdim,  
Muhabbatdan dili dog'liqni ko'rdim,  
Kulsa ham ko'zida nam ko'rindi.

Atirgulim manim, nozlik atirgul,  
Tikonlari yumshoq, nozik atirgul,  
Umri yarim bahor – yozlik atirgul,  
O'z husnidan boshi xam ko'rindi.

Besamar arzlarda umri hazonlar,  
Befoyda bahslarda umri hazonlar,  
Behuda darslarda umri hazonlar  
Qoshida ming yillik sham ko'rindi.

Quyoshing shundadir, oying shundadir,  
Zuvalang – qorilgan loying shundadir,  
Shunda qolajaksan – joying shundadir,  
Yonginangda Iqbol ham ko'rindi.

2000

## TILLA UZUK

Ey qaldirg'och qoshligim,  
Kel, ahdimiz bir bo'lsin.  
Uchta odam bilgan gap  
Qanday qilib sir bo'lsin?

Tilla uzukka tilla  
Ko'z bo'lmaydi hech qachon.  
Qiz bolaga qiz bola  
Do'st bo'lmaydi hech qachon.

Bordir saroy qurbanlar,  
Bordir davron surbanlar.  
Bormi bizdek bir tushni  
Birgalashib ko'rganlar?

Bitta qizga bir yigit  
Tilla uzuk taqibdi.  
Bitta dushman yigitga,  
Qizga qirqta raqibdir.

Tilla uzukka tilla  
Ko'z bo'lmaydi hech qachon.  
Qiz bolaga qiz bola  
Do'st bo'lmaydi hech qachon.

Xayolingni dugonang  
Buzganini bilmaysan.  
Yonginangdan menga ko'z  
Suzganini bilmaysan.

2002

### **MENDAN SOVIYAPTI...**

Birdan ehtirosga to'ldingiz,  
Yondingiz, kuydingiz, so'ndingiz.  
Parishon, sochingiz parishon,  
Mandan soviyapti ko'nglingiz.

Men hamma qatori bolaman,  
O'zimdan zerikib qolaman.  
Bilishim bilmaysiz, bilaman,  
Mandan soviyapti ko'nglingiz.

Sevgi – cho'g', deydilar, o'chgaydir,  
Sevgi – o'q, deydilar, uchgaydir,  
Sevgi yo'q, deydilar, shundaydir,  
Mandan soviyapti ko'nglingiz.

Qarshimda kundan kun so'lg'in, xor –  
Gulga suv purkaysiz beozor.  
Zarim bor, zo'rim bor, zorim bor,  
Mandan soviyapti ko'nglingiz.

Iliyapti ummon, dengizlar,  
Eriyapti ming yillik muzlar.  
Sovuqqina so'zlar va ko'zlar...  
Mandan soviyapti ko'nglingiz

2002

### **GUNOHLARIM**

Ellar o'chirdi chiroqlarimni,  
Shamolsovurdi yaproqlarimni,

Quyun ho'pladi gulbog'larimni,  
Bo'ron ko'tardi tuproqlarimni,  
Bilmayin qoldim gunohlarimni.

Ishonganlarim – sirdosh bo'lganlar,  
Suhbati shirin, dildosh bo'lganlar,  
Yo'lning yarmida yo'ldosh bo'lganlar –  
Qayda, kim ko'rdi hamrohlarimni,  
Bilmayin qoldim gunohlarimni.

Jon desam, jondek jononim qani?  
Har so'zimga yuz qurbanim qani?  
O'zi – chin, so'zi yolg'onim qani?  
Muncha xor etdi nigohlarimni,  
Bilmayin qoldim gunohlarimni.

Bitta gulim bor – so'lmaydi aslo,  
Mendan o'zgaga ko'nmaydi aslo,  
Shukurki, ushlab bo'lmaydi aslo,  
Sizga ko'rsatay barmoqlarimni  
Bilmayin qoldim gunohlarimni.

2002

## MUHABBAT

Muhabbat, bu – yalt etgan nigoh  
Va halovat abas, degani.  
Muhabbat, bu – o'zingni sevmoq  
Va o'zgaga havas, degani.

Hayot isi kelar ismidan,  
Hayotingni kessa-da zimdan,  
Muhabbat, bu – kuy to'la zindon,  
Atirguldan qafas, degani.

U – quyoshdir, eta olmassan,  
U – ko'z yoshdir, tuta olmassan.  
Muhabbat, bu – keta olmasdan  
Jon talashgan nafas, degani.

Subhidamda kuylagan kaptar,  
Esda turmas chiroyli gaplar,  
Muhabbat, bu – titragan lablar,  
Azr degani, araz degani.

Tarixlarni buzgan qudrati,

Yorug'likdan o'zgan sur'ati.  
Muhabbat, bu – baxtning surati,  
Baxtning o'zi emas, degani.

2004

## NAVRO'ZGULI

Navro'zguli, boychechagim, bormisan,  
Men senga zor, sen ham menga zormisan?  
Muz ichida asradim men ko'nglimni,  
Sen o'zingni asrab, baxtiyormisan?

Omonliqsan, to'tiyosan ko'zlarga,  
Sevgi maktubisan ma'sum qizlarga.  
Suykalasan dudoqlarga, yuzlarga,  
Bitta o'zing bir butun gulzormisan?

Ninachining qanotidek barging bor,  
Asal va sut bo'yi kelar atring bor.  
Qadrim bilib yo'qladingmi, qadring bor,  
Yolg'izginam, yolg'izlarga yormisan?

Ay, ko'ngilni qitiqlagan erka gul!  
Ay, olamni ko'mgan orzu-sirga, gul!  
Qayga desang, men ketaman birga, gul!  
Sen ham mendek dardga xaridormisan?

Oy ham kulcha ko'rinar mish ochlarga,  
Bulut ko'rpa bo'lib zor-muhtojlarga.  
Tashna dilu ruhi yalang'ochlarga –  
Birdek tansiqmisan, madadkormisan?

Jonim gulim, o'tinaman, so'lmay tur,  
Dunyo yashnaganda hazon bo'lmay tur.  
Meni etim qilma, ketma, o'lmay tur,  
Sen ham mendek dunyodan bezormisan?

2003

## BUG'DOYSO'Z

Bug'doy – bu jannatiy ne'mat deydilar,  
Shundan manglayingda kavsar jilosi.  
Kelganda azaliy mehnatdan kelar  
Jannat farog'ati, jannat safosi.

Tuproqdek hokisor, saxiy, tanti zot,  
Ushbu kun valiylar alqab turibdi.  
Oriyat, hamiyat, lafz va e'tiqod  
Sening timsolingda yashab yuribdi.

Dengiz tubidan dur izlagan g'avvos,  
Zuhroni ko'zlagan shunqor fazogir  
Sening qo'lingdan rizq terganligi rost,  
Ilmu amalida himmating zohir.

Mushtdek jips bo'lsin deb qizu o'g'loni,  
Onalar hamirni mushtlab ko'ptirgan.  
Omonlik, qut tilab Sohibqironing  
Ot ustida turib bug'doy septirgan.

Bir bog'lam nur o'ynar oy o'rog'ida,  
Yulduzlar qayroqi donga o'xshaydi.  
Quyosh oltin boshoq sahar chog'ida,  
Oqshomda mag'zi to'q nonga o'xshaydi.

Qaydadir kimningdir so'nggi libosin,  
Yirtmoqni hunar deb bilguvchi kaslar.  
Yo'qlik va ochlikning tavqini osib,  
Dunyoga jar solib kulguvchi kaslar –

Nokas, nonko'rلarga gapim yo'q mening,  
Kuylasam sendayin qorako'zim bor.  
Sen borsan, ko'zim to'q, ko'nglim to'q mening,  
Bug'doy nonim bordir, bug'doy so'zim bor.

2006

## QIZLARXON

Ayriliqni o'ylasam,  
Tomirimda muzlar qon.  
Ko'zlaring haqqi qasam,  
Sensiz kun yo'q, Qizlarxon.

Ichganim qasam ekan,  
Quchganim tizzam ekan.  
Qizlarxonning ko'nglini  
Koshki, bilmasam ekan.

Sovg'a qilgan ro'molin  
O'ramayman, debdi u.  
Ko'rishganda ahvolin

So'ramayman, debdi u.

Qizim hali yosh-ku, deb  
Otasi qo'ymas ekan.  
Balog'atni, yaxshilar,  
Yashirib bo'lmas ekan.

Har bir bosgan iziga  
Ta'na qilib o'tadi.  
Ro'molini yuziga  
Pana qilib o'tadi.

Ayriliqni o'ylasam,  
Tomirimda muzlar qon.  
Ko'zlarining haqqi qasam,  
Sensiz kun yo'q, Qizlarxon.

Holvasidan totganman,  
Sumalak yalamayman.  
Qizlarxонни topganman,  
Boshqaga qaramayman.

Birga bog' kezsak ekan,  
Nok uzib esak ekan.  
Sevgi yo'q, deb aytganning  
Og'ziga kesak ekan!

2003

## YAXSHI KO'RAMAN

Shoirlik g'irt bekorchiga ish,  
Yumushim shu – xayol suraman.  
Nima haqda? Noqulay aytish...  
Sizni hamon yaxshi ko'raman.

Iqrorimdan zarracha naf yo'q,  
Hanuz xomman, hanuz g'o'raman.  
Nishoniga borib tekkan o'q,  
Yuragim qon. Yaxshi ko'raman.

Visolingiz endi – ehtimol,  
Lekin mudom izlab yuraman.  
Baxtinga bir xayol bor, xayol,  
Mushkul – oson, yaxshi ko'raman.

Bugungacha sir tutib keldim,

Tokay, jonio o'tga uraman.  
Sizgacha va keyingi sevgim  
Bari yolg'on, yaxshi ko'ruman.

Bilmaymanmi? Bilaman – uyat,  
Andishani chetga suraman.  
Ishoning, yo'q hech yomon niyat,  
Sizni yomon yaxshi ko'ruman.

1998

## GUL

Qaldirg'och – ko'klamning langari,  
Hut keldi bulutda – kemada.  
Sakradi yashillik lashkari,  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

Nimpushti, nimyashil, nafarmon –  
Ranglarga bog'larni beladi.  
Unga na qonun bor, na farmon...  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

Binafsha, boychechak, bodrezak  
Yonida ochilib kulmadi.  
Bunaqa ko'klam kimga kerak?  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

Qattiqroq qaragan edimmi,  
Xafa qiluvdimmi, bilmadim.  
Tikonlar yular ich-etimni...  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

Shu bugun o'rnnimi hazilning?  
Yangi kun haqqi va hurmati –  
O'z o'rni bor har bir faslning!  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

Qimmatga tushar bu arazing!  
«Ming to'qqiz yuz to'qson muddati –  
Qishdan so'ng kuz keldi», deb yozing!  
Faqat Gul kelmadi, kelmadi.

1990

## DADAM QABRI

Qora qishdan qutulmasdan turib olam,  
Dadam qabri ustidan o't ko'klab chiqdi.  
Nima qilib yuribdi, deb, bebosh bolam?  
Balki ko'ngli tinchimasdan yo'qlab chiqdi.

Odam bormi bu manzilga kelmaydigan,  
Odam bormi kelishini bilmaydigan,  
Tirik odam bormi seni tergaydigan? –  
Degan savol maysalarni chulg'ab chiqdi.

El qatori nasihatdan bezganim rost,  
Umidimni o'zim tishlab uzganim rost.  
Qayda bo'lmay, bir nigohni sezganim rost,  
Gunoh qilsam, o'tkir nigoh tig'lab chiqdi.

Ba'zan qo'lim, ba'zan esa sabrim etmas,  
Hayotimni oqlash uchun umrim etmas.  
Onamni haj qildirgani qurbim etmas,  
Hayit kuni yurakkinam ingrab chiqdi.

Yillar o'tib kim ulg'aydi, kim qaridi,  
Kimdan oru nomus, kimdan dard aridi.  
Akalarga to'kay, deb dil g'amlarini –  
O'ksib borsam, eshididan yig'lab chiqdi.

Bildim, nega el oldiga osh qo'yishar,  
Qachon yostiqqa bemalol bosh qo'yishar.  
Ko'klamasin deb, ustiga tosh qo'yishar...  
Mening dadam qabridan o't ko'klab chiqdi.

2004

## SINGAN ODAM

Singan odam, tuyg'ulari tingan odam,  
Singan odam, qismatiga ko'ngan odam.  
Siniq kulib, siniqqina ko'rishadi,  
Kun ko'radi, yashamaydi singan odam.

Yuribmiz-da, deydi endi o'g'il-qiz deb,  
Qoraqozon yonidagi qorako'z deb...  
Men hamisha yoningdaman, ketdik, do'st, deb,  
Elkangga qo'l tashlamaydi singan odam.

Ko'rilmagan katta xavfni ko'rib qolgan,

Qochib borib o'z ichiga kirib qolgan.  
O'z jonining mazasini bilib qolgan,  
Senga jonin to'shamaydi singan odam.

Ko'rdim singan shoxni – oppoq guli bilan,  
Egam goho shunday o'ynar quli bilan.  
Goho urar bandasining qo'li bilan...  
Odam isin xushlamaydi singan odam.

Unga tegma, u sendan ayb qidirmaydi,  
Aybing bilsa ham birovga bildirmaydi.  
Singan odam singanlarni sindirmaydi.  
Begonaga o'xshamaydi singan odam.

2001

## MEHR HAQIDA

Zilziladan to'rt kun o'tganda,  
Bomdan –  
Bir xabar yurakni titrattdi yana.  
Qizchasin panalab qulagan tomdan,  
Omon asrab qopti jonfido ona.

Qancha fursatimni yoqib isindim,  
Olovga tobladim mudroq tanimni.  
Birdan shu lahzada ro'y-rost his qildim  
Onamni qanchalar sog'inganimni.

Mehr – quyosh demak. Har tong darchadan  
Qatim shu'la tushsin, tolim zar tushsin.  
Teng tushsin mehrning nuri barchaga,  
Ogahiy aytgandek, barobar tushsin!

... Tursun Ali polvon bir gap aytgandi:  
Erkalab – suyganni bilarmish ilon.  
Odamzotning mehri tovlangan payti  
Odamday mo'ltirab yig'larmish ilon.

Ko'z yosh tomsagina quturarkan suv,  
Yer ham silkinarkan, qo'psa nizolar.  
Dunyoni qutqarar faqat bir tuyg'u –  
Mehrixon ayalar,  
Mehrini solar...

2004

## YOMON

Har bir qizdan seni izlaganimda,  
Yonimga kechikib kelganing yomon.  
Ovozsiz, ko'zyoshsiz yig'laganimda,  
Holimdan xabarsiz kulganing yomon.

Yomon-da, kimnidir tush ko'rganing ham,  
Shunchaki yoqqani – xush ko'rganing ham.  
Birovlar qalbiga nish urganing ham  
Kipriklaring bilan tilganing yomon.

Mensiz qoshlaring tim qorayganlari,  
Mensiz liboslaring torayganlari,  
O'zgalar xo'rsinib qaraganlari  
Va go'zal ekaning bilganing yomon.

Xudoyim men uchun yaratgan g'uncha,  
Kimlarga duch kelding menga kelguncha.  
Dilimda tuguncha, qora tuguncha –  
Mengacha kimnidir sevganining yomon.

1999

## BACHKANA KUN...

Bachkana kun kelsa, buralib palang –  
Kosadagi sutni to'kib qochadi.  
Ilvirsnii bo'yniga chumchuq solar chang,  
Burgut rayhon bargin cho'qib qochadi.

Bachkana kun kelsa, qiyin, deydilar,  
Hayot o'zi beshak o'yin, deydilar.  
Qirqiga chidagan, chidaymiz yana –  
Qirq yilda bir eshak o'yin, deydilar.

Bachkana kun kelsa, gul bo'lar shoir,  
Gul bo'lmasa, kuyib, kul bo'lar shoir.  
Odamning quliydi chiroqning jini,  
Aroqning jiniga qul bo'lar shoir.

Bachkana kun kelsa, Ahmad donolar  
Asta tera boshlar shaxmat donalar.  
Siz unga so'z berib qo'ysangiz, tamom,  
Sizga gap bermaydi mahmadonalar.

Bachkana kun kelsa, shon va sharaflar:

Bir yonda takliflar, bir yon talablar.  
Chimmatin ko'tarib, qoshin sakratib  
Zinoga chaqirar eski danaplar.

Bachkana kun kelsa... kelmasin, deyman,  
Ustimizdan birov kulmasin deyman.  
O'zimiz bilamiz – kimmiz, nimamiz,  
Shu gapni bolalar bilmisin, deyman.

2001

## **BUNCHALAR...**

Quyoshta intiqqan kabi g'unchalar,  
Yurak sokin-sokin qo'ng'iroq chalar.  
Nima deb kuylaydi qo'ng'iroqchalar?  
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar?

Ohu qarashlimi, jodu qarashli,  
Libosi yarashli, nozi yarashli,  
Buncha yaxshi bo'lding, bunchalar yaxshi!  
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar?

Ertaklar haqiqat ekanimi bu?  
Yurakka ko'krak tor kelganimi bu?  
Yo visol yo o'lim deganimi bu?  
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar?

Oy – ko'kka tavakkal chertilgan tanga,  
Holbuki, har ikki olam bir menga.  
Ayt, nima yomonlik qilovdim senga?  
Bunchalar sevdirding meni, bunchalar?

2004

## **YIGIT**

### ***Azizbekka***

Osmonga oy, yigitga ot yarashar –  
Tuyoqlari yulduz sochsin elganda.  
Yigit bo'lsin, kirsa davra yorishar,  
Qiz-juvonning aqli shoshsin kulganda.

Munofiqlar, haromzoda kazzoblar

Osh edirib, so'ng guruchin hisoblar.  
Nari bo'lzin bunday ko'hna azoblar,  
Bosh egmasin nomard minnat qilganda.

Ota-onan turgan manzil – yurt bo'lar,  
Yo'lga kirganidan ko'zi to'rt bo'lar.  
Gugurtcho'pdek omonat va mo'rt bo'lar,  
Yo'qotmasin endi qadrin bilganda.

Erlar ko'pu erkaklar kam zamonda,  
Pok ayollar ko'zlari nam zamonda,  
Shunday g'irrom, shu muttaham zamonda  
Mushtin ishga solsin kezi kelganda.

Osmonga oy, yigitga yor yarashar,  
Hovli borki, o'lan-alyor yarashar.  
To'y kechasi har neki bor – yarashar,  
Ko'ngli to'lzin quchoqlari to'lganda.

Dunyo kezsin, o'nta tilda so'y lasin,  
O'ylaganda lek o'zbekcha o'y lasin.  
Navoiyni chang bostirib qo'y masin,  
Mudramasin qo'lga kitob olganda.

Qaysi ohang yoqimliroq yurakka?  
Chuldir-chuldir jilg'a oqsin tuvakka...  
Beshikdag'i manglayi keng buvakka –  
Shu she'rimni aytsin ota bo'lganda.

2002

## FARISHTA

Men erga bog'langan bir bandi edim,  
Sahar borib, oqshom qaytardim ishdan.  
Sen kelding...  
Sen, axir, qaylardan kelding?  
Ko'klardan tushdingmi, ma'sum farishtam?

Bir xushbo'y sabolar taraldi birdan –  
Yurakni siypalab, erkalaguvchi.  
Odamlar odamdan zerikkan yerdan  
Insonlar tarafga etaklaguvchi.

Esladim,  
Olovlar gurlar qo'y nimda –  
Bir buyuk vulqonlar portlaganini.  
Keyin sukunatda

Tunda  
Bo'ynimda  
Kiprik kapalakday potraganini.

Shu munis turishda  
Bu ko'hna olam  
Sevgiga zorligin eslatib turding.  
Chaqnoq ko'zlaringga ko'zim tushgan dam  
Yuragim borligin eslatib turding.

Men senga bog'langan bir bandi, asir,  
Sen uchsang, uzilib tushar jon rishtam.  
Menga rahming kelsin,  
Shafqat qil, axir –  
Dunyoning holiga achin, farishtam!

2004

## **SIZ...**

Mudom yorug' bo'lsin darchalaringiz!  
Menga ko'chib o'tsin barcha dardingiz!  
Men sizni avaylab charchamadim hech,  
Siz ko'nglim og'ritib charchamadingiz.

Goho yomon qarab, goh qaramasdan,  
Goho yolg'on kulib, goh kulib rostdan,  
Goho erkalanmay, erkalamasdan,  
Siz ko'nglim og'ritib charchamadingiz.

Kimning qo'lini sal uzoq tutdingiz,  
Qaygadir ketdingiz, shoshib ketdingiz.  
Yonimdan ko'rmagan bo'lib o'tdingiz,  
Siz ko'nglim og'ritib charchamadingiz.

Yosh bola emasdik, ko'pni ko'rgandim,  
Hammaning ustidan kulib yurgandim.  
Lek sizga boladek qattiq o'rgandim...  
Siz ko'nglim og'ritib charchamadingiz.

Xohlasang olasan, agar shoh bersa,  
Qayoqqa borasan, tangri – haq bersa.  
Nima ham der edim, sizga zavq bersa...  
Siz ko'nglim og'ritib charchamadingiz.

2004

## KUZDA

Kuzda uchib ketar baxt qushlari ham,  
Omad ham betayin qushga aylandi.  
Kecha tuyg'ularni ko'klatgan ko'klam  
Bugun jon so'ragan qishga aylandi.

Sharob ichmay turib, yurardim sarkush,  
Boshimdan yulduzni elardi gardish.  
Kunlarim kechardi ko'rgan kabi tush,  
Endi o'sha kunlar tushga aylandi.

Men ham ishonmasdim, avval aytsalar,  
Tovonim silagan mayin maysalar  
Yotsam, yuragimga urar nayzalar...  
Qosh kabi maysalar nishga aylandi.

Sen neni bilasan, osmondag'i qiz?  
Bahorday bildirmay qariydi bu his.  
Esiz, yosligimiz, sevgilarimiz...  
Bugun sevgi oddiy ishga aylandi.

2005

## AYLANAY

Ko'zmunchog'ing qo'yma asta, dildorim,  
Ay, aylanay, noziknihol qaddingdan.  
Kuzagimni xushbo'y etgan bahorim,  
Ay, aylanay, atirgulim, atringdan.

Ikki ko'zim manim, ikki dagarim,  
So'zi navvot, qiliqlari shakarim,  
Mirzo Ulug'begim, Mirzo Anvarim,  
Ay, aylanay, sabza urgan xattingdan.

Mayiz bo'lib saratonda kuygan el,  
Bolasidan dalasini suygan el,  
Yaxshi kunni faqat to'yga qo'ygan el,  
Ay, aylanay, kiprikdagi gardingdan.

Ba'zan ko'ngil uchun ko'ngil so'ralar,  
Kim termular, kimdir sekin mo'ralar,  
Ay, do'stlarim, ulfatlaru jo'ralar,  
Ay, aylanay, nomardingu mardingdan.

Omon edi orzu, tilagim kecha,  
Tangrim, boqding chuqur yuragimgacha,

Bedavo dard berding suyagimgacha,  
Ay, aylanay, tanlab bergen dardingdan.

2002

## OVORA

Yaqin ham kelolmay, uzoq ketolmay,  
Yerning atrofida yo'l dosh ovora.  
Zaminni bir tekis chaman etolmay,  
Milliard yil nur sochib quyosh ovora.

Bahor sizga bermish guldan zeb, sarpo,  
Menday o'tkinchiga endi ne parvo.  
O'yin bilan bandsiz sho'x va beparvo,  
Xinoli barmoqqa to'ptosh ovora.

Qizbola bosh bilan dunyoni anglab,  
Aql bilan chertib, olasiz tanlab.  
O'zlarin dardlarin o'zlari tinglab,  
Menday necha telba, bebosh ovora.

Qachonki, o'zandan uziladi suv –  
Uch kun to'xtab qolsa, buziladi suv.  
Yuragim ostida eziladi suv,  
Ko'zimga chiqolmay ko'zyosh ovora.

2003

## QO'QON SHAMOLI

### **A'zam O'ktamga bag'ishlayman**

O'qtin-o'qtin g'azab otiga minib,  
Vahshat solar telba Qo'qon shamoli.  
Ko'zlarining qisilib, qulog'ing tinib,  
Ajrata bilmaysan yerdan samoni.

Uch kun davom etar talotum, qutqu,  
Uch kun kattalarning tilida duo.  
Uch kun el taqvoga burkanar butkul,  
Ramazonda shuncha yodlanmas Xudo.

Ayollar munis va mushfiq yanada,  
Nenidir sarhisob qilar erkaklar.  
Dunyodan uzilgan sirli xonada  
G'o'jaloq bolalar tinglar ertaklar.

Nam tortgan devorlar qulaydi guppa,  
O'qildizi kalta daraxtlar qular.  
Qurtlagan mevalar yer bilan bitta,  
Tegmanozik gullar, zaifa gullar...

Buyuk imtihon bu! Buyuk sinov bu!  
Borni bor, yo'jni yo'q qilib berguvchi.  
Boshingga zo'r savdo tushmasdan burun  
Kimning kimligini bilib berguvchi!

Yashash qanday engil – shamoldan keyin  
Ajib bir xushhollik, bir ajib surur.  
G'uborsiz havolar ipakdek mayin...  
Shamol, senga qulluq, senga tashakkur!

...Bitta gap esimdan ketmaydi hamon:  
Bir sayyoh – el kezib rizqini tergan,  
Shamol mavsumiga tushib nogahon,  
Ko'chib ketmaysizmi, degan, bu yerdan?

Banda tadbir qilar, YAratgan – taqdir,  
Qismat quyunida chirpirab uchdim.  
Sayyohning so'zidan kulgandim, oxir –  
She'rimga ergashib poytaxtga ko'chdim...

Qarayman, qurtagan yuraklar to'p-to'p,  
Ildizsiz og'ochlar tegar g'ashimga.  
Ahyonda ko'tarib suron, taloto'p,  
Tentak shamollarim kirar tushimga.

Nozik nihollari bo'lsalar paymol,  
Roziman, bo'ynimga barin uvoli.  
Bir marta teskari yursang, yuraqol,  
Toshkentda kutaman, Qo'qon shamoli!

2002

## MENING DARDIM

Erta kelgan o'xshar xazon fasli, Salim,  
Novdalarda bemor yurak rasmi Salim.  
Atirgulni she'ga solib ulgurmadiq,  
Atirgul deb kelgan edik asli, Salim.

Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

Shamol yalab ado qilgan duvolmidik,  
Toshloqqa tup qo'yolmagan niholmidik,  
Qorda qolgan qaldirg'ochdek uvolmidik,  
Osmon – yuksak, zamin tuban, pastmi, Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

Oqimga ters suzgan nahang oqib ketdi,  
Og'alarim zaru zo'rga og'ib ketdi,  
Ulton xo'rlab, iligimni chaqib ketdi,  
Balchiqdagi baliq – qadrimmasmi, Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

Chilvir otib, qad ko'targan tokni ko'rdim,  
Asriy qora xat ko'targan zog'ni ko'rdim,  
Oymomani dast ko'targan tog'ni ko'rdim,  
Shavqi baland sog'lar mudom mastmi , Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

Juvonmargning qabrin quchib, chim kuyadi,  
Yoshin yutib, jigarlari jim kuyadi.  
Lek juvonmarg orzularga kim kuyadi?  
Xunni so'rab, kimdan olay qasdni, Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

Atirgulni tebratmasa, el bo'ptimi,  
Xush bo'ylarin taratmasa, gul bo'ptimi?  
Bir dard bilan og'rimasa, el bo'ptimi,  
Bu dard bizdan ko'ra qadimmasmi, Salim,  
Sening darding mening dardimmasmi, Salim?

2002

## PUSHAYMON

Eng boy odam men bo'lardim,  
Pushaymondan foyda bo'lsa.  
Ko'ngli toshdan tosh dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

O'n beshimda qoldim sevib,  
Uyda yurak siqar edi.  
U ham ko'lob suvlar sepib,  
Yana suvga chiqar edi.

Suvni burardim teskari,

Agarda gap soyda bo'lsa.  
Qoshi baxmalday dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

Oy yuzidan qaytgan nurlar  
Yuzlarida qamashardi.  
O'n besh kunlik oyday dilbar  
Menga juda yarashardi.

Botmas edi kunduzlari  
Bunday chiroy oyda bo'lsa.  
Oyga boqib, ul dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

Arazlashib qoldik bir kun,  
Uch kun o'tdi, kechirmadi.  
Yuragimni bosdi tutun,  
Suвлar sepib o'chirmadi.

Nima deysiz, qizlar barin  
Gap-so'zlari mayda bo'lsa.  
O'zimday sodda dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

Uxlayolmay kechalari,  
Kunduzlari gangib yurdim.  
Ikki yilcha ko'chalari  
Saratonda changib turdi.

Bir gapirib, o'n kulardim,  
Kalishlari loyda bo'lsa.  
Ko'ngli muzdan muz dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

Ko'kragimni berib yerga,  
O'ylab, o'yga etolmayman.  
Kelib-kelib kimga erga  
Tekkanini aytolmayman.

Bundan ortiq azob bormi,  
Bir ko'cha, bir joyda bo'lsa.  
Toshkentga ketdim. Dilbarni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

Sindirmaydi yillar kimni,  
Tuyg'ularni silliqlaydi,  
Har ko'rganda yuragimni  
Kapalaklar qitiqlaydi.

Uzr, oldim vaqtingizni,  
Koshki, gapdan foyda bo'lsa.  
Nima qilay, o'sha qizni  
Sog'inaman qayda bo'lsa.

2002

## **ONAJON**

Goho sizning borligingiz unutdim,  
Yo'llarimda zorligingiz unutdim.  
Umidlari kesilgan bu dunyoda  
Yolg'iz umidvorligingiz unutdim.  
G'animatim, omonatim – onajon.

Oshno topdim, valekin do'st topmadim,  
Oqko'ngilli bir qorako'z topmadim.  
Shamollargasovurdim gul so'zlarni,  
Lekin Sizga bir shirin so'z topmadim.  
G'animatim, omonatim – onajon.

Ba'zan falak menga bag'ritosh keldi,  
Ishonganim g'animga yo'l dosh keldi.  
Omad ketsa, hamma kuldi ustidan,  
Faqat Sizning ko'zingizga yosh keldi.  
G'animatim, omonatim – onajon.

Fursat o'tib, sochga qirov qo'narkan,  
Sevgi otashlari asta so'narkan.  
Barcha tuyg'u aldamchi va o'tkinchi,  
Ona mehri yolg'iz sobit qolarkan.  
G'animatim, omonatim – onajon.

Hoki poyingizni ko'zimga suray,  
O'zim yarim ko'nglingizni to'ldiray.  
Bir chekkaga surib qo'yib dunyoni,  
O'g'il bo'lib, yoningizda o'ltiray.  
G'animatim, omonatim – onajon.

2000

## **BILSANG EDI...**

Kel, deganda, noz qilmasdan kelsang edi,  
Gul berganda, qayrilmasdan olsang edi.  
O'zing qandoq yaxshililing bilasan-u,  
Seni qanday sevishimni bilsang edi!

Bu dunyoga ozib-yozib bir bor kelib,  
Nahot o'tsam hijronlarda bag'rim tilib?  
Sen yurasan dardim bilmay, qadring bilib,  
Seni qanday sevishimni bilsang edi!

Muzni qanday kuydirishni bilasan-a,  
Suymaganni suydirishni bilasan-a,  
Laylolardan qolgan ishqni bilasan-a,  
Seni qanday sevishimni bilsang edi!

Chora istab bechoraman men chorasziz,  
Fe'ling sabab ikkimiz ham ovoramiz.  
Ichi qora qiz ekansan, e qora qiz!  
Seni qanday sevishimni bilsang edi!

Etti iqlim, suv-havoni bilasan-u,  
Beshta qit'a, yer-samoni bilasan-u,  
Menga qara, har baloni bilasan-u,  
Seni qanday sevishimni bilsang edi!

2004

## DILIM XUFTON

Dilim xufton, kunduzimni tunday qilib,  
Uchrashuvga kelmadi u, shunday qilib.  
Xo'rliklarim kelib ketar turib-turib,  
Endi uni unutayin qanday qilib?

Ismimni hech aytolmasdi, uyalardi,  
U jilmaysa, kun chiqqanday tuyulardi.  
Ismin aytsam, olamga nur quyilardi,  
Endi uni unutayin qanday qilib?

Ko'zim yumib ochsam agar, sog'inardim,  
Chekib dardlar, yozib xatlar sog'inardim,  
Barmoqlarin o'pib, battar sog'inardim,  
Endi uni unutayin qanday qilib?

Dilim xufton, kunduzimni tunday qilib,  
Va'dasida turmadi u, shunday qilib.  
Balki bir kun so'zlarini unutarman,  
Ko'zlarini unutayin qanday qilib?

Xudo, deyman, g'amga to'lsin yuraklari,  
Meni o'ylab, ado bo'lsin yuraklari.  
Birovlarni sevmay o'lsin yuraklari...

Endi uni unutayin qanday qilib?

2004

## MUHAMMAD YUSUF

Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga kun yo'q,  
Tomiringga qo'shib olishar uzib.  
Bobur yo'q, Cho'lpon yo'q, Majnun yo'q,  
Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf.

Bir qiz yig'lab borar, soddagina qiz,  
Yig'lar kitob bilan yuzini to'sib.  
Balki sevgilingiz, balki singlingiz,  
Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf.

Uydan mozorgacha yuz odimcha yo'l,  
Aylanib kelamiz yurtlarni kezib.  
Kimga ko'ngil berib, kimga esa qo'l...  
Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf.

Tirikka mehr yo'q, marhumga qahr,  
Nima topding, aka, tuproqqa tushib?  
Uzala tushgancha bo'zlaydi qabr,  
Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf.

Qizg'aldoq bosh egib turar bag'ri qon,  
Shoir yuragidan chiqqanmi o'sib?  
«Nega yig'lamaysan, ahli Turkiston?»<sup>1</sup>  
Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf.

2001

## BUNAQASI KETMAYDI

Avval bag'rin ochdi u,  
Keyin zahrin sochdi u.  
Bergan atirgulimni  
Yuragimga sanchdi u.  
Bunaqasi ketmaydi –  
Gul yarasi bitmaydi.

Bilak tashlab bo'ynimga  
Kulib, kirdi qo'ynimga

<sup>1</sup> Muhammad Yusuf satri

Keyin dedi: «Baribir –  
Boshqa birov o'yimda...»  
Bunaqasi ketmaydi –  
Til yarasi bitmaydi.

Shirin kulgan shumasmi?  
Bog'lab olgan shumasmi?  
Soch silkitib, jonioimga –  
Tuzoq solgan shumasmi?  
Bunaqasi ketmaydi –  
Qil yarasi bitmaydi.

O'psa, netar dedilar,  
Yuvsa, ketar dedilar,  
Har qandayin jarohat –  
Bir kun bitar, dedilar.  
Bunaqasi ketmaydi –  
Dil yarasi bitmaydi!

2005

## NIMA QILAY

Nima qilay, bargdan gul ko'p chamanzorda  
O'xshashingni topolmasam nima qilay?  
Gulbargicha dil bo'lmasa sen dildorda,  
Yuragingni o'polmasam nima qilay?

Nima qilay, qorako'zim, nima qilay?  
Ikki olom ora o'zim, nima qilay?  
Qoshlaringdan pora ko'ksim, nima qilay?  
Ko'zlariningni tutolmasam, nima qilay?

Dard berarda saxiy, baxtga xasis menga!  
Zardalaring, achchiqlaring laziz menga.  
Sen turgan joy poytaxt menga, aziz menga,  
Farg'onamga ketolmasam, nima qilay?

Ne sayyodsan, ne jallodsan, ne zolimsan!  
Tig'ida nur yarqiragan hilolimsan!  
Umidimsan, orzuimsan, xayolimsan...  
O'ylab, o'yga etolmasam, nima qilay?

Bir bandiman, senki hursan, nima qilay?  
Ko'kda bo'lsang, yerda yursam, nima qilay?  
Shu holimga yaxshi ko'rsam, nima qilay?  
O'xshassingni topolmasam, nima qilay?

2004

## AJOYIB QIZ

Ajoyib qiz ekan-da,  
Qarashlari g'alati,  
Kulib turib yig'laydi,  
Yig'lab turib kuladi.

She'rlarim sanasiga  
Qarab, otashda yongan,  
Meni hammadan, hatto  
O'tmishimdan qizg'ongan.

Ajoyib qiz ekan-da,  
Qarashlari g'alati.  
Sevgimas, bu – kasallik,  
Tag'in Xudo biladi.

Ismim aytib uxlagan,  
Ismim aytib uyg'ongan,  
Meni hammadan, hatto  
Ayolimdan qizg'ongan.

G'latiman o'zim ham,  
Es-hushim yo'q, g'alati.  
O'zim – o'zimdamasman,  
Bilmayman – ne bo'ladi.

Kerak bo'lsa, bugunim,  
Ertamdan ham tonaman.  
Uni hammadan, hatto  
Xudodan qizg'onaman.

2003

## O`SHANDA MEN SENI YAXSHI KO`RARDIM...

*O`shanda (oq osmon, qo`ng `ir yer guvoh...)  
Dilimni bilardi majnuntol bargi.  
Kaftimda yo`q edi zig `irdek gunoh,  
Yo`q edi kaftimning zarradek gardi -  
O`shanda men seni yaxshi ko`rardim...*

### KELADI

Qayrilib qaramay, shartta qo'l siltab,  
Elkamga to'nimni ilgim keladi.  
Yurgim kelmay qoldi tirikchilik deb,  
Tiriklik ko'yida bo'lgim keladi.

Qattiqlashib borar kun sayin qahr,  
Tikonda ham zahr, gulda ham zahr  
Tirnoqqa arzimas borlig'ing, axir,  
Ko'ksimni tirnoqlab yulgim keladi.

Yuragim oqadi Farg'ona tomon,  
Ey, achchig'i shirin, gumoni ayon,  
Sevgingga ishonib yashayman hamon,  
O'zimning holimga kulgin keladi.

Ketsam, senga eltar ja'miki yo'llar,  
Yolg'iz seni quchsam, yuragim to'lar.  
Qanday soz, tepamda nafarmon gullar,  
Sochingga ko'milib o'lgim keladi.

2003

### AKALARIMGA

Uch bora aylandi ajal qamchisi,  
Uchta yulduzimni falakdan uzib,  
Bugun jigarimda uchta tig' izi,  
Shavkat Rahmon, Oxun, Muhammad Yusuf.

Birovi shamshirday to'g'ri zot edi,  
Biri erkatoyi she'riyat bog'in.  
Birisiga mayda gaplar yot edi,  
Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Oxun.

Nazar yomon ekan, suq yomon ekan,

Bir ariqdan suv ichib, birga o'sib,  
Ko'p ekan-da joningga ko'zin tikkan...  
Shavkat Rahmon, Oxun, Muhammad Yusuf.

Ortiqcha harorat gulni so'ldirar,  
Ortiqcha suv buzar daryo qirg'og'in.  
El sevgisi asta-sekin o'ldirar,  
Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Oxun.

Qulog'imda har birining so'zi, ohangi,  
Tobora bu olam qor kabi to'zib,  
Narigi dunyoga bosar posangi,  
Shavkat Rahmon, Oxun, Muhammad Yusuf.

2001

## DADAM

Oyday yuragimda dog'im bor endi,  
Kulfat o'zimniki, taskin-daldam yo'q.  
Uzoqda ishongan bog'im bor edi,  
Suyangan tog'im yo'q – endi dadam yo'q.

Ishim yurishmaydi, yo'lim unmaydi,  
Duo beradigan toza odam yo'q.  
Gugurtcho'p sinadi, shamim yonmaydi,  
Nuri ilohim yo'q – endi dadam yo'q.

Uyga kirsam o'ksib beradi ko'nglim,  
Ko'chada yuzimda dardu alam yo'q.  
Dada, deb chaqirmsam kuladi o'g'lim,  
O'g'lim, panohim yo'q – endi dadam yo'q.

Yoningizda menga joy yo'qmi? Keldim.  
Hammadan roziman o'ch va ta'nam yo'q.  
Men juda olisni ko'zlagan edim,  
Netay, hamrohim yo'q – endi dadam yo'q.

1998

## YO'LIM BOSHQA

Bolarining ko'nglin ko'ring – gul tanlaydi,  
Ko'kragimda qizil gul bor – gulim boshqa.  
Ko'z yoshi ham yuzga tushsa yo'l tanlaydi,  
Hamma boshqa yo'lda, mening yo'lim boshqa.

Sizlar uchun unutilgan eski tushman,  
Daftarlarda ismim uzra chiziq tushgan.  
Aqligamas, savqiga bo'ysungan qushman,  
Ko'zlagan manzilim boshqa, elim boshqa.

Qulog'imdan yurakka bir sas o'tadi,  
Shitir-shitir xazon ila xas o'tadi,  
Hayot qanday yashamoqdan dars o'tadi,  
Ammo hayot boshqa ekan, ilm boshqa.

Bahorgi soy kabi jo'shib, to'lib olsam,  
Guldurakdek samolarda kulib olsam,  
Bir munosib ajal topib, o'lib olsam,  
Keyin meni yo'qlamasa o'lim boshqa.

1998

## MEROS

Yomg'ir loyga yoqqan zamonda,  
Suvlar soyga oqqan zamonda,  
Boylar boyga boqqan zamonda,  
Menga qarab kulgan yo'qchilik.

Iligini so'rib ilkimning,  
Sarg'aytirgan guldek singlimni,  
Erta ulg'aytirgan o'g'limni,  
Jigaramni tilgan yo'qchilik.

Dada, balki sizni o'limdan  
Asrash kelarmidi qo'limdan...  
Siltab tortib eski to'nimdan,  
Meni etim qilgan yo'qchilik.

Minnatli osh, bu – sochma o'qdek,  
Ich-ichingni kuydirar cho'g'dek.  
Qorin ochu nazarim to'qdek,  
Meni aziz bilgan yo'qchilik.

To'g'ri, nima kelsa – Xudodan,  
Da'voyim yo'q eski dunyodan.  
Taskin shuki, Odam Atodan  
Menga meros qolgan yo'qchilik.

2001

## **YULDUZ**

Yulduz, kechir meni, kechir, yulduzim,  
Iqboling kulta ham baxting kulmadi.  
O'zimga mahliyo bo'ldim-u o'zim  
Ko'nglingni olishga vaqtim bo'lmasdi.

Men senga muhtojman, intiqman, zorman,  
Bilmayman, bormanmi-yo'qmi, yodingda.  
Agar aybdor bo'lsam, yolg'iz aybdorman –  
Xudoning oldida, sening oldingda.

Kechalar yodimga tushganda ko'zing,  
Somon yo'llarida changidi kulim.  
Osmonim muattar aylagan o'zing,  
Hamishabahorim, hamishagulim!

O'zimdan, ehtimol, seni asradim,  
Bildimki, men bilan baxting kulmaydi.  
Yig'lasam, yig'iga sig'mas hasratim,  
She'rda hamma gapni aytib bo'lmaydi.

Yulduzni etaklab Shoshga kech kirsa,  
Farg'onajonimga oqadi dilim.  
Meni unutmagan, meni kechirma,  
Hamishabahorim, hamishagulim!

2003

## **SIYOM EGIZAKLARI**

Ism boshqa xolos, jismu jon bitta,  
Bir-biriga zimdan qarashar ekan,  
Ba'zisida yurak, oshqozon bitta,  
Shular ham goh ovqat talashar ekan.

2003

## **BAXT**

Tashvish tashlamasin yuzingga soya,  
Quvonching topmasin aslo nihoya.  
Men baxtiyor bo'lay baxtingni ko'rib,  
Menga shunisi bas, menga kifoya.

2004

## **SHE'RIM**

Eng go'zal mamlakat – Qo'shtegirmonda  
Mensiz oqarar tong, oqadi suvlar...  
Tushlarini suvga sochadi tongda  
Onhazratning  
                        qizlaridek  
                        suluvar...

Meni unutolmay qiyalar qishloq,  
Turnalar yig'laydi osmonlarida.  
Tovonimni qo'msab, qabarar tuproq,  
Qolarman tuproqning tovonlariga!

Og'ilda o'roqni sarg'aytirar zang,  
Dalalar kuzatar zarrin mezonni.  
Daydi epkinlarning topgani nayrang:  
Nay qilib puflaydi siniq somonni...

Eng go'zal mamlakat – Qo'shtegirmonda  
Qon yig'lab gulbargin to'kadi gullar.  
Ma'yus ketib borar mag'rib tomonga  
Mandan arazlagan farishta kunlar...

1988

## **PAXTA**

### ***Kursdoshlarimga***

Dala. Mezon. Qizlar. Tarozi.  
Paxsali duvollar. Ismsiz qirlar.  
Yulduzdek titranib uchgan ovozim,  
Tizzani quchoqlab o'qilgan she'rlar.

Olov tegrasida qaynagan o'lan.  
Yurakdek qontalash chinor yaprog'i.  
«Sevsam, o'ldiralar. Sevmasam, o'lam...»  
Va hisobchi qizning nigohi...

U kunlar o'tdilar, biroq o'ylasam  
Quyosh imillaydi, kunim o'tmaydi.  
Eng mashhur hofizning qo'shiqlari ham  
O'sha o'lanlarga etmaydi.

Toshkentning toshlari ezar tanimni,  
Toshqator yo'llarda rizqimni terdim.

Bugun seni qancha sog'inganimni  
Hisobchi qiz, o'zing hisoblab bergin!

Hasratlarim og'ir, qo'ysam sindirar  
Har qanday tarozi pallalarini.  
Bunda yuragimni axir kim bilar,  
Kim ko'rgan Yozyovon dalalarini?!

Olsda ismimni aytib norozi  
Yerlarga egilar nonbehi shoxi.  
Dala. Mezon. Qizlar. Torozi  
Va hisobchi qizning nigohi...

1992

## **DEDI**

Dedi: «O'g'lon, qaragin,  
Zulfim suvdayin mayin.  
Barmoq solib taragin,  
Ketma yuzing yuvmayin!»

Dedim: «Qorasoch dilbar,  
Dilimni tig' tilgusi.  
Zulfa tegursam agar  
Yuzim qaro bo'lg'usi!»

Dedi: «O'g'lon, qoshimdan  
Alhol ketmagil zinhor.  
Barmoq surgil qoshimga,  
Ilking tegsin ilk bor!»

Dedim: «Qaroqosh dilbar,  
Qoshing qilichligi bor.  
Qo'lim yuborsam agar  
Ilkim tilishligi bor!»

Dedi: «O'g'lon, yuzimda  
Alanga raqsi zohir.  
Oy ergashar izimdan,  
Izmingga olgil oxir!»

Dedim: «Mohiro'y dilbar,  
Husningni kun talashgay.  
Men ne qilay, bu yuzlar  
Faqat senga yarashgay!»

Dedi: «O'g'lon, shoshma sen,  
Nazar qilgil la'liga.  
O, bilarman, tashnasan,  
Kel, mayliga, mayliga...»

Dedim: «La'lilab dilbar,  
Tiynat o'ti etmasmi?  
Labingga tegsa agar  
Dudoq kuyib ketmasmi?»

Dedi: «O'g'lon, sen meni  
Qiynaydirsan qasdma-qasd.  
O'p, quchoqla, sev meni,  
Menga joning kerakmas!»

Dedim: «Xush qol, ey dilbar,  
Netay ko'ngil to'lmasa?  
Bu ne ishq, sevib agar  
Hijronida o'lmasang?!»

1993

## O'SHANDA

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)  
Ismimni bilardi qayrag'och bargi.  
Yuragim tomida yotgan qizg'aldoq  
Kapalak haqida qo'shiq aytardi.

O'shanda  
o'zim ham olov edim-da,  
Tushovini uzgan toyga o'xshardim,  
Akamning choponin ilib egnimga  
Qirda  
quyun bilan kurash tushardim.

O'shanda  
jilg'alar chuchuk til bilan –  
Erkalab, toshlarning boshin silardi.  
Chig'anoqlar esa suyuq dil bilan  
Toshning kovagida achchiq yig'lardi.

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)  
Dumog'im tuyardi laziz munglarni.  
Hovuzning tubinda yolg'iz gulimoh  
O'tli ohlar ursa, yonib tinglardim.

O'shanda

shamolni sevardi og'och,  
Bulutlar yashardi g'amli, o'ksinib.  
Tutundan qorayib ketgan qaldirg'och  
Suvlarga urardi qizg'ish ko'ksini...

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)  
Dilimni bilardi majnuntol bargi.  
Kaftimda yo'q edi zig'irdek gunoh,  
Yo'q edi kaftimning zarradek gardi –  
O'shanda men seni yaxshi ko'rardim...

1989

## **SOBIQ ASKAR**

Zulfi zar qizgina,  
qo'llaring o'pib,  
Ko'zimda oynadek yaxladi yoshim.  
Esladim,  
kaftiga kuhlab, yer tepib,  
Sibirlarda qolgan o'n sakkiz yoshim.

«Yana keling», - deysan nigohing bilan,  
Ko'ksimda g'ijirlar hasratning toshi.  
Eslayman,  
qatora – bahaybat ilon,  
Sibirlarga ketar o'n sakkiz yoshim.

Qoshlaring kamondek tortilar tarang,  
Tutdek to'kiladi so'nggi bardoshim.  
Bilmaysan,  
o'q otish maydonlarida  
Juvonmarg bo'lganin o'n sakkiz yoshim.

Zulfi zar qizgina,  
olov qizgina,  
O'n sakkizga kirgan mitti quyoshim,  
Bugun uxlatmaydi,  
chaqirar yana  
Sibirda adashgan o'n sakkiz yoshim.

Keturman,  
kutmagin, kelmasman qaytib.  
Men, axir, yigirma uchdan ham oshdim!  
Sibirda muzlaydi ismingni aytib  
O'n sakkiz... o'n sakkiz... o'n sakkiz yoshim...

1990

## KO'ZLARIDA

Ko'zlarida g'am gardidan surmalari  
Uchib ketdi bu ko'ngilning turnalari.  
Ey siz mening g'aribgina kulbalarim,  
Sizni tashlab samolarga ketolmayman.

Gulyuzligim yuz noz ila burdi yuzin,  
Men ko'z yumsam, kipriklarim so'ydi ko'zim.  
O'z-o'zimga azon aytib qo'ydim ism...  
Endi o'shal zebolarga ketolmayman.

Kecha qadah to'qishtirib hilol bilan  
Gulob ichtim yolg'iz do'stim Iqbol bilan.  
Bugun qo'lda ikki bo'lak safol bilan  
Iqbollarga, safolarga ketolmayman.

Endi faqat sabolarni sog'inish bor,  
Elas-elas navolarni sog'inish bor,  
Olis-olis ziyolarni sog'inish bor,  
Aks o'zimman, sadolarga ketolmayman.

Onasidan arazlagan bola kabi  
Bu olamdan burilgandir mening labim.  
Ey, onamdek g'aribgina kulbalarim,  
Sizdan go'zal dunyolarga ketolmayman.

1993

## RUSTAM POLVON YODI

Minoralar chir aylanib quyun bo'ldi,  
Hayot kurash emas, g'irrom o'yin bo'ldi.  
Farg'onada xazon uyum-uyum bo'ldi –  
Rustam polvon yiqildi.

Kimga yotdir, yana kimga yoddir Rustam,  
Men bitmagan eng shohona baytdir Rustam,  
Firdavsiyning dostoniga qaytdi Rustam,  
Rustam polvon yiqildi.

Oy uyaldi – berkingani bulut bo'ldi,  
Tog'lar boshin egdi – sovuq sukut bo'ldi.  
Bag'dod, sening yuzing endi shuvit bo'ldi –  
Rustam polvon yiqildi.

Yurtim, sening rost so'zingdan yolg'oning ko'p,  
Suvlaring ko'p, suvdan ko'ra talqoning ko'p.

Rustaming yo'q, endi, og'zi polvoning ko'p...  
Rustam polvon yiqildi.

Yo'qlov aytib men o'zimni ovutaman,  
Ko'zyosh to'kib, yuragimni sovutaman.  
Shahar ichra metin quti – tobudaman...  
Rustam polvon yiqildi.

Yer titradi, ir titradi, yulduz uchdi,  
Yulduz tegib, ulug'minor nurab tushdi.  
Rustam polvon yiqilmadi, qulab tushdi,  
Rustam polvon yiqilmadi, qulab tushdi.

1991

## MUQADDIMA

### ***O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir...***

***Muqimi***

Bizlar egiz edik – man yana ko'ngil,  
Barq urding, jonima alanga tushti,  
Ko'ngil qushdek uchi havoga engil,  
Aylona-aylona alingga tushti.  
Man kamand istarman, tan gulxandadir,  
O'zim har joydaman, ko'ngil sandadir.

Yig'ladim-yig'ladim, osmon ho'l bo'ldi,  
Kiprigim havoga chizdi ariqlar.  
Oyu kun ko'zimni olgan – ko'l bo'ldi,  
Oylarni tangadek tortdi baliqlar.  
Man rasan istarman, tan gulxandadir,  
O'zim har joydaman, ko'ngil sandadir.

Chorig'imni kiydi dashtning toshlari,  
Ko'ylagimni esa tikonlar yuldi.  
Man Adam istarman, qarindoshlarim, –  
Desam, bosh tebratib ilonlar kului.  
Man adan istarman, tan gulxandadir,  
O'zim har joydaman, ko'ngil sandadir.

Karbalo yuz burdi – mandan chekindi,  
Avvalo jon berib begona tutding.  
Alam-o, g'am bosib bellaram sindi,  
Sanam-o, san mani o'tparast etding!  
Man kafan istarman, tan gulxandadir,  
O'zim har joydaman, ko'ngil sandadir.

Bizlar egiz edik – ko'ngil bilan man,  
Ko'ngil nigoh etmas yoqlara tushti.  
O'ksinma, Iqbolbek, chunki azaldan –  
Osmonning yuklari tog'lara tushti,  
Man vatan istarmen, tan gulxandadir,  
O'zim har joydaman, ko'ngil sandadir.

1992

## **BIR TO'P KABUTAR**

Hatto turmaning ham osmonlari bor,  
Toshyo'lak chokida giyohlar bitar.  
Garchi tovushtutar posbonlari bor...  
O'mbaloq oshadi bir to'p kabutar.

Qanolalar elidan lang'illar quyosh,  
Shamollar bir nafas nafasin yutar.  
Yaraqlab ketadi bir hovuch to'ptosh,  
O'mbaloq oshadi bir to'p kabutar.

Simlar o'ramida bo'g'ilgan havo,  
Simlar o'ramida havolar zahar.  
Harir havolarni to'zg'itib har yon,  
O'mbaloq oshadi bir to'p kabutar.

Kabutarxonaga aylanadi ko'z,  
Yurak potirlaydi, o'ynaydi battar.  
Xo'rsiniq uchadi: O'n... yigirma... yuz...  
O'mbaloq oshadi bir to'p kabutar.

...Hukmingni bekor qil, taqdiri azal,  
Yulduzim, uchaylik yulduzlar qadar.  
Osmon buncha cheksiz, bunchalar go'zal!  
O'mbaloq oshadi bir to'p kabutar...

1989

## **EY, DIL...**

Ey, dil, ne istaysiz yalang'och ko'kdan,  
Anvor ummonida titraysiz dir-dir.  
Yerga bir boqingiz – qishu yoz, ko'klam,  
Kuzlar unutdilar bizlarni bir-bir.

Imkon qo'ldan ketdi – tugadi fursat,

Yaqinlar yiroqdan qaraydi dilgir.  
Ko'zani sindirib jo'nadi ulfat,  
Do'stlar unutdilar bizlarni bir-bir.

Xayollar qo'ymaydi o'z holimizga –  
Lo'livachchalardek yopishqoq kir-chir.  
Qanotlar bog'lovchi iqbolimizga  
Hislar unutdilar bizlarni bir-bir.

Ey, dil, o'ksimaysiz, chekmaysiz alam,  
Yerdan uzilganning jazoyi shuldir.  
Endi qaytolmaysiz Farg'onaga ham,  
Izlar unutdilar bizlarni bir-bir.

Qismat muhabbatni bizga ko'p ko'rgan...  
Yig'lamang, dunyo ham bevafo, axir.  
Ming va'dalar bergen, hatto o'ptirgan  
Qizlar unutdilar bizlarni bir-bir.

1992

## BIRINCHI SEVGI

To'rt fasl bahor edi,  
To'rt taraf gulzor edi.  
Sen bor eding, tilimda  
Bir qo'shig'im bor edi:

«Gulijonning ko'zidan  
Ohular uyaladi.  
Kiprigini ko'tarsa,  
Osmonlar suyanadi.  
Gulijonning bo'yiga  
Olamning guli etmas.  
Uni olib bergali  
Otamning puli yetmas...»

Seni mengan ayirdi  
Ko'zlari kir ayollar,  
Meni mengan ayirdi  
Ildizi yo'q shamollar.

Ketdi yoshlik, ketding sen,  
Dil yig'lar, dil kuyinar.  
Dilda keksaygan quyosh  
O'z nuriga suyanar.

Menga, qalamqoshligim,

Qalammi kerak edi?  
Tobutim to'ldirgali  
Alammi kerak edi?

Yurakkinam lim to'ldi,  
Ko'zyoshlarim sim bo'ldi.  
Sen oylarga aylanding,  
Gulijon, men kim bo'ldim?

To'rt fasl bahor edi,  
To'rt taraf gulzor edi.  
Men boy edim, dilimda  
Bir qo'shig'im bor edi.

1991

## ALAM

Mushtimni yerga urdim,  
Tog'lar guldirab ketdi.  
Mushtimni ko'kka urdim,  
Ufq hilpirab ketdi:

«Mening botmon mushtim-a,  
Ne qiynoqqa tushdim-a!»

Mushtimni soyga urdim,  
Tosh sapchidi baliqdek.  
Mushtimni oyga urdim,  
Oy sochildi tariqdek.

«Mening to'qmoq mushtim-a  
Ne ko'ylarga tushdim-a!»

Mushtimni yo'lga urdim,  
Kulcha bo'lib oldi yo'l.  
Mushtimni gulga urdim,  
G'uncha bo'lib oldi ul.

«Mening gurzi mushtim-a  
Ne ahvolga tushdim-a!»

Mushtimni qirga urdim,  
Qirlar qochdi sudralib,  
Mushtimni sherga urdim,  
Mushuk bo'ldi, suykalib...

«Mening cho'qmor mushtim-a,

Ne azobga tushdim-a!  
Urolmadim do'stimga,  
Urolmadim o'zimga...»

1991

## **SARATON**

Englik liboslardan voz kechdi shahar,  
Elkalar yalang'och, yalang, och ko'zlar.  
Olislarda esa suvlar sepishar  
Ko'ylaklari bilan cho'milgan qizlar.

Shahar qizg'onmaydi xiyobonlarin,  
Sun'iy ko'liniyu qayiqlarini.  
Ammo dil qo'msaydi sokin bog'larning  
Olmalar oqizgan ariqlarini.

Shahar ko'p narsani menga o'rgatdi,  
Hammasini sanab, aytib bo'lmaydi.  
Shu yerda suyagim va diydam qotdi,  
Endi qishloqqa ham qaytib bo'lmaydi.

Tongda derazamdan siniq nur tushar,  
Ne tongkim, bugun ham namlidir ko'zlar.  
Axir tushimda ham suvlar sepishar  
Ko'ylaklari bilan cho'milgan qizlar...

1992

## **SODIQ CHEGACHI**

Sodiq chegachining ayoli xiyonat qildi...  
Chegachi cho'loq edi,  
kambag'al edi,  
befarzand edi u ustiga-ustak.

Oysuluv bo'lsa-da ayolin ismi  
suluv emas edi oydayin.  
Ajab,  
vafo qilmadi Oysuluv  
go'zal bo'lmasa ham...

Uni shayton yo'ldan urdi,  
Sodiqni urdi xudo.

Oysuluv

yig'ladi ikki bukilib...

O'choqdagi o'chayotgan o't  
qizil tillarini o'ynatib  
masxara qilardi Sodiqni.

Qumg'on  
kulardi uning ustidan  
sharaqlab...

– Yo'qol... – dedi sekingina chegachi.

Ayol o'rnidan jilmadi.

Tunda yo'qolib qoldi Sodiqning o'zi.

Kimdir

uning gandiraklab Bachqirariq tomon ketayotganini  
ko'rgan mish...

Bir yil o'tdi, uch yil, besh...

Sodiqning cho'pdek ozgan,

aqldan ozgan ayoli

suvqizi kabi sochlari yozg'in

o'tirarmish Bachqirariq qirg'og'ida.

Qo'llarida Sodiq chegachining

Kamonchasi, parmabigizi, sirachi...

«Chiqing, begim, ko'nglingizni chegalab beray,

Ko'nglingizni bering, begim, chegalab beray...»

1989

## **ISMINGNI HECH KIMGA AYTKIZMAYMAN, GUL!**

*Senga lablarimni tegizmayman, Oy,  
Senga ziyonimni etkizmayman, Gul.  
Biroq osmonimdan ketkizmayman, Oy,  
Ismingni hech kimga aytkizmayman, Gul!*

### **OG'RIQ**

Qilich navdalarning shaffof qini bor,  
Olov tebranadi ulkan loladay.  
O't kabi isyonkor, qordek beg'ubor –  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

Qo'zilar zamharir maysani toptab,  
Og'zining hovurin kavshaydi tinmay.  
Ming jumboqni echar, qo'llarin toblab,  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

Cho'g'lar chirsillaydi, olov yonboshlab,  
Qiyiqko'z bolaga tegishar atay.  
Zuhroda sayr etar, qo'ylarni tashlab,  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

Bugun ko'kragimda simillar og'riq.  
Bugun qo'llarimda parchalangan nay.  
Men sizni sog'indim hammadan ortiq,  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

Manxus davralarda davrlar surdim,  
Qasamlar ichdimu ichaverdim may.  
Oydin lahzalarni siz bilan ko'rdim,  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

Siz meni chaqiring, qiynalib ketdim,  
Siz meni chaqiring, o'zimga qaytay.  
Chaqiring, yurakka harorat yetsin,  
Gulxan atrofida uchta bolakay.

1992

### **UYG'ONISH**

Huvillagan dunyo, huvillagan qalb,  
Na quvonch, na rayhon, na g'am, na yalpiz...  
Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,

O'zim bilan o'zim yashadim yolg'iz.

Bir kuni oy bilan tillasha turib,  
His qildim yuragim og'irligini.  
Ko'klam sellaridek qonim gupirib,  
Angladim yashashim zarurligini!

Osmonni quchoqlab yotganim tunda  
Muhabbat, oy kabi kirding yodimga.  
Bulutlar oqquvga aylandi zumda,  
Yulduzlar to'pillab tushdi yonimga.

Elkamda elkanday qanot barq urdi,  
Bir go'zal qush bo'ldim ertakdagiday.  
Yovvoyi yoshlikda azot hayqirdim –  
Titradi koinot etaklari-da!

Titradi koinot etaklarinda  
Kirpidek g'ujanak bo'lgan olamlar,  
Quyosh tig'in charxlab elkalarida  
Qip-qizil qum kechib yurgan odamlar...

Yumshoq shamollarni qo'zg'atib uchdim,  
Kahkashon – shiddatim qoldirgan oq iz.  
Sening olamingga boryapman, kutgin,  
Osmonni quchoqlab yotgan g'amgin qiz!..

1988

## **YOLG'IZMAN**

Qorako'z turnalar Qo'qonga qaytar,  
Giyohlar yugurib kelar olisdan.  
Mening turnam qani?  
Giyohim qayda?

Yolg'izman...

Uchar likopchada – sirli tayyorada  
Do'st izlab kelishar qay bir yulduzdan.  
Men esam butun boshli sayyorada –  
– Yolg'izman...

Do'stlar eshigimni yuz bora qoqar,  
Eshik qoqmay kirar maktub  
bir qizdan.  
Goho jonga yoqar,  
goho jonni yoqar...  
Yolg'izman...

Onam tinmay menga kelin tanlaydi,  
men bo'lsam yolg'izman muhabbat qadar.  
Kim meni tushunadi?  
Kim meni anglaydi?  
Yolg'izman-da, nima qilay, birodarlar!..

1990

## FARG'ONACHA

***Muhammad Sharifga***

Sohibjamol sohibdilim, muncha sitam ayladilar,  
Makr birlan, qahr birlan ko'zimizni boyladilar.  
Bizni suyib – suymadilar, ozod qo'yib – qo'ymadilar,  
Dilimizni barmog'ida olma kabi o'ynadilar,  
Kuyib-kuyib qolaberdiq kiyiklarning orasida,  
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga.

Yor-ey, dedik, boshimizni yorib o'tdi yor qamchisi,  
Oyog'ining tirnog'iga tomib o'tdi qon tomchisi.  
Qonimizga qonib o'tdi turnalarning arg'amchisi,  
Qizil guldek yonib ketdi turnalarning aldamchisi.  
Tabassumni xalqa yanglig' taqib qushning sarasiga,  
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga.

Shahr otlig' sahrolarda qo'ng'iroqlar sasin kutdik,  
Dahr otlig' daryolardan muruvvat kemasin kutdik,  
Zahr otlig' havolardan atirgullar isin kutdik,  
Sabohat elchisin kutdik, jarohat emchisin kutdik.  
Biroq etdik boshimizga, validamiz nolasiga,  
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga.

Xoqon edik, qalqonomiz go'daklarga ermak bo'ldi,  
Sulton edik, davronimiz o'zimizga ertak bo'ldi.  
Balokash yor lashkalari ming-ming bo'ldi, lak-lak bo'ldi,  
Biz shams kabi yerga botdik, ul oy esa yuksak bo'ldi,  
Omon yursak bo'lmasmidi davlatlarin soyasida,  
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga.

Biz oh ursak, har oshiqlik ko'ra oshiqlik ohimiz bor,  
Ko'ylagining shamolidan samolarda xokimiz bor.  
Ko'nglimiz yo'q, dog'imiz bor, dog'i yo'q dilxohimiz bor,  
Gunohkormiz, ko'ngil berdik, endi tan olmog'imiz bor,  
Qalbimizni qayta bersin, tashlasin ostonasiga,  
Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga!

1993

## DASHTDA

Bu yerdan oh urib o'tgan Go'ro'g'li,  
Bu yerdan ot surib o'tgandir Namoz,  
Bu yerga qismatning uchta zo'r o'g'li  
Piyoz ekyapmiz,  
piyoz!

«Qarg'ish tekkan yer bu!» – degan Xudoyor.  
Faqat oy tunlari chodirin tikkan,  
Faqat biz – uch og'a-ini har bahor  
Piyoz ekkanimiz  
ekkan.

Tirik-chilik...  
O'zingizga ma'lum buyog'i.  
Rizqi ro'z degani –  
titilgan to'rva.  
Do'konda falon pul paxta yog'i...  
Piyoz bo'lsa,  
qozonda sho'rva.

Bu yerni suv o'gay singil sanaydi  
Shabada yurmaydi –  
tiladi tikan.  
Men akamga,  
bolam qo'lga qaraydi...  
Piyoz ekkanimiz  
ekkan.

Bu yerdan ot surib o'tmaydi Namoz...

1987

## XAZONDEK SOCHILDI NECHA BOR TAQVIM

Xazondek sochildi necha bor taqvim,  
Yurak ham to'kildi yaproqqa o'xshab.  
Shamolda sovrildim, soylarda oqdim,  
Sen hamon o'shasan, sen o'sha-o'sha.

Zulfing qo'ng'irog'i barmog'imdandir,  
Dudog'ing gullatgan – birinchi bo'sa.  
Endi u kunlarga etmoq gumondir,  
Sen hamon o'shasan, sen o'sha-o'sha.

Seni quchib uxbab, yana tushimda –  
Ko'rib uyg'onardim sog'inib, qo'msab.

Meni mendan o'zga inson tushunmas...  
Sen hamon o'shasan, sen o'sha-o'sha.

Kun sayin oramiz olis va olis,  
Balki kutarsan ham xazonlar to'shab.  
Sen hamon tiriksan, men esa yolg'iz...  
Sen hamon o'shasan, sen o'sha-o'sha.

1992

## DUNYO

Dunyo – chechan kampir. Ohista  
Quyoshni chuvatib, qo'lqop to'qirdi.  
Kuz edi. Izg'irin izg'irdi pastda,  
Ettinchi qavatda o'qirdik.

Dunyo - qishloqi chol. Hassasi bilan,  
Cho'g' istab titkilab o'ltirardi kul.  
Ettinchi qavatda kun chiqdi birdan –  
Ettinchi qavatga kirib keldi Gul.

Dunyo – keksa olim. Qoshlarin o'yib,  
Hijalab, sharhlardi Mirzo Bedilni.  
Gul keldi. Sochildi firdavsning bo'yi,  
Bahor isi tutdi xona va dilni.

Dunyo – nigohini yo'qotgan tolib,  
Dunyo etti kunda esidan ozdi.  
Yotoq devoriga chiziqlar tortib,  
«Iqbol+Gul» deya yozdi!

Dunyo – sochlarini parda etgan qiz,  
Hijob orqasida kulgani-kulgan.  
Kulgan sayin badar ketaverar kuz,  
Kulgan sari o'zi chulg'anar gulga.

Dunyo – yashin tushib, yonayotgan sham,  
Kitob sahifasin ashklari bosdi,  
Hattoki, baholar daftariga ham  
«Iqbol+Gul» deya yozdi!

Dunyo – dunyoligin qiladi bir kun,  
Vizillab uchadi ko'kko'zli yilon,  
To'ng'izlar ko'rsatar balchiqli turqin,  
Gullar xazon bo'lar, iqbollar yolg'on...

Dunyo - o'z yurtida adashgan sayyoh,

Qo'msab, kokillarning anbar isini  
Izlar Farg'onadan Qo'qongacha to  
O'sha olis tushning xotirasini.

Dunyo – dunyodan yuz o'girgan darvish,  
Na uyi bor uning, na borar yeri.  
O'tsa, ko'zlariga uraverar nish  
Devorga o'yilgan eng go'zal she'ri.

Dunyo – chechan kampir. Shoshmasdan  
Bulutni tolchiviq bilan savardi.  
Kuz edi. Odamlar izg'irdi pastda,  
Ettinchi osmonda yashardik!

1992

## AZA

Eshilib-buralib, yulqinar uzum,  
Shamaloq barg aro mo'ltirar osmon.  
Siyohrang rayhonlar yashirar ko'zin,  
Ustunga yuz bosib, yig'laydi chopon.

Gezarib rangini yo'qotgan duvol,  
Bostirma ostida nam tortar somon.  
Daraxtga suyanar charchagan shamol,  
Ustunga yuz bosib, yig'laydi chopon.

To'proq ko'chib ketgan, sho'rangan tuproq,  
So'rida yakandoz ezilgan yomon.  
Xontaxta ustida sarg'aygan yaproq...  
Ustunga yuz bosib, yig'laydi chopon.

Chumoli uyada parpiramas nur,  
Qaldirg'och inida loy bo'lgan tug'yon.  
Beshiktebratarlar mahzun tebranar...  
Ustunga yuz bosib, yig'laydi chopon.

«Hech kim etolmaydi osmon toqiga...»<sup>2</sup>  
Tirgakka tayanar munkaygan ayvon.  
Ustun bo'lomagan sohib haqqiga  
Ustunga yuz bosib, yig'laydi chopon...

1993

---

<sup>2</sup> G'ulom Abdulla satri.

## OSHIQ BOLA

Oltin qasr, tosh qasr,  
O'tdi yil, o'tdi asr.  
Yuragimni qon qilding,  
Ezilib ketdi bag'ir.

Malika, jon, malika,  
Qahring yomon, malika.  
Lablarimga tut og'u,  
Qolay omon, malika.

Tirnoqlaring tillodan,  
Barmoqlaring halvodan.  
man tamshanib o'tarman  
Achchig'i tez dunyodan.

Meni ozod qo'y yoki  
Tironog'ingda so'y yoki.  
Ko'zlarim ummoniga  
Sochlaringni qo'y yoki.

Malika, jon, malika...  
Mehring yomon, malika.  
Lablarimga lab bergil,  
Qolay omon, malika.

Tosh qasrning toshlarin  
Eritmadi yoshlaram.  
Ko'ngling yumshagan bo'lsa,  
Ro'molchangni tashlagin...

Rizvonlarga ketaylik,  
Osmonlarga ketaylik.  
Osmonlarga sig'masak,  
Qo'qonlarga ketaylik!

1992

## TELBA XAYOL

Hilol beshik kabi chayqaldi asta,  
Gulchin darbozaga suyandim xasta.  
Bugun yig'lamasam, erta kulmasman,  
Ruhimni hilolga belagim keldi,  
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

Sarpoychan daraxtlar dardim bilmadi,

Muzlagan kurtaklar bag'rim tiladi,  
Ko'ngil bir gullagan fasl tiladi,  
Ko'ngilni quyoshga bog'lagim keldi,  
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

O'rgimchak to'rini daryoga soldim,  
Tillo baliq tutib, ziyoga soldim,  
O'zimning jonimni baloga soldim.  
Shu shirin jonimni saqlagim keldi,  
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

Devorlar oqlandi ko'zim o'ngida,  
Chinorlar oqlandi ko'zim o'ngida,  
Mozorlar oqlandi ko'zim o'ngida,  
Bir lahza o'zimni oqlagim keldi,  
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

Barmoqlaring nozik... sochim silama!  
O', bu tentagona orzu, bilaman.  
Men hozir bolaman, o'ksik bolaman,  
Ko'z yoshtagus musaffo yillarim keldi,  
Oyog'ingni quchib...  
Oyog'ingni quchib...  
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

1989

## **SEVGILIM**

Sevgilim,  
dilsizlar dillarimizni  
Toshbo'ron qilsalar, vayron qilsalar,  
Tikanlar qoplasa yo'llarimizni,  
Sen achchiq yig'lasang,  
Ular kulsalar,

Sevgilim,  
sevgini sevmagan zotlar  
Qaro aylasalar oq asotirni,  
(Darg'azab pishqirsa quturgan otlar)  
Go'rda chiqarsalar  
Qorabotirni,

Sevgilim,  
men jangga kiraman, jangga,  
Qarog'ingdan tiyra jola uchun ham,  
Osmonni bo'yayman qirmizi rangga  
Chap ko'ksingda majruh lola uchun ham!

Sevgilim,  
Bu so'qish og'ir bo'ladi,  
Qonlarim oqadi, qonlari oqar,  
Ana, yaralangan oy ham quladi,  
Qon sachragan quyosh qizarib boqar...

Sevgilim,  
yov qochar sichqon iniga,  
Muzaffar botiring tin olar horg'in.  
Qilich joylanadi qayta qiniga,  
U asta cho'zilar...  
Bor endi borgin!..

Sevgilim,  
omondir hiylagar kampir,  
U meni aldaydi, avrab-aldaydi,  
Qo'l u oyog'imga soladi zanjir,  
– Qorabotir, mana yoving, ol! – deydi.

Sevgilim,  
alvido...  
Etib kelmading,  
So'nggi ilinj bilan qotdi ko'z nurim.  
Muhabbat qudrati – qaldiroqqa teng,  
Afsus, qaldiroqdek qisqadir umr-im-m...

Sevgilim,  
Iutf etmak shuncha mushkulmi?  
Qo'l cho'zmoq shunchalar keldimi malol?  
Axir, bu yolg'on-ku, axir, tushungin,  
Axir, bu – ertak-ku, axir, bu – xayol...

1990

## O'PKALANIB QARAYSIZ

O'pkalanib qaraysiz, o'pkalanib...  
Ko'zimning gavhari, mahzanim,  
Quchmaganim, suymaganim, o'pmaganim,  
Sochlarini boshginamdan to'kmaganim,  
O'pkalanib qaraysiz, o'pkalanib...

Uzandimu hilolga hech etolmadim,  
Etib sizga bilaguzuk etolmadim.  
Samolarga talpingancha kunim kechdi,  
Quyoshni ham tilla uzuk etolmadim.

Ko'z uchida qaraysiz, ko'z uchida...  
Yulduzchalar cho'kib yotar dil burjida.  
Oy aylanar koinotning kulgichida,  
Yurak erir qabog'imning hovuchida...  
Ko'z uchida qaraysiz, ko'z uchida...

Uzandimu qoshingizga yetolmadim.

1988

## **CHO'PCHAK**

Ertaga  
ust-boshin qoqib Er To'nga  
Tulporiga urar egar-jabduqni.  
– Biriktiray, – deydi, – yonganu to'ngan,  
Urug'dek sochilgan urug'ni!

Ertaga  
titraydi olam etagi,  
dashtlarni to'ldirib uchadi chorlov:  
– O'-ho'-o've, uxlaganing yetadi,  
Turuk budunim-o-vv!

Ertaga  
erlar aylanadi erkakka,  
Guzarla fayziyob,  
Lak-lak laylakka  
To'lar Afrosiyob.

Ertaga  
ketamiz ertakka  
Yoshu qari.  
Quyoshga talpingan tiyrak go'dakka  
Jilmayib qaraydi solih Koshg'ariy...

Ertaga  
meniyam turtib qo'y,  
erta uyg'onsang.

1988

## **OMOCH BO'LIB TILDI OSMONNI HIOL**

Omoch bo'lib tildi osmonni hilol,  
Yulduzlar potradi samo bag'rida.

Olib qololmadim seni bezavol  
Qahraton qahridan, yaxning zahridan.

Hilol to'lib, oxir g'ildirak bo'ldi,  
Yulduzlar changidi samo yo'lida.  
Arava obketdi bir quchoq gulni,  
Meni asrolmading bitta o'limdan...

1987

## **QO'SHTEGIRMON, 1982 YIL**

Siz bizga  
olmalar otmaysiz,  
O'tib qolsak bog'ko'changizdan.  
Xandalar otasiz, xandalar...  
Tuni bilan uxlayolmayman  
og'riqdan...

## **TIMSOHGA AYLANIB...**

Timsohga aylanib kaltakesaklar  
Yamlab ketadilar bor-budimizni.  
Mening eng chiroyli ismimni saqla,  
Sandiqqa solib qo'y umidimizni.

Sichqonlar ayiqqa aylanib bir kun  
Dashtu yobonlarga haydasa bizni.  
Mening issiq izim ustidan yurgin,  
Bag'ringga bosgancha umidimizni.

Tosh bo'lib yog'sa ham o'tkir yulduzlar,  
Umidni jon kabi uzmasdan turgin.  
Holing nechuk, ukam, singlim, deb kelar  
Bo'rilar odamga aylanib bir kun.

1992

## **DIYDOR**

### ***Muallim O'ljavoy Meliqo'zievga***

Oyog'imga arqondek o'raldi yurt yo'llari,  
Ko'zlarimni tindirdi, sindirdi shikasta soz.

Men sizdan hol so'rmadim,  
Bir bor borib ko'rmasidim,  
Diydor qiyomatga qoldimi, ustoz?

Hurpaygan tol qo'ynida chumchuqlar chirqillaydi,  
Tikanzorda yuzini yumdalab yig'lar ayoz.  
Bir hassa bo'lomagan yuragim zirqillaydi,  
Diydor qiyomatga qoldimi, ustoz?

Bu dunyoning ishlari... g'ijirlaydi tishlarim,  
Cho'ntagimda mushtlarim, kimdan olayin qasos?  
Sarg'aydimu pishmadim, mundog' yerga tushmadim...  
Diydor qiyomatga qoldimi, ustoz?

Dunyosiga qo'l siltab, senga ketaman, mozor,  
She'r aytaman, ajinga to'lib ketadi qog'oz.  
Qalamim asocha bor, alamim ham oncha bor:  
Diydor qiyomatga qoldimi, ustoz?

1992

## **SENI OBQOCHIB KETAMAN!**

– Seni obqochib ketaman!  
Yerni aylantirib tuyoqning zarbi,  
G'ildirar osmonning adoqlarida.  
G'uncha quchoqlagan kapalak kabi  
Yasharsan labimning ardoqlarida...

– Seni obqochib ketaman!  
Boshingdan hovuchlab socharman yog'du,  
Hovuchlab, labingga tuturman nurlar,  
Osmonni to'ntarib etarman ko'zgu,  
Ipak sochlaringni taraydi hurlar...

– Seni obqochib ketaman!  
Gulg'on qo'shiqlar mamlakatida  
O'tli o'lan aytib o't-o'lan aro,  
Tillaqo'ng'izlarning saltanatida  
Xon qizi bo'lursan, men, mayli, gado...

– Seni obqochib ketaman!  
Ketarmiz, g'aflatda qolur hammasi:  
Puflab, ishqni quvmoq bo'lar surnaylar,  
Sevgimizdan kulgan karnaylar sasi,  
... Ishqimizni qushlar aytib yurgaylar...

– Toza obqochasiz! – deysan chimirlab,

Otam osmondan ham topib keltirar...  
Qo'ying... hazillashmang... – deysan turmulib,  
Ko'zlarining yaltirar, so'zing qaltirar...  
Ketasan...  
Men yolg'iz.  
Huvillagan dil.  
Xayol obqochar...

1988

## ARMON

O'zim bilib-bilmay ko'p gunoh qildim,  
Mo'lroq yashab qo'ydim mo'ljaldagidan.  
O'lsam bo'lmasmidi ko'kka tikilib,  
Maysalar ustida, gulning tagida...

Yashashdan charchadim, zerikib ketdim,  
Mening tor ko'nglimga sig'mas bayramlar.  
Dilimga ilonning tillari etdi –  
Po'st tashlab, turlanib yurgan nayranglar.

Endi kun ko'rishim qiyindan-qiyin,  
Endi havolar ham og'irdan-og'ir.  
Achchiq-achchiq yig'lab, yo'l yurgan sayin  
Uzun-uzun bo'lib sudralalar xotir.

O'zim bilib turib, ko'p gunoh qilib  
Ko'proq yashab qo'ydim mo'ljaldagidan.  
O'lsam bo'lmasmidi ko'zlarim tinib,  
Suv ichgan chog'imda qizning kaftidan.

Endi meni qiynar qiyonning guli –  
Nozik kapalakning hidsiz qanoti.  
Endi meni qiynar vaqtida o'lib,  
Meni obketmagan do'stimning yodi.

... Ona, junjikmangiz sovuq so'zlardan,  
Men endi o'lmayman, yig'lamang yana.  
Faqat maqtov kutib suzuk qizlardan  
Yolg'on she'rlar yozib charchadim, ona.

Faqat o'zim bilmay ko'p gunoh qilib,  
Mo'lroq yashab qo'ydim mo'ljaldagidan.  
O'lsam bo'lar ekan ko'zlarim kulib,  
Belanchak ichida, tolning tagida...

1988

## QISMAT CHIZIQLARI

Kular shayton suvoriy,  
Shayton aroba chopar.  
Yormozorga borganda  
Tillo tangalar topar.

Tillo tanga sirtida  
Yuragimning zarbi bor.  
Jarohat chandig'idek  
Ismimiz bosh harfi bor.

Bu imloni mullo ham,  
Tulki ham o'qiy olmas.  
Tavorihu hiylodan  
Hikmatlar to'qiy olmas.

Tillo tanga qalbaki,  
Chunki asl qalbniki.  
Hamma undan qo'rqaqid  
Qamab qo'yishar balki.

Seni qalbga qamasam,  
Qushdek qochib ketibsan.  
Yayov shoirni tashlab,  
Suvoriya tegibsan.

Kaftlaringni ko'rsatgil,  
Kipriklarim zarbi bor.  
Xanjar izidek chuqur  
Ismimiz bosh harfi bor.

Ammo ko'zing o'tmaydi,  
Oqlar tushgan ko'zingga.  
Ko'tarilib dilingdan  
Dog'lar tushgan yuzingga.

O'g'il ko'rsang, husniga  
Hech taraf bo'lmasin, yor.  
Ism qo'ysang, ismida  
Bosh harf bo'lmasin, yor.

Tillo tanga yaltu yult,  
Kaftlarimda siqarman.  
Yuzing dog'li bo'lsa ham  
Oy, sochingga taqarman.

Kular shayton suvoriy,  
Shayton aroba chopar.

Yormozorga borganda  
Mening ko'nglimni topar.

1991

## **SENI SOG'INAMAN**

Seni sog'inaman,  
mening ko'zlarim –  
Obi rahmat kutgan sahroyi quduq.  
Tegramda qo'rg'oshin bulut suzar jim,  
Darmonim quriydi, qarog'im quruq...  
(Quduqning tubinda jaranglar isming.)

Seni sog'inaman,  
mening kiprigim –  
Qamishdek qovjirab, sinmoqda tinmay.  
Endi unga parvo qilmaydi hech kim,  
Endi undan hech kim yo'nolmaydi nay...  
(Agar nay bo'lganda seni kuylardi.)

Seni sog'inaman,  
mening qo'llarim –  
Ikkita musicha, qo'ynimda yashar.  
Kaftingdan termoqlik istab donlarin  
Fursat to'kilishin horg'in sanashar...  
(Yurak qumsoatdir, yarmisi singan.)

Seni sog'inaman,  
mening lablarim –  
Ikkiga bo'lingan qontalash yaproq.  
Titrab to'kilmoxqa shaydir kun sari,  
Poyingga tushishni tilashar biroq...  
(Labimda ikkiga bo'lingan isming.)

Seni sog'inaman,  
mening sochlarim  
Soyadir, kechaning ko'liasi tushgan.  
... Tunda kelolmaysan meni axtarib,  
Sochingga o'ralib, yiqilib tushma!

1988

## **ZULFIYA**

«Zulfiyaga qarama,  
Naq enangni ko'rasan!

Meni yaxshi ko'radi,  
So'ra, kimdan so'rasang!»  
Kaltak yerdi Abdulla,  
Kaltak eb ham qaytmasdi.  
– Ol-e, o'sha Zulpini,  
Kerakmas! – deb aytmasdi.

Aqli qiz Zulfiya,  
Hammagini biladi:  
Menga ko'zi tushganda  
Miyig'ida kuladi,  
Darslar kirmas qulqqa,  
Samolarda xayolim:  
Zulfiyaning qo'llari  
Ipakdayin muloyim...  
Kitobimning ichida  
Jilmayadi suvrati.  
Meni yaxshi ko'radi,  
Meni yaxshi ko'radi...

... Yillar o'tdi, Abdulla,  
Hayot bizdan kuldi-ya.  
Senu mendek yigitdan  
Voz kechdi-ya Zulfiya!  
«Zulfiyaga qarama,  
Naq enangni ko'rasan!  
Meni yaxshi ko'radi,  
So'ra, kimdan so'rasang!...»

Aqli qiz edi-ku,  
Hammagini bilardi:  
Menga ko'zi tushganda  
Miyig'ida kulardi.  
Men-ku, mayli...  
Seniyam  
Toza ahmoq qildi-ya.  
Biz harbiyda yurganda  
Tegib ketdi Zulfiya...

Kitobimning ichidan  
Uchib tushar suvrati,  
Sevmaganman men uni,  
Abdul yaxshi ko'radi!  
Yirtaman deb suvratin,  
Yirtolmayman har kuni,  
Sevmaganman men uni!  
Sevmaganman men uni!..

1988

## XUDBIN

Ehtimol, men o'zim xayolparastman,  
Balki sal xudparast, salgina nodon.  
Lekin nega endi ko'kdan-da pastdan  
Menga joy ajratib qo'yding, xudojon?

Nechun tishlarimda g'ijirlar havo,  
Tushlarimda esa tulporlar raqsi?  
Otam ham, onam ham begona go'yo,  
Faqat o'zim yaxshi, bir o'zim yaxshi,

Hayronman, qaerda xatolig' o'tgan,  
Balki nafs kaftidan bug'doy eganim,  
Men suvdan qo'rmasdim, qo'rmasdim o'tdan,  
Men bunday hayotni istamagandim.

Qonimda bir sharpa – mushukday yuvosh,  
Yonimda bir sharpa – mushukdek vahshiy.  
Dilshishang sinmasin, dildosh, shishadosh,  
Men seni bilmayman, men o'zim yaxshi.

Tulporlarim, keling, hidlang yuzimni,  
Ko'nglim tirik mening, hayratim omon.  
Hamma bir g'alati qadar ko'zini,  
Go'yo hamma yaxshi, bir o'zim yomon.

1990

## ARIQLAR YUZIDA

Ariqlar yuzida yuzardi hovur –  
Kumush baliqlarning issiq nafasi.  
Qor bosti chinorlar oxiga dovur,  
Chinorlar – qorlarning soyasi.

Muzlar quchog'ida isindi vido,  
Uzilgan tor kabi ajralishdik biz.  
Siz mag'rur ketdingiz uygacha, ammo  
Nechun yig'lab bordi etiklaringiz?..

Derazadan guldek qaraysiz endi,  
Ko'chadan kas-nokas o'tadi turfa.  
Achchig'ingiz kelar, eslatса meni  
Taxmonga kitobdek taxlangan ko'rpa.

O'zingizni aldab yasharsiz tinmay,  
Sizni-ku ovutar ertaklaringiz.

Sohibga ichikkan kuchukchalarday  
Mung'ayib yotadi etiklariningiz...

1992

## CHORLASANG

Chorlasang bormasmi edim gulyorim,  
Shiddatdan ko'zimni og'ritib, yoshlab.  
Ikkala kaftimda tutib bahorni,  
Tishimda labingdek g'unchani tishlab.

O'rtada qir kabi yotar qirq fasl,  
Kechib bo'larmidi qirqta anhorni.  
Ammo seni o'ylab yashnayverar dil,  
Men qayga qo'yay bu ulkan bahorni?!

Isming – shahristonni isitgan bayzo,  
Aytsam, sen kelmaysan – bitmas karashma.  
Oddiy bir hikmatni bilarmisan yo:  
Shahar osmoniga oy ham yarashmas.

Men tokay yasharman o'zimni quchib,  
Ovunib gardunning hiylosi bilan.  
Chorlasang, borardim toyirdek uchib,  
Qo'ynimda ko'klamning havosi bilan.

Qanoti bo'lsa ham uchmas baliqlar,  
Ismimni tutmasang, qushligim bekor,  
Shijoat ummonning tubinda uxlar,  
Men bilan qo'shilib qariydi bahor.

Bilaman, qismatim ko'zingdek qaro,  
Meni chorlamassan, uchib bormasman.  
Sen mening ismimni bilmassan hatto,  
Sen o'zing bahorsan, menga zormassan!

1990

## ARAZ

Hurkak xavotirda ko'changdan o'tdim,  
Labimni tirs yorib, qiynab chanqog'ing.  
Havoni ho'pladim, ho'pladim o'tni,  
Shunchalar qiyinmi suvgaga chiqmog'ing?

Ko'changni tuprog'i olovmi deyman,  
Quyoshniyam menda qasdi bor chog'i.  
Qaysarman, ters qilib suv ham ichmayman,  
Shunchalar qiyinmi suvga chiqmog'ing?

Bilasan, ko'changdan o'tyapman kuyib,  
Kulgungdan bir cho'chib ketar chorbog'ing.  
Chiqsang-chi, ko'zangni elkangga qo'yib,  
Shunchalar qiyinmi suvga chiqmog'ing?

Quyoshni so'kindim xo'rligim kelib.  
Changini chiqardim otash tuproqning.  
Seniyam sochingni olardim yulib!  
Shunchalar qiyinmi suvga chiqmog'ing?

Tundayam yuragim bir yomon kuydi,  
Tongdayam tomog'im qaqrab uyg'ondim.  
Men o'zi qanaqa olovni suydim –  
Shunchalar qiyinmi suvga chiqmog'ing?

... Bizniyam ko'chadan o'tib qolarsan!...

1987

## GUNOH

Siniq oy sarg'ayib kezarkan ko'kda,  
Tomlarda shu'lalar arpasin ilg'ab,  
Zanjirini siltab, ayqirdi ko'ppak:  
– Xavf!  
– Xavf!!  
– Xavf!!!

Ayol miskin edi.  
His qildi ayol –  
Qaydadir erini o'pardi bir qiz.  
Keng hovlida yomon siqildi ayol,  
Bir kechada quvrab, to'kildi nargis...

Tonggacha hovlida tinmadi zanjir,  
Ko'ppak sahargacha betoqat hurdi.  
Ayol ham gunohga qo'l berdi oxir –  
Tushida birinchi sevgisin ko'rdi.

1992

## **SO'NG SO'Z**

Xazon lashkari kelgan –  
Yaproqlar to'kiladi.  
Eng so'nggi o'qi bilan  
Sadoqlar to'kiladi.

Muhabbat borasida  
Biz hanuz norasida.  
Bulutlar orasidan  
Saboqlar to'kiladi.

Loylar qordim yoshimdan,  
Somon qildim sochimdan.  
Uyga kirsam, boshimdan  
Tuproqlar to'kiladi.

Senga tegmadi nafim,  
Ichimda qoldi gapim.  
Tegib-tegmasdan labim  
Qadahlar to'kiladi.

Eslamaysan kelmasam,  
Jilmayasan yig'lasam,  
Sochlaringni silasam,  
Nigohlar to'kiladi.

Xazon lashkari kelgan –  
Yaproqlar to'kiladi.  
Yonoqlaru barmoqlar,  
Dudoqlar to'kiladi...

Ey gul, qaytgil izingga,  
Rahming kelsin o'zingga.  
Yuzingni qo'y yuzimga –  
Gunohlar to'kiladi.

1991

## **SENGA BARMOG'IMNI TEGIZMAYMAN**

Senga barmog'imni tegizmayman, Oy,  
Senga nafasimni etkizmayman, Gul,  
Lekin osmonimdan ketkizmayman, Oy,  
Ismingni birovga aytkizmayman, Gul.

O'zing tabibimsan, o'zing shifoyim,  
O'zing og'rig'imsan, o'zga dardim yo'q.

O'zing gunohimsan, o'zing jazoyim,  
Faqt jur'atim yo'q, faqat haddim yo'q.

Seni hamma yaxshi ko'radimi, Oy,  
Tegrangda aylanib yuradimi, Gul.  
Termulib, xo'rsinib turadimi, Oy,  
Senga shakkar elab beradimi, Gul?

Oy, falak toqida yagona gulsan,  
Gul, yerga sayr uchun tushgan oydirsan.  
Oy, qo'lim sinmasmi bandingdan yulsam,  
Gul, ko'zim oqmasmi seni qayirsam?

Aylanib, bo'g'zimdan kesmaysanmi, Oy,  
Qonimdan arshgacha o'smaysanmi, Gul?  
Tosh bo'lib qabrimni bosmaysanmi, Oy,  
Gul, mendan ilgari to'zmaysanmi, Gul?

Senga lablarimni tegizmayman, Oy,  
Senga ziyonimni etkizmayman, Gul.  
Biroq osmonimdan ketkizmayman, Oy,  
Ismingni hech kimga aytkizmayman, Gul!

1997

## O'TAR

### ***Ukam Valijonga***

Ruhingni ezadi chilla kuylari,  
Musiqa yurakdan zor bo'lib o'tar.  
Toshkentning yomg'iri dovondan nari –  
Farg'ona tomonga qor bo'lib o'tar..

Farg'ona tomonlar tumanli, loyli,  
Tumani chiroyli, loyi chiroyli,  
Vo ajab, bugun ham Kumush va Layli  
Sochlari belida dor bo'lib o'tar.

Men nima axtardim, neni izladim?  
Kimga ermak bo'ldi go'zal hislarim?  
Sinfdosh qizlarim, dildosh qizlarim –  
Kimlarga ko'ngilsiz yor bo'lib o'tar.

Marhum do'stni o'ylab, ortadi g'ussam,  
Shum xayollar yovdek qaytadi, quvsam.  
Jo'ralar tizilib kelar ko'z yumsam,  
Bori yo'q, yo'qlari bor bo'lib o'tar.

Har kim ham o'zini chandon ayaydi,  
Savalaganda ham ayab savaydi.  
Har kimsa o'zini odam sanaydi,  
O'zining yukiga nor bo'lib o'tar.

Har kimning yomondir umr yo'loshi,  
Esiz yigit yoshi, tuzsiz non-oshi.  
Farzandiga qarab egilar boshi,  
Keng dunyo ko'ziga tor bo'lib o'tar.

Toshkentning yomg'iri dovondan nari –  
Farg'ona tomonga qor bo'lib o'tar.  
Kimga tog' ko'rinsa birovning qiri –  
Xor bo'lib, xor bo'lib, xor bo'lib o'tar!

2001

## **BU DUNYOGA KELGANIM**

Bu dunyoga kelganim –  
U dunyoga safarim.  
Bu dunyoni yengganim –  
U dunyoda zafarim.

Qachonki pishti loyim,  
Visoldir muddaoyim.  
Bu dunyoda xatoyim –  
U dunyoda zararim.

Ishq qadimi masaldir:  
Ham zahar, ham asaldir.  
Ikkisiga kosa bir,  
Asaldayin zaharim!

Gul ichindan topganim,  
Oyoqlarin o'pganim,  
Man saningman, san manim,  
Soching belga kamarim.

Berdim necha talofat,  
Do'stlar, qilmang malomat.  
Bu dunyoda halovat –  
U dunyoda xatarim.

Adashtimmi, toldimmi,  
Zulmatlarga qoldimmi.  
To'g'ri yo'lga sol endi,

Ey ko'zlar! axtarim!

Ey go'zalim, yolg'izim,  
Ey quyoshim, qamarim,  
Ey yaqinim, olisim,  
Ey asalim, shakkarim!

Ikki ko'zim ikki sham,  
Tun ado bo'lmas hecham.  
Sen bilan kechgan kecham –  
U dunyoda saharim!

1989

## RAMAZON

«*Ramazon aytib keldik eshigingizga,  
Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga...*»

Yulduzlar parpiraydi – gullab yuborar terak,  
Oy yurar ko'chalarda, kengayadi xonalar.  
Havolarning haqqiga qoldirar shirin tilak,  
Dili javohir to'la yalangoyoq bolalar.

Pichanlarning hidiga qo'shilib ketar sado,  
Mo'rillardan chayqalib taraladi dudlar ham.  
Shu kecha kelinlarning ko'ngliga qara, dunyo,  
Shu kecha kuyovlarning ko'ziga boqqil, olam!

Aylanadi charxpalak, guldiraydi tegirmon,  
Umr o'tar suv kabi, bug'doy misol to'kilar.  
Un ko'tarib qaytayotgan befarzand Yoqub polvon  
Simyog'ochga suyanib yig'laganin kim bilar?..

Do'st, tirnoqqa zor bo'lma, ko'rmagil tirnoqcha g'am,  
Har yili ko'ztumorlar osilsin beshigingga.  
Mening ham elkamdag'i yukimni olsin bolam,  
Ramazon aytib borsin bir kuni eshigingga.

1991

## SHUNDA

Shunda  
yonoqlaring lovulladilar,

Shudring jarangladi gulbargga tomib,  
Sochlaring elkangda shovulladilar,  
Ko'zlaringni yumib... ko'zlaringni yumib...

Shunda men o'zimni koyidim yomon:  
Nega seni yomon ko'ribman, dunyo?  
Shunda  
Qudratingga keltirdim iyemon,  
O'zingga sanolar aytdim, rabbano!

Shunda  
asal isin tuydi dumog'im,  
Ko'rdirim – ellar elar kapalak quvib.  
Titradi taraddud bilan dudog'ing,  
Ko'zlaringni yumib... ko'zlaringni yumib...

Shunda  
Bor umrimga afsuslar chektim,  
Quzg'un qanotidan yomg'ir kutibman.  
Chorak asr yashab, yuz marta sevdim.  
Oh, kimni sevishni bilmay o'tibman!

Shunda  
Ko'zlarimni ochdi muhabbat,  
Toshqinlar o'tdilar qalbimni yuvib.  
Sevgilim, sen endi ketmagan faqat  
Ko'zlaringni yumib... ko'zlaringni yumib...

1993

## BIR LAHZA

Bir lahzada bahor senga bo'lar kuz –  
Toleing bir lahza jilmayib boqsa...  
Muhabbatim bilan keldim yuzma-yuz,  
Yer osti yo'lida... faqat bir lahza.

Umrim tuproq edi, aylana tuproq,  
Oyog'im ostida tuproqlar oqtisi.  
Bu baxt – bir-biriga tomon kavlab choh,  
Nihoyat uchrashgan tutqunlar baxti!

Bir lahza bo'lsa-da, yashadik birga,  
Dildan tuproq ketdi, ko'zdan ketdi kir.  
Men nechun shukrona aytmay taqdirga,  
Men uni ko'rdirim-ku, ko'rdirim-ku, axir!

Aziz qadamjolar men uchun tamom,

Ularga ta'zimlar qilay nega men?  
Har kuni shoshaman yerosti tomon,  
Faqt o'sha joyga boshim egaman.

Bugun seskantirdi, bir sovuq savol,  
Tilimni tishladim, tishlarim sindi.  
Nahot, yer ustida bizga yo'q visol,  
Nahot, yer ostida ko'rishsak endi?!

1994

## HOZIR

Hozir qo'lingiz yoysangiz qanot bo'lar,  
Qadam tashlasangiz qorda qolmaydi iz.  
Bilib qo'ying, har qanday qush bir kun qo'nar,  
Qachonlardir biz albatta uchrashamiz.

Hozir imo aylasangiz, yulduz hozir,  
Hilol qoshingizga qo'nar hozir, oy qiz.  
Siz bilmaysiz, yuragimda nelar bordir,  
Qachonlardir biz albatta uchrashamiz.

Hozir sizga simyog'och ham gullar tutar,  
Balog'at bu sargasht xayol, betizgin his.  
Men kutaman, erta o'tar, indin o'tar.  
Qachonlardir biz albatta uchrashamiz.

Hozir meni mensimaysiz, lab burasiz,  
Tushingizda shahzodalar cho'kadi tiz.  
Meni izlab topib, yig'lab gapirasiz,  
Qachonlardir biz albatta uchrashamiz.

Hozir bilmaysiz dunyoning yolg'onini,  
Nazdingizda men yolg'onchi, men betamiz.  
Qulog'ingizga aytaman qolganini,  
Qachonlardir biz albatta uchrashamiz.

1994

## O'G'LIMGA

Umr bersin xudoyim,  
G'urur bersin, iloyim.  
Dagarim, erkatoym  
Botir yigit bo'ladi.

Hali qarab turasiz,  
Siz bir taraf turasiz,  
Bu dunyoga bergusiz  
Nodir yigit bo'ladi.

Bo'y bermaydi tashvishga,  
G'iybatlarga, mish-mishga.  
Men qilolmagan ishga  
Qodir yigit bo'ladi.

Ko'zim tegmasin, tuf-tuf!  
So'zim tegmasin, tuf-tuf!  
Xudo xohlasa, o'sib,  
Og'ir yigit bo'ladi.

Agar taqdir tashlab to'r,  
Bo'shang bo'lsa, epsiz g'o'r,  
O'shanda ham mendan zo'r  
Shoir yigit bo'ladi.

1994

## MEN

Men na qilay, harna qilsa, qildi taqdir,  
Ikki nuqta aro jismim muallaqdir.  
Ikki yoqqa boqar bo'ldim lolu hayron:  
Birisining ismi – zamin, biri – osmon.

Qay bir kecha hilolga may quyib ichdim,  
Ko'zim yumib, ikki qizdan birin quchdim.  
Endi, kimni tanladim, deb jonim halak:  
Birisining ismi – shayton, biri – malak.

Qaldirg'ochdek ikki joyda manzilik bor,  
Yo'l qaragan otam, onam va singlim bor.  
Bu kuzdayam qaytolmadim, qandoq qushman?..  
Birisining ismi – Bag'dod, biri – Toshkan.

Garchi umrim chizgilari oddiy emas,  
Lekin do'stu dushmanlarim jiddiy emas.  
Bir do'stu bir dushmanim bor – o'zim tengi:  
Birisining ismi she'rdir, biri – sevgi.

Ne qilaylik, harna qilsa qilar taqdir,  
Bu dayr aro sayrimiz ham muvaqqatdir.  
Ikki qayiq boshin tutgan bo'lar nobud:  
Birisining ismi – beshik, biri – tobut.

1994

## KUZ

Uch kunda kuz keldi.  
Dunyo qaridi.  
Teraklar bosh chayqab qoldilar ma'yus.  
Toshlar o'rmalaydi anhor qa'rida,  
Anhor qaylargadir shoshadi hanuz.

Ko'pirib boradi qo'ng'ir bulutlar,  
Hademay yomg'irzor bo'ladi paydo.  
Yerga qulq bosib yotadi o'tlar,  
Yerdanmi keladi bu mungli navo?

Mana, ustunlarga o'ralar shamol,  
Mana, suv yuziga toshadi sepkil.  
Zerikkan, asabiy qariqiz misol  
Ko'ylaklarin yirtib tashlar atirgul.

Peshayvonda namli patlarin tarab,  
Zag'chalar o'ziga beradi oro.  
Bulut kelayotgan tomonga qarab  
Dunyo suzib borar ohista, dunyo...

1994

## OQSHOM

Oqshom yulduzlarni hilol uyg'otar,  
Daryo to'lqinlarin shamol uyg'otar.  
Qaydasan, ey shamol olib ketgan gul?  
Meni shu alamli savol uyg'otar.

Oqshom yulduzlarga boqib yig'ladim,  
Daryo to'lqinida oqib yig'ladim.  
Menam daryo bo'ldim, sel-selob bo'ldim,  
Yuragim olmaday qalqib yig'ladim.

Taqdirga tan berdim, shukrona aytdim,  
Tuproqqa aylanib, tuproqqa qaytdim.  
Ammo oqaverdi asov yuragim  
Oqshom yulduzları chaqnagan payti!

Oqshom yulduzlarni hilol uyg'otar,

Daryo to'lqinlarin shamol uyg'otar.  
Seni tushlarimda ko'rib, chaqirsam,  
Meni bir begona ayol uyg'otar.

1994

## BILGIM KELAR

Bag'rida qo'ng'iroqlar ko'milib ketgan sahro,  
Necha jayronlar ag'nab, cho'milib ketgan sahro,  
Etiklarning qo'njidan to'kilib ketgan sahro,  
Sahro, mening alamim kimniki, bilgim kelar.

Shovullab turgan daryo, dovullar urgan daryo,  
Sohillar buzgan daryo, orollar qurban daryo,  
Azaldan abadgacha qondek yugurban daryo,  
Daryo, mening alamim kimniki, bilgim kelar.

Cheksizdan cheksizgacha cho'zilib ketgan samo,  
Yulduzlarni kaftida tangadek otgan samo,  
Ko'ksiga quyosh botgan, oyni uyg'otgan samo,  
Samo, mening alamim kimniki, bilgim kelar.

Ey bilib turgan dunyo, ey kulib turgan dunyo,  
Shamollardan qamishdek bukilib turgan dunyo,  
Ko'nglida yuki borga yakinib turgan dunyo,  
Dunyo, mening alamim kimniki, bilgim kelar.

Begonaga gina yo'q, gina qilmasman aslo,  
Sen yor topding munosib, mening yorimdir xudo.  
Seni eslagim kelmas, qiynalgim kelmas, ammo,  
Ammo, mening alamim kimniki, bilgim kelar.

1994

## KO'RDIM

Vohada gullagan bog' ko'rdim,  
Bog' ichra gulsiz bir shox ko'rdim.  
Yurakka qaradim – dog' ko'rdim,  
Sochingda bir tola oq ko'rdim.

Og'ridi ko'nglimning eng tubi,  
Unutib edimmi mahbubam?  
Bu, balki, bitmagan maktubim,  
Sochingda bir tola oq ko'rdim.

Oshiqib o'tdim men, dil shoshdi,  
Meni kapalaklar aldashdi.  
O'zimdan ketdimu adashdim,  
Sochingda bir tola oq ko'rdim.

Bir umr intilib nurga men,  
Bir tolim nur topdim zo'rg'a men.  
Bu mening aybimmas, to'g'rimi?..  
Bu mening aybimmas, to'g'rimi?..

Sochingda bir tola oq ko'rdim...

1994

## **BARMOQLARING**

Barmoqlaring biram nozik,  
Labing, ey bokiram, nozik.  
Yurakda bor yaram nozik –  
Bu ham inoyatdir manga.

Olov ko'rdim andalibni,  
Sani gul deb aldanibdi.  
«Ayt, yoqmasin bul g'aribni...» –  
Sandin shikoyatdir manga.

Bahrasizman bo'ylaringdan,  
Xabarsizman o'ylaringdan.  
Ketolmasman ko'ylaringdan –  
Bu yo'l hidoyatdir manga.

Sitamlaring agar ozdir.  
Kerak – bog'la, kerak – ostir!  
Jabru jafolaring rostdir,  
Vasling rivoyatdir manga.

Umidim bor, diling topsam,  
Bir qaro kun qo'ling o'psam,  
O'pib so'ngra o'lim topsam,  
Ushbu kifoyatdir manga!

1994

## **QALBI BUTUN ODAM**

Qalbi butun odam bir kun anglar ekan:  
Fazo to'la ohang ekan, ranglar ekan.  
Sabo o'pgan atirgulning entikkani –  
Etti falak ayvonida yangrar ekan.

Etti falak ayvonida nigohimiz,  
Dunyobexabarmiz, samo – ogohimiz.  
Kaftlarimiz boshimizda qalqon emas,  
Panohimiz qalbimizda, panohimiz.

Qalbimizda panohimiz tinglar ekan,  
Yolg'on ohlar ursak chindan ingrар ekan.  
Hammaga ham nasib etmas habib tushmak,  
Hatto ajal ham odamni tanlar ekan.

Hatto ajal ham o'zini olmasin, do'st,  
Suvga tashlang oqqan suvning olmasin, do'st.  
Yolg'iz yorga etolmasdan qolgan yomon,  
Qalbi butun odam yolg'iz qolmasin, do'st.

Qalbi butun odam bir kun anglar ekan,  
Fazo to'la ohang ekan, ranglar ekan.  
Ey yor, nazar tashlab turgin yuragimga –  
Qaramasang, toshoyna ham zanglar ekan.

1994

## **O'TYAPMAN**

Bag'rimdan biyobon yaralgani chin,  
Bir yon – Dashti qipchoq, bir yon – Chin-Mochin.  
Qo'ng'iroq ovozing, qo'ng'iroq soching.  
Qo'ng'iroqlaringni kutib o'tyapman.

Behad saboq bermish menga gardi dun,  
O'tdi Aflatun ham, ketdi Faridun.  
Ularga boqmasdan hanuz bag'ri xun  
Hijron kitoblarin titib o'tyapman.

Sen kecha xonzoda eding bepisand,  
Qul edim oyog'u ko'ngli kishanband.  
Hazratdan qolgan ishq dostonin band-band,  
So'zma-so'z qaytadan bitib o'tyapman.

Yuzingdagi parda – mavjlangan sarob,

Simlarin cho'g' qilib ekmoqda oftob.  
Ochiqsam, ich-etim yerman, ey mohtob,  
Chanqasam, ko'z yoshim yutib o'tyapman.

Qayrilma kipriging haqqiga qasam,  
Dunyo gumroh edi gar men kelmasam.  
Dilda gohi umid, gohida alam,  
Dunyoning qo'lini tutib o'tyapman.

1994

## METRODA

Metroda sayr qilib yurmaydi hech kim,  
Birov ishdan qaytar, birov sayrdan.  
Kimdir hamrohlarin kuzatadi jim,  
Kimdir ro'znomani ikki ayirgan.

Men ham qaytayotgan edim uyimga,  
Yumushlardan tolib, xayolga tolib.  
Bekatdan sen chiqding oppoq quyunday,  
Ko'nglimga chirpirak g'alayon solib.

Go'yo tanimading. Tutqichni tutib,  
Ma'yus jilmaygancha tolding xayolga.  
Turgim, borgim keldi. Elni unutib,  
Seni ko'mgim keldi ming bir savolga.

Yodimda chaqnadi qasamyodlarim,  
Bir zamon seniki bo'lgan hayotim...  
Yoningga bormadim, bora olmadim,  
O'zimni ayadim, seni ayadim.

Keyin tushib ketding. Sezmading go'yo,  
Qayrilib boqmading, ey sun'iy yo'ldosh.  
Meni ayadingmi, o'zingnimi yo?  
Qiz qalbi qizg'aldoq emas, tilsimtosh!

Muhabbat – puch narsa, muhabbat – yolg'on!  
Orzular, qayg'ular, tuyg'ular – mayda.  
Bilaman, poyimda yig'laydi xazon,  
Negadir uyg'a hech borgim kelmaydi...

1994

## AFSUS

Telefon gardishini aylantiraman,  
Qo'ng'iroq chorlaydi seni behuda.  
Men seni judayam yaxshi ko'raman,  
Ovozing eshitgim keladi juda.

Na chora?  
Kechmishdir endi hammasi,  
Labingga lab qo'yib ichganim bo'sa...  
Bizni bog'larmidi shu chuvalgan sim,  
Taqdir rishtalari uzilgan bo'lsa.

Taqdirga tadbir yo'q.  
Xoh yig'la, elan,  
Bu epkin o'ynaydi ko'ngil kulini.  
Axir to'solmaysan kipriging bilan  
Ko'zlaringga to'lgan qayg'u selini.

Men seni haliyam yaxshi ko'raman,  
Tovushing eshitgim keladi juda.  
Telefon gardishini aylantiraman,  
Qo'ng'iroq chorlaydi, ammo behuda.

Ko'hi qofga qadar ketardim, Laylim,  
Ko'zingni bir bora ko'rmoqlik uchun.  
Na chora?..  
Bu charxga qurbim kelmaydi,  
Afsus, bu gardishga etmaydi kuchim.

1994

## **KO`ZLARIMDAN KO`ZLARINGIZ KETMADI, YOR!**

*Tubida tosh dumalatib soylar o`tdi,  
Elkasida yaraq-yaraq oylar o`tdi.  
Qamishlarning boylamida naylar o`tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o`tmadi, yor,  
Ko`zlarimdan ko`zlarining ketmadi, yor.*

### **MENI DESA...**

Osmimonim obod qilgan qamar eding,  
Balolardan saqlaguchi tumor eding.  
Ko`zlarimga mudom ko`zi xumor eding,  
Yo'llarimni yoshing bilan yuvar eding,  
Meni desa joningni ham berar eding.

Jon chekarding ozor etsa gar joninga,  
Ming aldasam, ishonarding yolg'onimga.  
Nogoh tikan botar bo'lsa tovonimga  
Tikanlarni kiprigingda terar eding,  
Meni desa joningni ham berar eding.

Gulmi eding, bog'dan o'zim yulganmidim,  
Qulmi eding, seni sotib olganmidim.  
Bir kun yolg'iz qolishimni bilganmidim...  
Nechun menga hayrat ila qarar eding,  
Meni desa joningni ham berar eding.

Yaproqlarga shodon-shodon so'ylardim men,  
Gulbog'larga pinhon-pinhon bo'ylardim men,  
Seni o'pib, begonani o'ylardim men,  
Asli menga sen hammadan kerak eding,  
Meni desa joningni ham berar eding.

Yo'qsan, seni yo'qlab yo'llar qaragim yo'q,  
Yurak yutib boray desam, yuragim yo'q.  
O'zimga ham endi meni keragim yo'q,  
Meni hatto mendan ziyod sevar eding,  
Meni desa joningni ham berar eding.

1995

## IZSIZ KETDI

Izsiz ketdi sharqiragan anhorlarim,  
Esiz ketdi gurkiragan bahorlarim,  
Ko'zlarimdan kiprik kabi to'kildilar  
Sevganlarim, dilbarlarim, dildorlarim.

Sevdim yurtning shamshodiyu archasini,  
Suydim soyning sokinligi, sachrashini.  
O'nta qizni sevgan bo'lsam, o'rni boshqa,  
Qirqta bo'lsa, qilig'i xush barchasining!

Men daraxtman, yaprog'i bor, ildizi yo'q,  
Xazon quchgan tuproqdirman, gul isi yo'q.  
Osmon to'la yulduzlarni kashf aylagan  
Munajjimman – manglayida yulduzi yo'q.

Goho gullar sochdi menga kuz-qishlarim,  
Goho kullar sochdi tanish-bilishlarim.  
Bugun yolg'iz o'ylanaman, o'rtanaman:  
Urmadimi go'zallarning qarg'ishlari?

Bu yo'l menga sayr edi, sayil edi,  
Sevgisiz kun – hafta edi, oy – yil edi.  
Men qizlarni aldashni ko'p istamasdim,  
Qizlar o'zi aldanishga moyil edi.

1995

## AZOBALARIM

*Nabijon akaga*

Hilol yanglig' ochiq qoldi so'roqlarim,  
Yellar quvnab-quvnab titdi varoqlarim.  
O'ynab-o'ynab to'kildilar yaproqlarim,  
Yaproqlarim birin-ketin ketaverdi,  
Ketgan sari azoblarim ortaverdi.

Jilg'a bo'lib yetolmadim daryolarga,  
Turna bo'lib ketolmadim samolarga,  
Karvon bo'lib ko'milmadim sahrolarda,  
Karvonlarim turnaqator o'taverdi,  
O'tgan sari azoblarim ortaverdi.

Chang tegmagan gul ko'rmadim gulzorlarda,  
Bir pokiza dil ko'rmadim dildorlarda,  
Bu dildorlar qator turib bozorlarda

Ko'ngillarin matoh kabi tutaverdi,  
Tutgan sari azoblarim ortaverdi.

Ota uyim eshigida chim bo'l madim,  
So'ritokni bog'lagan bir sim bo'l madim,  
Birodarlar, kim bo'l dim men, kim bo'l madim?  
Onam yuzim unutsa-da kutaverdi,  
Kutgan sari azoblarim ortaverdi.

Endi, ayting, men qarimi, otam qari?  
Men otamdan ko'ra so'nngi yo'lga qariyb.  
Dilim o'ldi fojeamdan she'r axtarib,  
Peshonamga hayot she'rlar bitaverdi,  
Bitgan sari azoblarim ortaverdi.

1995

## **SEVGI**

Yo'g'u borimga bois borliqsan, sevgi,  
Yagona yordan yolg'iz yorliqsan, sevgi.

Yuragimni tars yorgan lazzatsan, lazzat  
Ongimdag'i abadiy og'riqsan, sevgi.

Kapalak chang chalganda sochilgan changsan,  
Chumoli torta kelgan tortiqsan, sevgi.

Momo Havo to'yagan havosan, harir,  
Odam Ato so'yagan jonliqsan, sevgi.

Cho'kayotib tutganim xassan, men uchun –  
Sevgilimdan ming karra ortiqsan, sevgi.

1995

## **ALVIDO**

Alvido, ey xush xayollarim,  
Sizni changday puflab uchirdim.  
Hayot, sizga yo'q savollarim,  
Hayot, hammasiga tushundim.

Yengim bilan artdim yoshimni,  
Ko'z oldimdan tarqadi tuman.  
Endi yurtning gulu toshini

Aql ko'zi bilan ko'ruman.

Kechagina huv elas-elash  
Yulduz mening deya o'ylardim.  
Titroq emas, qaltiroq emas,  
Men qaldiriq bo'lib kuylardim.

Yuzlarimga suv urdi samo,  
Seskandimu o'zimga keldim.  
Kimligimni sezdim avvalo,  
Keyin hech kimmashigim bildim.

Bu kamolmi yoki zavolim,  
Quvradimmi yo qayta undim,  
Hayot, sizga yo'qdir savolim,  
Hayot, gapingizga tushundim.

1995

## **QACHONDIR**

Qachondir dovdirab turgan qulunlar,  
Quyoshni ilk bora ko'rgan qulunlar,  
Tuyog'i chalmashib turgan qulunlar  
Uchqur saman bo'pti allaqachonlar.

Qachondir urgandim unga boshlarim,  
Poydevor bo'libdi cho'tir toshlarim.  
Kulaymi-yig'laymi, aziz dashtlarim  
Bog'u chaman bo'pti allaqachonlar.

Qachondir osmonni ag'darardi ham,  
Dimog'im achishdi, ko'zga keldi nam:  
Meni yelkasida ko'targan akam –  
Qaddi kamon bo'pti allaqachonlar.

Qachondir ko'zida ko'rgandim yulduz,  
Yuzi olma kabi tarang va qirmiz.  
Menga ro'molchasin bergen o'sha qiz –  
Rangi somon bo'pti allaqachonlar.

Qachondir bu yerdan yuzim burib men  
Yuribman, yuribman, tinmay yuribman,  
Olisda holimni bilmay yuribman –  
Menga yomon bo'pti allaqachonlar!

1995

## SIZGA

Kalavaning uchi yonib kelmoqda,  
Bir kuni telefon portlar xonamda.  
Shumxabar kechikib kelar qishloqdan,  
Ehtimol, otamdan, balki onamdan.

Tomirlarim yonar yurakka qarab,  
Yurak lahzalarni sanar asabiy.  
Qishloqqa kechikib borganda xabar  
Izim o'chgan bo'lar bir kema kabi.

Har bitta qadamim sizning sanoqda,  
Payqaysiz ko'zlarim qizarsa agar.  
Dilimda muqaddas hislar o'lmoqda,  
Siz bundan hech qachon topmaysiz xabar.

1995

## ZERIKISH

Men boshimni o'zim olib ketaman,  
Soyda oqizaman uni, mayliga.  
Faqat ayting, bormi olam etagi,  
Makon bormi sizni eslatmaydigan?

Karbalo dashtida yotaman to'zg'ib,  
Yuzimga oy kukun sepsin maydalab.  
Faqat chiqmaysizmi yonimdan o'sib,  
Zamon bormi sizni eslatmaydigan?

Semurg'ga yuragim beray yolvorib,  
Taqdirgamas, yovuz qushga beray tan.  
Faqat ayting, ko'kda halovat bormi,  
Osmon bormi sizni eslatmaydigan?

Meni ezmaydigan daqiqa qayda,  
Kesak bormi meni kesatmaydigan.  
Faqat siz chiqasiz yo'limni poylab,  
Imkon bormi sizni eslatmaydigan?

Tilimni chaynadim, o'ydim ko'zni ham,  
Qulog'imga urdim zaharli tikan.  
Faqat kimga boray, ayting, ey odam,  
Inson bormi sizni eslatmaydigan!

1995

## SESKANDIM

Seskandim. Sochimning ostigacha ter,  
Osmon kemshik tishin ko'rsatib kului.  
O'tlarga o'raniq qunush tortdi yer...  
Tushimda eng yaqin odamim o'ldi.

Shundog'am bor bo'yim shundoq g'am edi,  
Tumanlar ichida sovqotganlarim...  
Mening boy berganim, nahot kam edi,  
Kammidi o'ngimda yo'qotganlarim?

Kechagina quyun xo'pladi-ketdi,  
Bir jahon quvonchim – bir hovuch gulni.  
Bu nechuk sitamu ne tahqir endi? –  
Tushimda eng aziz odamim o'ldi.

Soyda tosh sakratgan toza bolaydim,  
Soy suvi sachradi – ko'zda yosh bugun.  
O'sha toshlar qayta keldilar daydib,  
U toshlar ulg'aydi – qabrtosh bugun.

Og'ridim – barq urgan daraxtday kuydim,  
Shoxlarim dilimni tirnadi, yuldi.  
Boshimga yulduzni tuproqday uydim –  
Tushimda eng aziz odamim o'ldi.

Ko'nglimni o'pgandi mas'um, mehribon,  
Men unga sajdalar qilgandim qadim.  
Azizim... Azizam... Eng aziz inson...  
Faqt eslolmadim... Eslay olmadim...

1995

## ESIMDA

Esimda hamma-hammasi:  
Ko'zlar. Barmoqlar. Gul. Atir...  
Siz ham unutmagsiz,  
Maktublaringiz yo'ldadir.

Balki ertaga olarman,  
Mayliga, bitta so'z, bir satr.  
Eng muhimi, men bilaman –  
Maktublaringiz yo'ldadir.

Umrin shamollarga kulgu,  
Sargashta ayladi taqdir.

Adashib-adashib kelar-ku,  
Maktublaringiz yo'ldadir.

Hayotim o'zgarar batamom,  
Ko'nglim ko'zadek to'ladir.  
Sarhush yashaydirman hamon –  
Maktublaringiz yo'ldadir.

O'n yil o'tibdi. O'n yil...  
Bu menga yagona daldadir.  
Har tong bir orziqib olar dil –  
Maktublaringiz yo'ldadir.

1995

## **DERAZA PARDASI**

Deraza pardasi elkanday shishdi,  
Yana seni o'ylab ko'nglim uvishdi.  
Seni olib ketdi qaysi daryolar?  
Hamrohing bo'ldilar qanday sabolar?

Xonamga nastarin bo'yi bo'yladi,  
Sochlari rayhonim, seni o'yladim.  
Bo'ying to'kildimi olis bog'larga?  
Ko'ngling ko'nikdimi qarg'a, zog'larga?

Kaptarlar bir-birin suyib o'pishdi,  
Xayolim sen tomon qush bo'lib uchdi.  
Sen nechun ketding, men nechun ketkazdim?  
Qanotimga o'zim shikast etkazdim.

Deraza raxiga boshimni qo'yib,  
O'yladim, yomg'irsiz o'tdimi to'ying?  
Yig'lamadim, faqat xo'rsindim xolos,  
Boladek jimgina o'ksindim xolos.

1995

## **ALANGLAYSAN OYOQ UCHIDA...**

Alanglaysan oyoq uchida,  
Qiyofalar begona bari,  
Bozoryo'li – qaynoq ko'chadan  
Meni topolmaysan, dilbarim.

Men hammaga araz urganman,

Go'yo hech kim bilmas qadrimni.  
Kitob hidi bosgan hujramda  
O'zimga aytaman dardimni.

Sen – kapalak kabi beg'ubor,  
Sen – ninachi kabi o'ynoqi.  
Aldanishga tayyorsan takror,  
Qanday go'zal, toza gunohing!

Men o'zimcha hammadan buyuk,  
Men o'zimcha hammadan xafa.  
She'r o'qiyman ovozim qo'yib –  
Yarmisi rost, yarmi – falsafa.

Alanglaysan oyoq uchida,  
Hozir uchib ketgudek go'yo.  
Meni bu odamzot ichidan,  
Dilbar, topa bilmassan aslo.

1996

## **TUBIDA TOSH DUMALATIB...**

Tubida tosh dumalatib soylar o'tdi,  
Yelkasida yaraq-yaraq oylar o'tdi.  
Qamishlarning boylamida naylar o'tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,  
Ko'zlarimdan ko'zlaringiz ketmadi, yor.

Tuyog'idan tillo sochib jayron o'tdi,  
Necha ko'shki obod ko'ngli vayron o'tdi,  
Hammasi ham bu holimga hayron o'tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,  
Ko'zlarimdan ko'zlaringiz ketmadi, yor.

Ro'molini qanot qilgan pari o'tdi,  
Ko'z uchida menga qaray-qaray o'tdi,  
Nigohlari jonimdan ham nari o'tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,  
Ko'zlarimdan ko'zlaringiz ketmadi, yor.

Shamol o'tdi, bulut o'tdi, yomg'ir o'tdi,  
Qahratonning qadamlari og'ir o'tdi.  
Qorabotir o'tdi, Zuhro, Tohir o'tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,  
Ko'zlarimdan ko'zlaringiz ketmadi, yor.

Bir zum qalbim darchasidan ziyo o'tdi,

Bilmay qoldim chin o'tdimi – ro'yo o'tdi,  
Siz o'tdingiz bu dunyodan dunyo o'tdi,  
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,  
Ko'zlarimdan ko'zlarining ketmadi, yor.

1996

## KO'LANKA

Xushnud lahzalarim bo'lidi? Bo'ldi...  
O'choqdan quchoqqa keldi alanga.  
Paymona sharobga to'lidi? To'ldi...  
Qalbda esa o'sha og'ir ko'lanka.

Xurram soniyada har bir hujayram  
Atirguldek bo'lib oqdi yurakka.  
Qumrilar ovvora men uchun sayrab...  
Qalbda esa o'sha og'ir ko'lanka.

Xushbaxt onlarimni eslayman: dalda,  
Ko'milib yotibman o'tu o'langa.  
Chigirtka bilan oy avj kelgan palla...  
Qalbda esa o'sha og'ir ko'lanka.

Shu yerga eltadi yo'l nihoyasi,  
Shu joyda hammasi ajrar bo'lakka.  
Bu – Uning ko'zimdan kirgan soyasi...  
Qalbda esa o'sha og'ir ko'lanka.

1996

## XAZON SOKIN QUYILARDI

Xazon sokin quyilardi – kech kuz edi,  
Ko'nglim kuzdan abgor edi – muz-muz edi.

Nigohimdan diydiragan hashoratlar  
Kechagina parpiragan yulduz edi.

Ostonadan oyoq uzib chiqib ketdim,  
U ostona emas, balki ildiz edi.

Afsun tekkan kabi barcha yaqinlarim,  
Qancha yaqin borsam shuncha olis edi.

Butun dunyo qarshi edi menga, ruhim –  
Qilichmonand yalang'och va yolg'iz edi.

Zahar ichib so'ng pushaymon bo'lgan kabi  
Bu olamdan ko'nglim to'la afsus edi.

1996

## **YETIB KELDIM**

Yetib keldim, mana muhabbat yurti,  
Tilimda tupukday quridi kalom.  
Eshik halqasini uch bora urdim:  
Assalom... Assalom... Assalom...

Men gulshan kutgandim, gulxan ko'rindi,  
Safo izlab, topdim qip-qizil sahro.  
Yuzimga uch karra hovur urildi:  
Marhabo... Marhabo... Marhabo...

Nahot otashgohlar orzu qilganim?  
Nahot olov ichra qolarman mangu?  
Ajab, huzur topdi ruh ila tanim:  
Alhamdu... Alhamdu... Alhamdu...

Tanidim. Va sekin o'zimdan kuldim,  
Quling qullug'ini qabul et, ey yor!  
Afsus, besar umrim, esiz hayf umrim:  
Istig'for... Istig'for... Istig'for...

Xushbo'y chechaklardan burarkan yuzni,  
May, cholg'u, qizlardan bo'larkan judo,  
Hech kim mendek shodon aytmas bu so'zni:  
Alvido... Alvido... Alvido...

1996

## **BIRDAN-BIR**

Birdan-bir o'ynoqi, shaffof ruh eldi,  
Shakkar sovurildi beboshamolda.  
Birinchi qor kabi birinchi sevgi  
Faqt osmondadir, faqt xayolda.

Yerda ko'zyoshimi yo suvmi edi?  
Bilmadim, lekin qor emas har holda.  
Birinchi qor kabi birinchi sevgi  
Faqt osmondadir, faqt xayolda.

Qadim qonunlarni bo'lmaydi engib,  
Kim uni asragan, kim tutib qolgan?  
Birinchi qor kabi birinchi sevgi  
Faqt osmondadir, faqt xayolda.

Mening sochlaringa bitsaydi sezgi,  
Agar til bo'lsaydi sening ro'molda.  
Birinchi qor kabi birinchi sevgi  
Faqt osmondadir, faqt xayolda.

Darvoqe, bu yerga ne sabab keldim?  
Na savol, na javob bor bu ayolga...  
Birinchi qor kabi birinchi sevgi  
Faqt osmondadir, faqt xayolda.

1996

## KO'ZIMGA ISHONMAYMAN

Soching buloq suvidek barmog'im aro toshdi,  
Vujuding shamol kabi quchog'im aro toshdi.  
Hilolni chiltor etib, kipriging chaldi cholg'u,  
Yuragim selob bo'lib, qarog'im aro toshdi:  
«Ko'zimga ishonmayman, nahotki o'zingsan shu?!»

Birinchi bor kuzatdim nur sirg'alib oqishin,  
Birinchi bor chaqmoqqa to'ldirdim qiz og'ushin.  
Birinchi bor alamsiz ruhga qorishdi yog'du.  
Birinchi bor o'zimga yoqib qoldi tovushim:  
«Ko'zimga ishonmayman, nahotki o'zingsan shu?!»

Tungi chorborg'da anor tisirlab yoriladi,  
Eng sara donalari tuproqqa qoriladi.  
Dilgir yotarman tinglab, ko'zga kelmaydi uyqu,  
Nahot mudom kamoldan zavolga boriladi?  
«Ko'zimga ishonmayman, nahotki o'zingsan shu?!»

Gohi shundayki, o'sha chog'ni topmoq mumkinday,  
O'shanday quchmoq yana, shunday o'pmoq mumkinday,  
Yana ko'rmoq mumkinday labingda toza kulgu,  
Javobi shart bo'limgan go'zal so'roq mumkinday:  
«Ko'zimga ishonmayman, nahotki o'zingsan shu?!»

1996

## KUZNI BELGILAMAS

Kuzni belgilamas bittagina qush,  
Qayg'urmang bir dona yaproq sarg'aysa.  
Hali bog'ingizda kurtak otar nish,  
Yerning hovuridek chayqalar maysa.

Tasodif deb biling ranjitgan bo'lsam,  
Payqamasdan yangi ko'ylagingizni.  
Ehtimol xayolga cho'mganman bir dam,  
Sog'inib bahoriy bo'ylaringizni.

Esingizda bormi?  
Hech kim yo'q edi,  
Hech narsa yo'q edi sevgidan bo'lak.  
Qornimiz muhabbat bilan to'q edi,  
Sevgimiz – boshpana, sevgimiz – ko'yak.

To'pidan ertaroq uchar tentakqush,  
Ertaroq sarg'ayar eng zaif yaproq.  
Fojia emasdир yolg'iz xo'rinish,  
Ishq sha'min o'chirmas bittagina oh.

Ammo eslaysizmi?  
Qo'qon shamoli  
Sochingizni hamroh aylagan payti  
Yuzingizni ikki kaftimga olib,  
Ilk bor ismingizni boshqacha aytdim.

Eslolmaysiz.  
Mayli, kuyunmang zinhor,  
Jovdirab osmonga, bog'larga boqmang.  
Yodimda, o'shanda boshlangan bahor  
Bitta so'z, bitta qush, bitta yaproqdan.

1997

## YUZ YUVIB

Yuz yuvib, jilg'aga tupurganim yo'q,  
Ko'zin berkitmadim biror buloqning.  
Nega bunday qarar – nigohlari o'q,  
Nima da'vosi bor ekan arvohning.

Har bir tuyulishda uning sharpasi,  
Ostida o'lтирар har bir yaproqning.  
Har bitta qo'shiqda kelar nafasi,  
Nima da'vosi bor ekan arvohning.

O'zin oshkor etmas mendan o'zgaga,  
Go'yo men sohibi barcha gunohning.  
Ba'zan kitob ichra, ba'zan ko'zguda...  
Nima da'vosi bor ekan arvohning.

Ko'zim tomiriga o'sha qon quygan,  
O'sha sababchisi qo'lida titroqning.  
O'sha jigarimni quzg'undek o'ygan,  
Nima da'vosi bor ekan arvohning.

O'sha bo'lmasaydi, yashardim mangu,  
Tinchirman yopinib olsam tuproqni.  
Ko'raman kim bilan o'ynar ekan u...  
Nima da'vosi bor ekan arvohning?

1997

## **SEVGI DEGANLARI**

Nazokatni qaydan olgan kapalak,  
G'uvillab, nimadan so'ylaydi kaptar?  
Nimaning tasviri, ayting, kamalak?  
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

Ne bois qizarib ketdi atirgul,  
Nasimlar nelardan keltirdi xabar?  
Kimning qiynog'ida to'lg'onar sunbul?  
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

Kimni kutib chatnab ketar harsangtosh,  
Momogulduraklar nahot besamar?  
Qanday qudrat bilan aylanar quyosh?  
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

Ilon ham qovushar, garchi zahri bor,  
Chayon o'z juftiga tutadi shakkar.  
Ko'ngilning yurakdan nima farqi bor –  
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

1997

## **HILVIROQ KITOB**

Hilviroq kitobni zarb bilan yopdim,  
Ko'hna bo'y urilib buzdi ko'nglimni.  
Xazon to'shgidan bir gavhar topdim:

Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

Bulutlar uchrashdi chaqmoqlar otib,  
Chaqmoq – sog'inchlarning oydin gulimi?  
Yomg'ir shivirladi to'kilayotib:  
Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

Daryo quchog'ida tosh qotgan toshlar,  
Eshitib zerikkan sevgi o'lanin.  
Daryo to'rt tomonga o'zini tashlar:  
Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

Yolg'izim, bizlarni siyladi taqdir,  
Ming usulda to'sdi borar yo'limni.  
Sevgimiz bezavol yashaydi, axir –  
Visol – muhabbatning go'zal o'limi.

1997

## **IZIMDAN SUDRALIB**

Izimdan sudralib kelaverar yo'l,  
Ro'paramda o'zin yerga tashlar xor.  
Hamma mendan seni so'raydi nuqul,  
Hamma narsa seni kutar intizor.

Manglayi tirishar zinapoyaning,  
Panjara kuylaydi misoli chiltor.  
Terlab ketganini ko'rsang oynaning...  
Hamma narsa seni kutar intizor.

Meni yolg'iz ko'rib, ingraydi eshik,  
Seskanib tushadi suvrat va devor.  
Muzxona silkinib yig'laydi – eshit,  
Hamma narsa seni kutar intizor.

O'ziga tig' urib qo'ymasa soat,  
Chiroq esa – tamom, qimir etmas dor.  
Xontaxta sen uchun qilmoqda toat,  
Hamma narsa seni kutar intizor.

Yolg'iz men beparvo, sen menga – hech kim,  
Menda na iztirob, na dard, na ozor.  
Faqt boshqalarga keladi rahmim,  
Hamma narsa seni kutar intizor.

1997

## SHUBHA

Men bir o'yinchoqman uning dastida,  
Xohlasa – xas etar, xohlasa – tuproq.  
Bu qudrat – bor bilan yo'q orasida  
Mittigina shubha, mitti ishtiboh.

Axtarib qolaman umrimdan ma'ni,  
So'zlaganim gunoh, sukutim gunoh.  
Pokiza bolaydim, aynitgan meni  
Mittigina shubha, mitti ishtiboh.

Bemalol dunyoni aldashim mumkin,  
Ishongani bog' bor, suyangani – tog'.  
Menga dalda berib turadi tun-kun  
Mittigina shubha, mitti ishtiboh.

Do'stu yor haqida ikkilanmayman,  
Shubha yakson bo'lar isbot kelgan chog'.  
Faqat uning yuzin bir ko'rsam, deyman,  
Mittigina shubha, mitti ishtiboh.

Shu zarra g'ubordan bo'lsaydim xoli,  
Qalbimdan o'chsaydi shu arzimas dog',  
Men yashab ketardim hamma qatori...  
Mittigina shubha, mitti ishtiboh...

1997

## SHAVKAT RAHMON

Uchib-qo'nib, uchib-qo'nib shom-saharlar  
Nafis san'at sahnasida poyga ketdi.  
Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,  
Kapalaklar uchmaydigan joyga ketdi.

Kim quyoshga soldi yerdan topib gavhar,  
Kim ko'ngliga shu'la istab oyga ketdi.  
Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,  
CHiroq yonib o'chmaydigan joyga ketdi.

Chorbozorda so'z axtarar xaridorlar,  
Birov katta ketsa, birov mayda ketdi.  
Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,  
Yolg'on qasam ichmaydigan joyga ketdi.

Ayollarning bandi bo'ldi qaysi mardlar,  
Qay darveshlar chog'ir ila mayga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,  
Tuhmat toshi tushmaydigan joyga ketdi.

Nag'malarni bas qilinglar, endi etar,  
Qo'llaringiz bekor dutor-nayga ketdi.  
Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,  
Osoyishta uxlaydigan joyga ketdi.

1997

## XAZONREZGI

Xazonrezgi mahal bag'rimga  
Olib kelding yashnoq bahorni.  
Shivirlading quloqlarimga:  
– Ayting, sizga keragim bormi?

Oislarda o'smirlik yoshim,  
Boshginangdan sochsam izhorni.  
Sabring toshdi, toqating toshdi:  
– Ayting, sizga keragim bormi?

Yolg'izginam, nimasin aytay,  
Seni kutib charchadim, hordim.  
Sen yig'lading, siltading qayta:  
– Ayting, sizga keragim bormi?

Tomog'imga kelmadi bu so'z,  
Bir qaysar ruh dimog'im yordi.  
Ostonadan boqding umidsiz:  
– Ayting, sizga keragim bormi?

Qayg'u qoldi ko'zingdek mayin,  
Ko'rdim sochdek to'zg'in iforni.  
Shivirladim mahzun jilmayib,  
– Ayting, sizga keragim bormi?

1997

## SHAFAAQQA INGANSAN

Shafaqqa ingansan sayyor qush kabi,  
Go'yo tuproq yo'lida yo'qotgan tangam.  
Seni eslash mumkin bir tovush kabi,  
Seni unutganman. Unutganman.

Biz suygan majnuntol kesilib ketgan,  
Keyin o'tin bo'lgan,  
Keyin alanga.  
Kesilgan yurakning yarasi bitgan,  
Seni unutganman. Unutganman.

Esimdan chiqibdi hatto ko'zlarin,  
Qo'llaring...  
Men o'zga qo'lni tutganman.  
Kechir, og'ir botsa engil so'zlarim,  
Seni unutganman. Unutganman.

Muhabbat...  
Kimningdir oshig'i olchi,  
Oshiq bo'lib, xolos, zaqqum yutganman.  
Qaylardadir qolib ketdi ro'molchang.  
Seni unutganman. Unutganman.

Goho dilni ezsa tiriklik yuki,  
Goho to'yaganimda bu laziz jondan.  
Gohida... Bir nafas... Faqat... Holbuki,  
Seni unutganman. Unutganman...

1997

## **BU HAYOT EKAN-DA...**

Bu hayot ekanda, ko'ngil ekan-da,  
Gulning ixtiyori xoru tikanda.  
Men yorni xor bo'lib sevdim, netayin,  
Suv teskari ketdi menga kelganda.

Taqdir deyin desam, tahqirga o'xshar.  
Tug'yonim – ko'z yoshi, isyonim – xanda.  
Ummon asov bo'lsa, to'fon ham o'jar.  
Inon-imkon bormi yurak – yelkanda?

Boshim egildimi, sindimi qaddim,  
Qalamdek mo'rt bo'lar suyanchsiz banda.  
Ehtimol, osmonni tutib qolardim,  
Yorimning qo'llari tursa yelkamda.

1997

## KO'ZLARINGGA TERMULSAYDIM

Daralarga qamab qo'yib bo'ronlarni,  
Tinchlatirsam yurakdagi suronlarni.  
Bir erkalab, bo'yin to'ksam rayhonlarning,  
Huzuringga men o'zimni keltursaydim,  
Ko'zlariningga termulsaydim, termulsaydim.

Umr tushdek izsiz, shitob o'tayotir,  
Umidimni yanchib, mutab o'tayotir.  
Oy iqida shoshqin oftob o'tayotir,  
Shul hajrni men vaslga yetkursaydim,  
Ko'zlariningga termulsaydim, termulsaydim.

Ehromlar ham bir kun turob bo'lar ekan,  
Koinot ham to'zg'ib, xarob bo'lar ekan.  
Faqat sevgi mangu va sof bo'lar ekan,  
Bilganimni endi senga bildirsaydim,  
Ko'zlariningga termulsaydim, termulsaydim.

Ko'z yoshlaram, shoshilmangiz, ketmang toshib,  
Qon yurakka malham bo'lar sho'r ko'z yoshi.  
Quvonchlardan kechib, qayg'ulardan qochib,  
She'rlar aytib, yig'latsaydim, kuldirsaydim,  
Ko'zlariningga termulsaydim, termulsaydim.

Aytgil, hamon bormi shirin arazlaring?  
Salomatmi orzularing, havaslaring.  
Qulog'imdan ketgani yo'q nafaslaring...  
Seni yana bir ko'rishga ulgursaydim,  
Ko'zlariningga termulsaydim, termulsaydim.

1997

## LAHZALIK SEVINCH BOR...

Lahzalik sevinch bor, lahzalik visol  
Bosh-oyoq soz o'tgan kunni bilmadim.  
Ertaga yuragim tinar, ehtimol,  
Qachon qayg'u do'li tindi, bilmadim.

Suvloq kechgan kabi izim belgisiz,  
Izim ko'zyoshgami, cho'mdi, bilmadim.  
Umr sovurmoqqa ruhsiz, sevgisiz –  
Asov dil qaysi kun ko'ndi, bilmadim.

Bahorda quvonchgul ekkandim, chog'i,  
Ne bois qayg'ugul undi, bilmadim.

Qaerda adashdim, qayda gunohim?  
Qaerga bosh uray endi, bilmadim.

Hur-hur shabadalar, moviy chechaklar,  
Zangor oy eridi, tomdi... bilmadim.  
Sertutun kunduzlar, oysiz kechalar,  
Sharpalar... Bir shaffof tongni bilmadim.

Sizdan o'tinchim shu – bir nafas tegmang,  
Gina saqlamadim, kinni bilmadim.  
Bir go'zal insonni sog'ingandekman,  
Lekin sog'inganman kimni? Bilmadim.

1999

## O'G'LIM

Eski doridek quvvati ketgan – qadr...  
Ammo hayot hamon yangi – go'zal, o'g'lim.  
Barmoqlaring ignadan ham ingichkadir,  
Tuzala qol, o'g'lim, tezroq tuzal, o'g'lim.

Derazadan nafasingni sezib turdim,  
Gunohlarim o'ylab, ko'nglim ezib turdim.  
Oq libosdan sendan battar bezib turdim,  
Tuzala qol, o'g'lim, tezroq tuzal, o'g'lim.

Tovonimdan sochimgacha uzun og'riq,  
Og'riq bormi choraszlikdan ham ortiq.  
Senga qanday dard tegdiykin mendan ortib,  
Tuzala qol, o'g'lim, tezroq tuzal, o'g'lim.

G'aribgina sochilmishdir o'yinchoqlar,  
Beshik bo'ynin siqayotir ko'zmunchoqlar.  
Mittigina tuflichalar ham paypoqlar...  
Tuzala qol, o'g'lim, tezroq tuzal, o'g'lim.

Asli, o'zim xastaholman, o'zim dardmand,  
Faqatgina dilimda bu kasal, o'g'lim.  
Sen sog'aysang, men ham balki tuzalarman,  
Tuzala qol, o'g'lim, tezroq tuzal, o'g'lim.

1999

## KO'NGLINGDA NIMA BOR

Taqdirga tan kerak-ku, ammo,

Gohida o'zimga sig'mayman.  
Ko'nglimda bir tugun muammo –  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

Bilaman kipriging har birin,  
Chizaman ko'zlarining tasvirin.  
Vujuding qo'ynimda, asirim,  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

Bilaman qaysi rang yoqishin,  
Nigohing aytadi xohishing.  
Uyqumda taniyman tovushing,  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

Bilaman, labingda boling bor,  
Zulfingda necha tor tolang bor.  
Bilaman, qaerda holing bor,  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

Dildorim deyinmi, dilbarim,  
Behuda yurakni tilganim.  
Bir puldir dunyoni bilganim –  
Ko'nglingda nima bor – bilmayman.

1999

## KO'Z QORASI

Ko'z qorasi – yurakdagi dog'lardan,  
Soch qirovi o'tli-o'tli ohlardan.  
Men do'stimni alqab so'z aytay desam,  
Alpomishlar bo'zlab chiqar chohlardan.

Qancha gunoh oldimda-yu izimda,  
Netay, hatto o'zim yo'qman izmimda:  
Ruh siltanib, chiqib ketar tizgindan –  
Sharob hidi kelsa kuzgi bog'lardan.

Do'stim, bizlar boshqa-boshqa taqdirmiz,  
O'zimizcha to'g'ridirmiz, haqdirmiz.  
Balki kurtakdirmiz, balki bargdirmiz,  
Lekin meva tilamasmiz shohlardan.

Oshiq ahli yo telba yo mast kelgan,  
Suvdan sokin, maysadan ham past kelgan.  
Men bilganlar bari dilshikast kelgan,  
Ko'ngil so'rab ko'rмаганман sog'lardan.

Dilga kulrang soya tushar zog'lardan,  
Yo tosh ko'char, yo sel kelar tog'lardan.  
G'amli she'rlar yozmas edim, na qilay –  
Hanuz sado kelmas Qo'qon yoqlardan.

2001

## **AFSUSKI**

Nima qildim koyib, taqdirdan nolib,  
Bu savdolar qondan o'tgan, afsuski.  
Do'stlar ohang to'la yuragim qolib  
Eshigimga quloq tutgan, afsuski.

Afsuski, halvoga do'nmas g'o'ralar,  
Toychoqqa yo'l bermas qari yo'rg'alar.  
Bedilning ko'zlarin ko'rgan qarg'alar  
Chorbog'imda tuproq titgan, afsuski.

Afsuski, tushmadim men ham osmondan,  
Yaxshidan yomonman, yaxshi yomondan.  
Jon deb kechib ketar edim-ku jondan  
Onamning kutgani kutgan, afsuski.

Afsuski, shabboda sudragan xasman,  
Kuyim o'zimga tan, o'zim sarmastman,  
Ko'changizdan qaytib kuylab o'tmasman,  
Azal menga shuni bitgan, afsuski.

Afsuski, sharhi yo'q jimligingizning,  
Siz ham o'ylarmisiz kimligingizni.  
Bilaman-ku makkor shumligingizni –  
Shayton bel olishmay yutgan, afsuski.

Afsuski, oldinda ko'ngil yo'q, dil yo'q,  
Karvon so'ngidaman giyohu gul yo'q.  
Fojiam shundaki, orqaga yo'l yo'q,  
Imkon qo'ldan ketgan... ketgan... afsuski.

2001

## **BORGAN SARI**

Borgan sari bahor tansiq tuyilar,  
Borgan sari atirgullar xushbo'yroq.  
Borgan sari ko'z yosh ravon quyilar,  
Borgan sari oy tiniq va xushro'yroq.

Sharob ichsam, tomchisini qoldirmay,  
Seni quksam, o'psam charchoq bilmasam.  
Labim qayiq kabi senda etsa sayr,  
Ko'zlarimni yashirmsadan yig'lasam.

Borgan sari bo'salaring totliroq,  
Borgan sari qirmizi lablaring.  
Borgan sari sokin-sokin qaltiroq,  
Borgan sari shirin-shirin gaplaring.

Shudring misol izsiz ketyapti kunlar,  
Visol tuni kechayotir chaqinday.  
Boshimdan qor sochayotir uchqunlar,  
Sezyapsanmi, so'nggi manzil yaqinday...

Borgan sari yorug' tortar shamchiroq,  
Borgan sari yashil va durkun yalpiz.  
Borgan sari quchmoqdaman qattiqroq,  
Borgan sari uzoqlashib ketyapmiz.

2001

## **MENI ESLAYSANMI?**

Meni eslaysanmi, oy tilib-tilib,  
Qiyqimlagan baxmalim – yalpiz?  
Kimni izlayapsan, chuvalchang bo'lib  
O'rmalab ketgan ildiz?

Ninachi qanotin urgan anhorim,  
Sog'inchingdan so'zlab ber!  
Ayt, seniyam bir sog'inganing bormi,  
Sopoldek darz ketgan yer?

Dadam ekkan terak, qishning chillasida  
Bag'ring tilinmadimi?  
Qishlog'im, ko'klamning ilk pallasida  
O'rnim bilinmadimi?

Sevgilim, hammasi tamom bo'lgan. Goho –  
Meni qiynaydi bir so'z.  
Sendan bir narsa bilmochiydim, ammo  
Yodimdan chiqdi, afsus...

1992

## KELINCHAK

O'rik shoxlariga qo'ngan qormikan,  
Qo'llaring xinomi yo gulgun chechak?  
Hanuz masrurmisan, baxtiyormisan,  
Bag'dod bog'larida qolgan kelinchak?

Kimni aziz tutib ketding, azizam,  
Kimning haroridan gullading, o'sding?  
Bir lahza ko'zimni ko'rayin desam,  
Kipriklaring bilan ko'zingni to'sding.

Boshingda daryodek mavjlangan ro'mol...  
Shamol qulog'idan tortar barglarni...  
Shamol, uchirolmay dilgirdir shamol –  
Ro'molinga qo'ngan kapalaklarni.

Olam bir alamdir, sim-siyoh cheti,  
Alam bir olamdir endi, sevarim.  
O'rik gullaridek sochilib ketdi  
Kaftimdag'i bir juft sitoralarim.

Meni chorlayverdi yovvoyi kenglik,  
Jayronlar ko'zidan ko'zim qamashdi.  
Senga gullagan bog' yarashganidek  
Menga sargardonlik gashti yarashti.

O'rik shoxlarini bukkan qormikan...  
Qo'llaring xinomi yo gulgun chechak.  
Seni ko'rgim kelar, omon bormisan,  
Mening tushlarimda qolgan kelinchak...

1992

## SEVMADING

Sevmading sen, dilitoshim,  
Dilimga cho'kdi qo'rg'oshin.  
Ko'zimdan toshdi ko'zyoshim,  
G'amkash buloq sevmish mani.

Sevmading san, etolmasdan  
Sanga termuldim olisdan.  
Haddan ziyoda yolg'izman,  
Netay, tuproq sevmish mani.

Sevmading san. Ay, yuragim!  
Xazon tushgan may – yuragim.

Qandoq ovutay, yuragim,  
Keksa yaproq sevmish mani.

Sevmading san, atirgulim,  
Sevgi asli nadir, gulim?  
U singan ignadir, gulim,  
Singan chaqmoq sevmish mani.

Sevmading san! Sevmading san!  
Har odimda xatar bergen,  
Har yutimda zahar bergen,  
Suyganiga dardlar bergen,  
Tangri ko'proq sevmish mani...

1993

## TILAK

Qirq kun qora sel kelsin,  
Yuvib ketsin yer yuzin.  
Ikki jon omon qolsin –  
Yolg'iz sen bilan o'zim.

Tig' o'ynatsin qahraton,  
Dunyo muzlasin zim-zim.  
Bizlar qolaylik omon,  
Yolg'iz sen bilan o'zim.

O't tushsin bu jahonga,  
Yonsin baliq, kuysin qum.  
Tegmasin ikki jonga –  
Yolg'iz sen bilan o'zim.

Dardim o'zimga ayon,  
So'nayotir yulduzim.  
Qochib boraylik qayon  
Yolg'iz sen bilan o'zim?

Ayt, yana nima deyin?  
Bundan boshqa yo'q so'zim.  
Nahot shunchalar qiyin...  
... Yolg'iz sen bilan o'zim.

1994

## RUSTAM SOBIT HIKOYASI

Bu qiz boshqacha ekan,  
To'satdan sezib qoldim.  
Bilmadim, nima bo'ldi,  
Shu qizni sevib qoldim.

Kecha-kunduz xayolim  
Uchadi gulruh sari.  
Bir lahma ko'z o'ngimdan  
Ketmaydi gul ruxsori.

Bir kun to'sdim yo'lini,  
Shartta quchdim, qo'ymadim.  
Bitta o'ptim, to'y madim,  
O'nta o'ptim, to'y madim.

Sezdim – qizning ko'ngli bor,  
Ammo bosh garang edi.  
Bu bog'da tikan bisyor,  
Oyog'im – yalang edi.

Na qilarsan, sevganing  
Zargarning qizi bo'lsa.  
Zargar esa, nonemas,  
Zang'arning o'zi bo'lsa.

Zar qadriga etmagan  
Zargar sotdi qizini.  
Bir puldorning qo'yniga  
Shartta otdi qizini.

Kuldi do'stu dushmanim,  
Bir pul bo'ldi qiymatim.  
Bir kun yotib yig'ladim,  
O'n kun yotib yig'ladim.

Bilmasdim – netmak kerak,  
Qanday talashar edim?  
Men o'shanda yosh edim,  
O'n etti yashar edim...

O'n yoz o'tdi, o'n bahor,  
Bir kuni uni ko'r dim.  
Hurkak kiyikcha emas,  
Go'zal ohuni ko'r dim.

Bedapoya. Hech kim yo'q.  
Ketqizgani qo'ymadim.

O'nta o'ptim to'ymadim,  
Yuzta o'ptim, to'ymadim.

Kuldi, sevaman, dedi,  
Xayolimda – siz, dedi.  
Mendan or qilmang, dedi,  
Men – bokira qiz, dedi...

Tuf-e! Bari xom xayol,  
Qo'lidan ketgan hammasi.  
U endi oddiy ayol,  
Bir etak churvaqasi!

Menmi? Nima ishing bor?  
O'sha-o'sha sayoqman.  
To'rt tarafim tikonzor,  
Hamon yalangoqman.

1994

## **ISITMA HAQIDA HIKOYA**

«Bir uxbab tursang bo'ldi,  
Nima bo'pti isitma.  
Chopib ketasan, o'g'lim,  
Ko'rmagandek hech nima...»

Tashqarida shamolmi,  
Yo bo'rimi uvlagan?  
Uxlash kerak, uxlash shart,  
Sog'ayadi uxlagan.

Katak-katak dastro'mol,  
Onam artar terimni.  
Yashil-qizil sharpalar  
Suzib yurar erinib.

Boshim og'ir og'riydi,  
Achishadi dimog'im.  
Oyoqlarim bahaybat,  
Begonadek barmog'im.

Erinchoq, sur sharpalar  
Quvlagani, quvlagan.  
Uxlash kerak, uxlash shart,  
Tuzaladi uxlagan.

Men mezbonmi, dard mehmon,

Ona, ketdim tuzalib.  
Uzoqib ketdim sizdan,  
Ota yurtdan uzilib.

Yarim kecha. YArim oy,  
Yarim umr, ehtimol.  
Uyqu kelmas. Ko'chada  
Itdek uliydi shamol.

Ko'zlarimdan o'tib chang,  
Yuragimga dard tekkan.  
Ona, ahvolim yomon,  
Menga yomon dard tekkan.

Atrofimda sharpalar  
Aylanadi erinib.  
Kim menga malham bo'lar,  
Kim artadi terimni?

Bir uxbab tursam bo'ldi,  
Unut bo'lar barchasi.  
Yurak, la'nati yurak  
Tortib-tortib sanchadi.

Harom bo'ldi ko'zlarim,  
Harom bo'ldi yuragim.  
Ey, tuzalmas kasalning  
Kimgayam bor keragi!

Men ham, axir, odamman,  
Sotaman yo tonaman.  
Xotirjam bo'ling, ona  
Hozir uxbab qolaman.

Uyg'onsam agar, men ham –  
Jilmayaman pok, halol.  
... Tashqarida go'dakdek  
Chinqirab yig'lar shamol.

1994

## **CHIROYLI QIZ HAQIDA HIKOYA**

Sen chiroyli qiz eding,  
Sen chiroyli kularding.  
Sal xunukroq bo'lsayding  
O'zimniki bo'larding.

Men ketaman, gulg'uncha,  
Qarab qolmagin, dedim.  
Men murodga etguncha  
Qarib qolmagin, dedim.

Visol nima, dedim men,  
Hijron kerak she'r uchun,  
Qiynoq kerak she'r uchun  
Armon kerak she'r uchun.

Qattiq boqding so'nggi payt,  
Labing titradi lekin:  
«Yaxshi ko'rasanmi, ayt,  
Yaxshi ko'raman, degin!»

O'yin qildim, ko'nglingni  
Kapalakdek haydadim.  
Sendan topgan so'zimni  
Chaynab yutdim, aytmadim.

Xayr, qishloq, men ketdim  
Orzuli ko'nglim bilan,  
Sevgim ko'zin berkitdim  
Qalamli qo'lim bilan.

Atay qildim hammasin,  
Atay seni kuydirdim.  
Ochildi she'r sahnasi –  
Bari yolg'on, uydirma.

Bilib turib kechdim men  
Eng chiroyli olamdan.  
Arosatga tushdim men –  
Na shoir, na odamman.

Qalbqozon qaynay-qaynay,  
Quyuldi, cho'kdi sekin:  
«Yaxshi ko'rasanmi, ayt,  
Yaxshi ko'raman, degin!»

Umr ketgani sari  
Yo'qliging seziladi.  
Seni o'ylab tunlari  
Yuragim eziladi.

Uyimga keldi boylik,  
Etakladi omadim.  
Ammo sendan chiroyli  
Va g'amgin she'r topmadim.

Men kim edim, ne uchun  
Shuncha yo'lim qarading?  
Xazon bo'lning men uchun,  
Meni kutib qariding?

Salom, qishloq, men keldim  
Alamli ko'nglim bilan.  
Yonimda xushnud kelin,  
Erkatoy o'g'lim bilan.

Oqshom payti ko'chadan  
Bir tovushni ilg'adim,  
Turib oyoq uchida  
Yurak yutib, tingladim.

Kimdir mening o'g'limni  
Erkalardi, suyardi.  
Mittigina qo'lini  
O'pib-o'pib qo'yardi.

Bir gap so'rardi tinmay,  
Javob kutmasdi lekin:  
«Yaxshi ko'rasanmi, ayt,  
Yaxshi ko'ruman, degin!»

1995

## **PARI HAQIDA HIKOYA**

Bilagingdan, labingdan  
Binafsha bo'yi kelar.  
Yig'i kelar labimdan,  
Bo'g'zimdan o'yib kelar.

Qayda ertaklar yurti,  
Qay tomonda Xorazm?  
Firoq jonimdan o'tdi,  
«Galdi seni go'rasim».

Tola soching kuydirdim,  
Uchib kelding. Serzarda.  
Men jim turdim. Tek turdim.  
O, agarda, agarda!

Derding, netayotirsan,  
Meni tinch qo'y, iltimos.  
Sen bor-yo'g'i shoirsan,

Ya'ni odamsan, xolos!

Menga tekkandi pari,  
Yo'q, to'g'risi, jin chaldi.  
Pirpiradi lablarim:  
«Sani go'rasim galdi...»

Hayron turding. Bo'shashding,  
Chaqildi ishq chaqmog'i.  
Men oshiqdim. Men shoshdim.  
Gulga to'ldi quchog'im.

Bilagingdan, labingdan  
Binafsha bo'yи keldi.  
Bir o't chiqdi qalbimdan,  
Tomog'im kuyib keldi.

Shivirlading, shoirim,  
Ishq yolg'ondir, yig'ingil.  
Muhabbatning oxiri  
Pushaymondir, yig'ingil.

Soching yuzimga surdim,  
O, ko'zimning qorasi.  
Qayda ertaklar yurti,  
Qay tomonda Xorazm?

Tongda firoq muqarrar,  
Hijron kutar saharda,  
Birga ichaylik zahar,  
O, agarda, agarda!

... Parilar hiylasini  
Bilmas odam bolasi.  
Ko'ylagim tugmasiga  
Bog'langan soch tolasi...

1995

## **NIGOH HAQIDA HIKOYA**

O'lan – mayin, o't – mayin,  
Yo'lingga yotib oldim.  
Kapalak tutgandayin  
Nigohing tutib oldim.

Duv qizardi yonog'ing,  
Shuv sirg'ondi yuragim.

Qochdim g'olib bayrog'i –  
Hilpiradi ko'ylagim.

Tomda yotdim shu kecha,  
Yulduzchalar jilmaydi.  
Men bilaman, tonggacha  
Sening uyqung kelmaydi.

Nigohingni so'raysan  
Odam qo'yib o'rtaga.  
Erkalayman, yayrayman:  
«Ertaga ke, ertaga!»

Etti iqlimni aylan,  
Bunday shirin nigoh yo'q.  
Qaytarib beradigan  
Anoyi yo'q, ahmoq yo'q.

G'ubor bosgan osmonni  
Engim bilan artaman.  
«Nima bo'lar ertaga?  
Nima bo'lar ertaga?»

Uzoqni ko'radigan  
Otangda ham gunoh yo'q:  
«Unga qiz beradigan  
Anoyi yo'q, ahmoq yo'q!»

O'lan – mayin, o't – mayin,  
Indamaydi toptasang.  
Birovga indamayin  
Ochiladi darbozang.

Yaxshi qizsan, sen hecham  
Tik qarashni bilmaysan.  
Men bilaman, tonggacha  
Bildirmasdan yig'laysan.

Nigohimni so'nggi dam  
Kipriging kesib o'tdi.  
Yo'lingga yotib olsam,  
Ko'nglimni ezib o'tding.

Senga oson har qalay,  
Buzsa bo'lar nikohni.  
Menga qiyin, men qanday –  
Bekor qilay nigohni?!

## MUHABBATSIZ VISOL HAQIDA HIKOYA

Muhabbatsiz kechdi bu visol,  
Men murodsiz maqsadga yetdim.  
Tuni bilan yalindi ayol,  
Kelaman deb aldadim – ketdim.

Yo'lko'rsatkich bo'ldi xazonlar,  
Daydibadar yelga aylandim.  
O'tdi oylar, o'tdi zamonlar,  
Yana o'sha menga aylandim.

Yana bordim tilanib visol,  
Hasratimni aytdim- aytmadim.  
Meni itdek haydadi ayol,  
Men vafodor itdek... ketmadim.

Tashna edim, ichim yonardi,  
Loyqa bo'lsin, suv kerak edi.  
Shu kech faqat uni xohlardim,  
Menga faqat u kerak edi.

U baribir qilmadi shafqat,  
Qulflab oldi darbozasini.  
Yulduzlarni quchguncha shafaq  
Poylab yotdim ostonasini.

Tongda so'kdim, bo'ralab rosa,  
Qasam ichib, qaytdim ortimga.  
Bugun kimdir, farishta, desa,  
O'sha ayol kelar yodimga.

1994

## TO'RTLIKLAR

Ko'zlarimda porlagan sham aldamchidir,  
Yuzlarimga yoyilgan nam aldamchidir.  
Suvratxona devorida yillab turgan  
Suvrat kabi bul qiyofam aldamchidir.

\* \* \*

Do'stu yordan so'yla, aytma g'anidan,  
To'fonni qo'y, degil xushbo'y nasidan,  
So'zimiz may, cholg'u visoldan kelsin,  
Men ham so'zlab beray ko'rmaganidan.

\* \* \*

Tubanlab-tubanlab falakka ketsam,  
Hech kim tikilmagan tilakka ketsam.  
Men yolg'iz bo'lsamu u tanho bo'lsa,  
Yuragimni quchib yurakka ketsam!

\* \* \*

Biz talpingan tuynuk – olis Zuhal edi,  
Yulduzlarning nafasi ham asal edi.  
Go'zalmiding-yo'qmi, hozir yodimda yo'q,  
Lekin o'sha sevgi behad go'zal edi.

\* \* \*

Dardim boru yuragimda darmonim yo'q,  
Zamonimdan ayrilganman makonim yo'q.  
Gar tupursam, tupuk bilan yiqlgayman,  
Xiyonatlar qilay desam, imkonim yo'q.

\* \* \*

Cho'ntaging to'lar va omading kular,  
Otni to'g'ri yo'lidan chapga toydirsang.  
Pul – qo'lning kiridir, demish eskilar,  
Qancha iflos bo'lsang, shuncha boydirsan.

1994

## YAPROQ

Zarrabin nigohli qadimshunoslar  
Qatlama toshlarni avaylab kesib,  
Topdilar bus-butun saqlangan bir barg –  
Aftidan, ibtido davriga mansub.

Balki, bu shunchaki to'kilgan yaproq,  
Nomsiz daraxtlarning iltijosidir.  
Balki, ibtidoiy dildagi titroq –  
Boqiy muhabbatning ibtidosidir.

Ehtimol, toshyigit toshqizni suyib,  
Yurak shaklidagi yaproqni tutgan.  
Balki, qiz yig'lagan lablarin qo'yib,  
Keyin toshlar aro berkitib ketgan...

Qadimshunoslarning topgani – taxmin,  
Mohiyat haqida jiddiy gapim bor:  
Faqat muhabbatda mo'jiza mumkin,  
Mangulikka faqat sevgi daxldor!

Toshdek dumalaydi hali asrlar,  
Davrlar o'tadi kiyikdek chopib,  
Hali echiladi chuvalgan sirlar,  
Falak asrorin ham olarlar topib.

Qadimshunoslarmi, odamshunoslar,  
Toshkent toshlarini kesarkan bir kun  
Hayratdan barchasi esidan ozar –  
Mening yuragimni topib bus-butun!

Goho ishq yo'lida bo'lar qurbanlik,  
Lekin o'zga olam sevgi va ilm.  
Hozir bir so'zingga kelajak bog'liq,  
Toshbag'ir sevgilim, toshdil sevgilim!

1995

## DEVOR

### *Rahmon akaga*

Yo'limga yondosh – devor,  
Yo'l yuraman, kuyaman.  
U tomoni – sumanzor,  
Bu tomoni – biyobon.

Devor bo'y lab, buralib,  
Gurkiraydi xush bo'ylar.  
Tovus kabi turlanib,  
Suziladi xushro'ylar.

Og'ochlar aytar o'lan,  
Xayolimni oladir.  
Har yaprog'i zumraddan,  
Har mevasi tillodir.

Men, yo Jamshid, desam, bas,  
Devor cho'kib past bo'lar.  
Ammo tilim aylanmas,  
Kalom og'irlilik qilar.

Qumda qolar bir juft iz,  
Qumda qolar ko'zlarim.  
Bu tarafda men yolg'iz,  
U tarafda do'stlarim.

Bu tomonda bo'z osmon,  
U tomonda bo'yoqlar.  
Ilon tili misoli  
Nozik titrar giyohlar.

La'li lablari tinmay,  
Gullar meni imlaydi.  
Barmoqlari qayrılma  
Qo'lllar meni imlaydi.

Men, yo Jamshid, desam bas,  
Bari meniki bo'lar.  
Ammo dilim aylanmas,  
Ko'nglim og'irlilik qilar.

Qaramayman, qarasam –  
Ko'zimni oy tiladi.  
Barmog'im orasidan  
Tuproqlar otiladi.

1995

## KO'KLAM

### ***Salim Ashurga***

Ko'klam, men ko'nglimni ochmasdan hali  
Qat-qat hasratimni ilg'agan ko'klam,  
Meni deb chorboqqa tortib baxmalni,  
Qo'ziqorin bilan mixlagan ko'klam,  
Mening sharafimga yashin yashnatib,  
Mushakdek portlatgan momaqaymoqni,  
Xatti shikastada maktublar bitib,  
Shoxlarga bog'lagen har bir yaproqni,  
Ko'klam, sendek toza oshno ko'rmadim!  
To'qqiz oy yashadim yuragim yutib,  
Tiriklik hurmati, o'lim hurmati  
To'qqiz oy o'tkazdim mavluding kutib.

Ko'klam, sabolaring ila sarmastman,  
Meni gumonlardan aylagin xalos.  
Men sendan dunyolar talab qilmasman,  
Men sendan muhabbat tilayman, xolos!

Yomg'irlar yog'ildi, izlar yuvildi,  
Ammo ravshan tortdi dilimdag'i iz.  
U qizning qalbidan mangu quvildim,  
U mening ko'nglimdan ketmadi hargiz.  
Ko'klam, chegara yo'q saxovatingga,  
Sening davlatingdir tole va iqbol.  
Ismimni g'unchadek bog'la yodiga,  
Butkul qurimagan bo'lsa bu nihol.

Senki, chaqmoq tutgan buyuk jahongir,  
O'lim vodiysidan yuragimgacha  
Ruhimdan tortib to Sahroi Kabir  
Inqilob ulationding va sochding chechak.

Sen sabab istaklar uyg'ondi takror,  
Ko'zlarda aks etdi yulduz yolqini.  
Iliq kechalarda yangrar beozor  
Olis dengizlarning sokin shovqini.  
Sen bilan ketolsam edi zora men,  
Mayli, nasim bo'lib o'tsaydim sarson,  
Mana, bedazorni kechib boraman,  
Chigirtkalar suvday sachraydi har yon.

Kelmoq-ketmoqlikning bordir muddati,  
Vaqti bilan bino bo'lgandir ko'k ham.  
Yuragim hurmati, sevgim hurmati,  
Meni o'z vaqtida yo'qlagin, ko'klam.  
Yo'lingga qarayman hadikka to'lib,  
To'qqiz oy qiynaydi shirin visoling,  
Yashayman dilbandi o'lik tug'ilib,  
Yangi farzand kutgan ota misoli.

1995

## HORG'IN ROHAT

Horg'in rohat ichra yotibman tinglab,  
(Ne baxt bu – hozircha tuproq tagimda).  
Mendan quvvat olib, sog'lom gurkirab –  
Beshiklar o'smoqda tevaragimda.

Kapalakdek uchar rangin xayollar,  
Asal bo'layotir gullar g'ubori.  
Tepamda aridek turmang, savollar,  
(Ne baxt bu – yotmoqlik yerdan yuqori).

Mayli, men aldamchi o'ylar bilan mast  
Ruhimga taskinlar izlayotirman,

Shu lahza tegramda boshqa narsamas,  
Beshiklar o'sishin istayotirman.

1995

## **SAMOGA SOCHILDI**

Samoga sochildi moviy uchqunlar,  
Barmog'ing tekizsang, tiladi hilol.  
Sevgi isi kelgan bu sog'lom tunda  
Hamma narsa toza, hammasi halol.

Tonggacha yashaylik hech bir niyatsiz,  
Bemaqsad kezaylik ikkimiz birga.  
Shu kecha buzmaylik samimiyatni,  
Gapirma, tonggacha sen ham gapirma...

1996

## **QADRDON**

Ey do'st, qo'shga qo'shmagil  
Qorako'z ohularni.  
Chalg'iga alishmagil  
Ming yillik cholg'ularni.

Tanbeh bilan, dars bilan,  
Xoh qisti qafas bilan  
Qo'lga o'rgatolmaysan  
Devona tuyg'ularni.

Ey do'st, bulbul ovozin  
Tortgaymi hech tarozu?  
Pulga chaqib bo'larmi  
Beg'ubor kulgularni.

O'zicha aylansin yer,  
Dunyoni tek qo'yib ber.  
Atirgullardan talab  
Qilmagin og'ularni.

Ey do'st, hech kim emasman,  
Xayolim bilan mastman.  
Jim surib o'tsam deyman  
Qadrdon qayg'ularni.

1996

## AYLANA

Yaproqlar xazonga aylandi,  
Xazonlar so'zonga aylandi,  
So'zonlar to'zonga aylandi,  
To'zonlar aylandi qoshimda.

Chaqmoqlar sukutga aylandi,  
Sukutlar burgutga aylandi,  
Burgutlar bulutga aylandi,  
Bulutlar aylandi boshimda.

Irmoqlar jolaga aylandi,  
Jolalar dalaga aylandi,  
Dalalar lolaga aylandi,  
Lolalar aylandi yoshimda.

Qiyoqlar cholg'uga aylandi,  
Cholg'ular qayg'uga aylandi,  
Qayg'ular og'uga aylandi,  
Og'ular aylandi oshimda.

To'zonlar qoshimda aylandi,  
Bulutlar boshimda aylandi,  
Lolalar yoshimda aylandi,  
Og'ular oshimda aylandi.

1996

## TANGRI SIZNI...

Quyosh – yolg'iz, oy tanho,  
Oy quyoshga o'ptirdi.  
Men – Siz – Siz – Men va Samo...  
Tangri sizni ko'p ko'rди.

O'n sakkiz ming olamda  
Har tomchining o'z o'rni.  
Ko'ylagim – oq alanga,  
Tangri sizni ko'p ko'rди.

Suv ichaman deganda  
Soyga tushirdim durni.  
Ixtiyorim – Egamda,  
Tangri sizni ko'p ko'rди.

Men ne isyon etayin –  
Ekkanning o'zi o'rди.

Arzim kimga aytayin –  
Tangri sizni ko'p ko'rdi.

Yolg'iz – yagonam, dedim,  
Kimlarnidir rashk urdi.  
Ko'rib, to'yagan edim,  
Tangri sizni ko'p ko'rdi.

1998

## **AYTGIL, DO`STIM, NIMA QILDIK VATAN UCHUN?**

*Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,  
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,  
Shu savolni berib ko`rgin o`zingga sen,  
Aytgil, do`stim, nima qildik Vatan uchun?*

### **AGAR JANNAT KO`KDA BO`LSA**

Olsdag'i mahmadana, eski olchoq,  
Menga qadam tashlamoqni o'rgatmagan!  
O'zingga boq, keyin mayli nog'ora qoq,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagan!

Tinchlikni deb yurak bag'ri kuyik el bu,  
Yaratganning qoshida eng suyuk el bu!  
O'tmishi ham, ertasi ham buyuk el bu,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagan!

Dala -dashtlar o'z-o'zidan Eram bo'lmas,  
Lekin sendan beminnat bir karam bo'lmas,  
O'zbek eli hech kimsaga qaram bo'lmas,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagan!

Kitobingda daholarim so'zlari bor,  
Devoringda bobolarim izlari bor,  
O'zbek elin etu tirnoq do'stlari bor,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagan!

Yaltiragan hamma narsa emas tilla,  
Hayfdir senga Naqshbanddan qolgan salsa,  
Ey xudoni tanimagan chalamulla,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagan!

Naqorat:

Agar jannat ko'kda bo'lsa, ostidadir O'zbekiston,  
Agar jannat yerda bo'lsa, ustidadir O'zbekiston!

2005

### **SALOM SIZGA**

Xayolimdek abad ozod  
sabolardan salom sizga,  
Kuychi ko'nglim kabi mahzun

navolardan salom sizga.

Men so'z aytsam topib aybin,  
mudom aksin o'ylagaysiz.  
Tosh yurakka tegib qaytgan  
sadolardan salom sizga.

Jing'il ichinda o'grilib –  
o'grilib sayraydi bulbul,  
Nolasi beadog', umri  
adolardan salom sizga.

Nahotki bemuruvvatlik  
kishini boy etur oxir,  
Tabassum deb qo'l uzatgan  
gadolardan salom sizga.

Jabr ustiga jafolar  
qo'yib havolandi dilbar.  
Jafolardan salom sizga,  
havolardan salom sizga.

Necha dil berdimu Iqbol  
necha bor tavbalar etdim.  
Haqiqatdan zavqi ustun  
xatolardan salom sizga.

2005

## BAG'DOD POLVONLARI

To'y tarqab, o'choqqa tuproq tushdimi?  
Yiqilgan polvondek yuragi qonman.  
Bag'dod kurashining gala-gashtini  
Sog'ingan odamman, xumor insonman.

Maydon qani, mardi maydonlar qani?  
Bakovullar qani, farmonlar qani?  
Belda belbog'i bor polvonlar qani?  
O'zimning holimga o'zim hayronman.

Ko'tarib urish bor, chalish yo'q edi,  
Itarish, yoqadan olish yo'q edi.  
Halol yiqitish bor, nolish yo'q edi.  
Hasrati osmonman, dardi dostonman.

Rustam bahodirlar, To'ra polvonlar,  
O'ktam bahodirlar, Jo'ra polvonlar...

Ko'zimga mo'ltirar g'o'ra polvonlar,  
Men esa ularga boqib vayronman.

Ichidan zil ketib, mag'rur sirtida,  
Qoshiga qor qo'nib, qirov – murtida  
Ish izlab yurgandir o'ris yurtida...  
Men bunda do'st izlab zoru nolonman.

Erlar Shoymardonga chiqmay qo'ydimi?  
Er gapini ayol uqmay qo'ydimi?  
Yo xotinlar o'g'il tug'may qo'ydimi?  
Bag'dod teragidek titragan jonman.

Men bitta bolangman qir oshib yurgan,  
O'zi bilan o'zi kurashib yurgan.  
Hech kim yo'q yerdarda ko'ksiga urgan  
Bir chala shoirman, og'zi polvonman.

2005

## G'IYBATCHILAR, XORMANGLAR!

Salom bering va lekin  
Yaqiniga bormanglar.  
Assalomu alaykum,  
G'iybatchilar, xormanglar!

Erkaksifat xotinlar,  
Xotinsifat erkaklar.  
Xabari yo'q o'zidan,  
Ko'ringanni ermaklar.

To'qiyyering gap-to'rlar,  
O'zingizdan ortmanglar.  
Assalomu alaykum,  
G'iybatchilar, xormanglar!

Pismiqlar, muloyimlar,  
Ay, siz irkit jo'jalar,  
Ay, bekorchioyimlar,  
Ay, bekorchixo'jalar!

Menga qolsa barini  
Birma-bir bosar edim.  
Kattaroq bir asbobga  
Tilidan osar edim.

Zamon ko'tarmas lekin

Mayli, yaqin bormanglar.  
Assalomu alaykum,  
G'iybatchilar, xormanglar!

2005

## BORMI?

O'n besh kunda oy tug'adi yangidan,  
It termulib uvlamagan oy bormi?  
Bir yaylovda o'tlab xachir, hangidan  
Pand emagan tulpor bormi, toy bormi?

Yutsang basdir tomoqdagi luqmani,  
Tayyor turar minnat tig'in suqqani.  
Menga aytchi, ay odamning tuqqani,  
Beminnat bir salom bormi, choy bormi?

Maymun yerning kindigiga cho'p soldi,  
Qaldirg'ochni chilvirilon o'pvoldi.  
Surbetlikning o'zi davlat bo'pqoldi,  
To'ng'iz tumshuq botirmagan soy bormi?

Siring aystsang siri ko'chmaydigan va  
Foya desa, o'qdek uchmaydigan va  
Do'st deb yolg'on qasam ichmaydigan va  
Tupuk bilan iylanmagan loy bormi?

Sizga butkul topshiraman dunyoni,  
Ag'dar-to'ntar qiling yerusamoni.  
Lekin yomonlamang Iqbol Mirzoni –  
Yomon ketib, yaxshi kelgan joy bormi?

2004

## G'IRROM DUNYO

El og'zida ajib ishqim qissasi bor,  
Bu qissada ag'yorlarim hissasi bor.  
Dam urmasa shamol olov gurlarmidi,  
Mening dardim bilan kimning g'ussasi bor?

Otasizlik qanday bo'lar ekan derdim,  
Odam bunga qanday ko'nar ekan derdim,  
Dod degan so'z qaydan kelar ekan derdim,  
Qo'llarimda kulfatning tol hassasi bor.

G'irrom dunyo aldroviga uchgan manam,  
Bu dunyo deb, u dunyodan kechgan manam,  
Shaytonlarning qo'lidan may ichgan manam,  
Shoirlar bosh chanog'idan kosasi bor.

Sevgi yomg'ir emas, ko'kdan sochilmaydi,  
Ishqsizlarga samoden gap ochilmaydi.  
Endi sendan o'zgaga lab ochilmaydi,  
Lablarimda lablaringning mazasi bor.

2005

## **ISTAGIM**

Istagim shu – qolsam edi shamol bo'lib,  
Boshginangda aylanardim savol bo'lib.  
Boshdan oyoq gulbargiga o'rар edim,  
"Nega meni sevmading?" deb so'rар edim.

Dardu g'amim, iztirobim, kulfatlarim –  
Bosh ustimda charx uradi kalxatlarim.  
Osmonlarda qolib ketgan oyqiz o'zing,  
Baxtsizligim sabachisi yolg'iz o'zing.

To'yib nafas ololmayman ko'ksim to'lib,  
Hech bo'lmasa qolsam edi yomg'ir bo'lib.  
Derazangga yuzlarimni urar edim.  
"Nega meni sevmading?" deb so'rар edim.

Tuzalmayman, endi odam bo'lolmayman,  
Maktub yozib sabolardan yo'llolmayman.  
Jondan yaxshi ko'ramanu ko'rolmayman,  
"Nega meni sevmading?" deb so'rolmayman.

2005

## **SINGLIMGA**

"Ko'ngil" degan so'zga qofiya "singil".  
Singlim!  
Seni desam isiydi ko'nglim.  
Yurak xinaguldek o'ynaydi engil,  
Munisginam, singlim,  
anisim, singlim!

Esimda

qirovlar bog'lagan dala,  
Tumanda adashgan ikki murg'ak jon.  
Paxta jondan aziz bo'lgan mahallar,  
G'o'zapo'choqdek xor bo'lgandi inson.

Jovdirab-jovdirab turarding qaqshab,  
Qo'lchalaring kuhlab isitardim men.  
Tushida gapirgan tentakka o'xshab,  
Almoyi, poyma-poy she'r aytardim men.

She'r yupanch edimi, taskin edimi,  
She'r afsun edimi, afsusmidi yo?  
Sakkiz yashar dilga ilhom berdimi,  
Achindimi xudo, kuldimi xudo?

"Ko'ngil" degan so'zga qofiya "singil".  
Singlim!  
Seni desam isiydi ko'nglim.  
Xirmonin ko'tardi bugun o'ttiz yil,  
Yana Farg'onaga boshladi yo'lim.

Sho'x edim, urushqoq, bezori edim,  
Haydalan paykallar tayyor jangmaydon.  
Qahramonligimni sen ko'rsang derdim,  
Maqtangim kelardi senga, singiljon.

Toki sen g'ururlan akangga qarab,  
Xotirjam bo'l, sening himoyaching bor.  
Dunyo bir tarafu o'zim bir taraf,  
Yana nima kerak?  
Senga ne darkor?!

Munisginam singlim,  
anisim singlim,  
Tuyg'u so'zga ko'chsa – siyqa, bachkana.  
O'ylasam buzilib ketadi ko'nglim,  
Uni she'rga solib turibman, mana...

Senga hasratimni qanday aytayin,  
Sochga qirov tushdi kuzak kelmasdan.  
Yomonga yaxshilik qildim atayin,  
Yaxshiga yomonlik qildim bilmasdan.

Hamma yurakka tig' urar albatta,  
Nishon sifatida kerakman asli.  
Ne qilay, yuragim o'zimdan katta,  
Odam shaklidagi yurakman asli...

Qismat kimni siylar,  
kimni kamsitar,  
Kim obro' – martaba istab ovora.  
Bechora emasdир majruh kimsalar  
Aslida singlisi yo'qlar bechora!

Meni shoir qildi o'sha dalalar,  
Meni paxtazorga ko'minglar, o'lsam...  
Kechir meni, singlim,  
g'aflatda agar  
Yomon kun yoningda bo'limgan bo'lsam.

Sen borsan, yonimga kelolmas o'lim,  
Men borman, kulfatlar tentiraydi xor.  
Ko'nglimga eng go'zal qofiya singlim,  
Xotirjam bo'l, sening Iqbol akang bor!

2006

## O'YIN

Yozib yashil toppon - yaproqlarini  
Daraxtlar ko'ksimga berdilar havo.  
Bahor yoqdi yashil chiroqlarini,  
Muhabbat, Sizga yo'l ochiq, marhabo!

Umrimni tikkanman g'irrom o'yinga,  
Bilaman bor-budim yutqazishimni.  
Yana qanchasini olib bo'yinga,  
Yana jonimni ham tutqazishimni.

Siz o'ta aqli, siz ehtiyotkor,  
Tomosha qilasiz, g'iybat qilasiz.  
Qancha ehtiros bor, qanchalar shavq bor,  
Siz telba tug'yonni qaydan bilasiz!

Uchib kelgunicha qora qarg'alar  
Va sariq chiroqlar yoqilguncha to  
Uzr, hayot tamom meniki bo'lar,  
Meniki bo'ladi batamom dunyo!

2006

## YURT QO'SHIG'I

Bobomning bayti bor yaproqlaringda,

Momomning tafti bor chorbog'laringda.  
Onamni eslatar rayhoning, yurtim,  
Dadamning hidi bor tuproqlaringda.

So'lim Xonoboddan Kiyiksoygacha  
Qutlug'ostonadan suyuk oygacha  
Chiroqlar yulduzdek porlar har kecha,  
Mudom o't gurlasin o'choqlaringda!

Tog'laring bag'rida limmo-lim tilsim,  
Ming yilkim mo'ysafid SHohimardon jím.  
Sangardak qo'shig'in sharhlay olar kim?  
Tillo qumlar o'ynar buloqlaringda!

Mavlono Lutfiylar ulfatdir menga,  
She'r lutfi eng totli suhbatdir menga  
Ulug'lar ismi ham quvvatdir menga,  
Tug'yonim - o'ynoqi toychoqlaringda.

Bir kuychi o'g'lingman, bayotim o'zing,  
Tilimning ostida novvotim o'zing,  
Bag'rim, jonim o'zing, hayotim o'zing,  
Dil torim qalampirmunchoqlaringda.

Qizg'aldoqzoringda ko'milib yotdim,  
Billur shabnamlarda cho'milib yotdim,  
Dunyoni unutdim, o'zni yo'qotdim,  
Men ham vatan bo'ldim quchoqlaringda!

2006

## SHOIR

Lo'ttivoz jo'ralar, satang xonimlar,  
Tashakkur! Hayotning fahmiga etdim!  
Dalamni sog'inib yuragim yig'lar,  
Men sizdan zerikdim. Qishloqqa ketdim!

Shoirlik urf emas hozir, bilaman,  
Ne qilay, ko'ngilni qo'ymaydi havas.  
Bugun savdogarning davri gullagan:  
Pesi bo'lsa hamki "Mers"i bo'lsa bas!

Ivigan ipakdek chuvalar mezon,  
Dimog' o'rilgan o't hidini tuyar.  
Dovon o'ngirida jaydari dehqon

Oldimga to'rlagan qovunni qo'yari.

Guvala o'choqda habashday qumg'on  
Tomog'ini yirib qilar g'arg'ara.  
Hijolat aralash kamsuqum mezbon  
Belbog'in to'shaydi: noni qop-qora.

Adabiy gaplarni tushunmaydi u,  
Faqatgina, rahmat, ota, deyoldim.  
Dilimda uyg'ondi tug'ishgan tuyg'u:  
Olifta she'rlarim uchun uyaldim.

Qishloqda qo'shqo'llab ko'rishar bari,  
Begona hurmat bor nigohlarida.  
Toraygan bo'tanasuv ariqlari,  
Ajriqlar hurpaygan qirg'oqlarida.

Uzoqqa ketgandim o'zimni izlab,  
Behuda ish ekan, angladim, bildim.  
Bir payt nazarimga kirmagan qizlar,  
Iqbolim axtarib sizlarga keldim.

Siz menga ishoning, siz meni seving,  
O'ylagani qo'rqqan o'y – siringizman.  
Erka bolasiman shu og'ir elning,  
Men sizlarning oshiq shoiringizman!

Bitta qo'shig'ini kuylar bedana,  
Qovoqdan jonsarak izlaydi qo'noq.  
Men sizni kuylayman yana va yana,  
Mayliga, desinlar: maddoh va no'noq.

Ko'sakqurtdek semiz, tanbal, yaltiroq  
Shunday toifa bor – bo'lganman ulfat.  
Yeganda o'z g'amin eydilar ko'proq,  
Men ichu etim eb, chekkanman kulfat.

Mayli, omon bo'lsin yomon bo'lsa ham,  
Shular bor, zerikib qolmaysan sira.  
Faqat basharasin eslaganing dam  
Ko'ngil g'ash tortadi, dil bo'lar xira.

Siz zahmat farzandi, mehnat asiri,  
Ukangiz, akangiz, do'stingizman men.  
Kattamning ketmonda bitgan asari,  
Sizning aytolmagan so'zingizman men.

Bugun qoshingizda dardim dasturxon,  
Yuragim qovundek so'yaman hozir.

Ming hijolat chekib, g'o'ra va nordon  
She'rimni non kabi qo'yaman hozir.

Ijozat, bo'z tuproq kechayin men ham,  
Bo'yinbog'im otib kelganman atay.  
Sopol kosada choy ichayin men ham,  
Kitobimni yoqib qumg'on qaynatay.

O'zing baho bergil, yaratguvchi el!  
Sening farmoning haq, sening amring haq.  
Ovozsiz, qog'ozsiz dardlashaylik, kel,  
Men sening shoiring, jabrdiyda xalq!

2006

## **ONA TUPROQ**

Avliyolar, daholarning beshigisan,  
Naqshbandlar topgan jannat eshigisan.  
Tiriklikning navosi ham qo'shig'isan –  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Yuragimda tulporlaring dukurlari,  
Qaysi yurtning bordir buyuk Temurlari?  
Olovlardan omon chiqqan Semurg'lari,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Kimlarningdir ko'kragida tumor bo'lding,  
Kimlarningdir kiprigida g'ubor bo'lding,  
Gohida mard bir o'g'longa xumor bo'lding,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Asl farzand merosiga posbon bo'lgay,  
Ozod elning orzulari osmon bo'lgay,  
Bobolarim ismin aytsam doston bo'lgay,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Ota uyin farog'atin bilmaganlar –  
Ikkisi bir, biri ikki bo'lmaganlar,  
Tuproqtegi bo'lib zor-zor yig'laganlar...  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Naqorat:

Daryolarning izlارida daryo bo'lgay,  
Daholarning avlodi ham daho bo'lgay!  
Fido bo'lsa, shu Vatanga fido bo'lgay,  
Fido bo'lsa, shu Vatanga fido bo'lgay!

2006

**NAVRO'Z QO'SHIG'I**

Bahorni bilmagan ellarni ko'rdim,  
Bir chechak kulmagan erlarni ko'rdim.  
O'zingni sog'inib keladi navro'z,  
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,  
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

Chuchmoma chayqalib, chalar qo'ng'iroq,  
Hayot hidin sochar uyg'ongan tuproq,  
Ildiz suvratini chizadi chaqmoq,  
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,  
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

Mehmonni chorlaydi sumalaklarin,  
Qizlaring bog'laydi jamalaklarin.  
Saodatga ko'prik kamalaklarin,  
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,  
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

Ey, kafti qadog'u ko'ngli yumshoq el,  
Quyoshda qoraygan, yuragi oq el,  
Duoga qo'l ochgan, tilagi oq el,  
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,  
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

Muqaddas yering bor, qutlug' osmon bor,  
Suyangan tog'ing bor, dilda iymon bor.  
Ulug' bog'istonga buyuk bog'bon bor,  
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,  
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.

2006

**O'ZBEK O'G'LI**

Ikki daryo o'rtasi keng dasturxon,  
Tuz totgansan, tuzlig'ingni unutma.  
Dasturxonni belbog' qilib o'stirgan

O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Sadarayhon bukilgani – so'lgani,  
Er yigitning egilgani – o'lgani.  
Yo'l bermagil dushmanlarga kulgani,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

O'zbek desam jaranglagan tor kelur,  
Undan oldin nomus ila or kelur.  
Burgut kelur, lochin kelur, sor kelur,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Unutmagil nasabingni, zotingni,  
Umid bilan otang qo'ygan otingni.  
Asra erta kuningni – zuryodingni,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Bo'shamasin zinhor yog'och beshiging,  
Qulf ko'rmasin darvozayu eshicing.  
Yig'ilmasin supadagi to'shaging,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Ko'pga kelgan kulfatlarga chap berma,  
Mahmadona maynalarga gap berma.  
Ko'ngil obod bo'lsin, sirtga zeb berma,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Nochor qolsang nokas qo'lini tutma,  
Arslonsan-ku tulki yo'lini tutma.  
O'zingdan o'zgadan marhamat kutma,  
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

2004

## QARAM BO'LMAS O'ZBEK

Egasiz va oyoqosti yo'lmas o'zbek,  
Xohlagan suv oladigan ko'lmas o'zbek.  
Dong taratgan va o'ziga qaratgan el,  
Hech qachon hech kimga qaram bo'lmas o'zbek.

Vatangado, yurtfurushlar anglamaslar,  
Oltinday sof hikmatlar hech zanglamaslar.  
Ona hamda Vatanni-ku tanlamaslar,  
Hech qachon hech kimga qaram bo'lmas o'zbek.

Borgan joyin obod qilgan Boburlari,

Mazlumlarni ozod qilgan Temurlari.  
Tog'lardan ham balandroqdir g'ururlari,  
Hech qachon hech kimga qaram bo'lmas o'zbek.

O'g'il-qizlar shiddati-yu shashtini ko'r,  
Birovga bosh egmaslikning gashtini ko'r.  
Yurak bo'lsa, ringga chiqib mushtini ko'r,  
Hech qachon hech kimga qaram bo'lmas o'zbek.

Yaratgandan boshqasiga qulmas o'zbek,  
Hech kimdan kam bo'lman, kam bo'lmas o'zbek.  
Dong taratgan va o'ziga qaratgan el,  
Hech qachon hech kimga qaram bo'lmas o'zbek.

2005

## ASRAGIL

Kapalak o'zin urmas haroratsiz shu'laga,  
Chigirtka ham jo'r bo'lmas begona ashulaga.  
Nurdek qadim qoning bor,  
Dovrug'ing bor, shoning bor,  
Bo'y berma chalajanob yoki chalamullaga.  
Qalb qo'rg'onin chechagi- pok niyatni asragil,  
O'zni, o'zlikni, millat, milliyatni asragil!

Bolasin o'ylamagan qumursqa yo qush qayda?  
Beshikning duk-dukidek yurakka tovush qayda?  
O'zbekka or ma'nodosh,  
Ibo-hayo - ko'zu qosh,  
G'urursiz Bek qaydayu ibosiz Kumush qayda?  
Yuraging tumor bo'lsin, qutlug' xatni asragil,  
O'zni, o'zlikni, millat, milliyatni asragil!

Otasini unutgan, iblis etagin tutgan,  
Kutsa xat-xabar emas, nafsiga malham kutgan,  
Betizgin, salt, bejilov,  
O'ziga ham o'zi yov,  
Mushuk o'ynagan g'altak kabi chuvalib ketgan –  
Ketgan kas-nokaslardan qadriyatni asragil,  
O'zni, o'zlikni, millat, milliyatni asragil!

Manzil-marohil tayin bo'lmasa jilmas korvon,  
Hech qursa sardobaga etguncha tinmas korvon.  
O'ysiz yo'lovchi bo'lmas,  
Maqsadsiz ovchi bo'lmas,  
Olis yo'lni ko'zlasa yo'rg'aga minmas korvon,

O'rkarach-o'rkarach g'urur-or, hamiyatni asragil,  
O'zni, o'zlikni, millat, milliyatni asragil!

Bugungi kecha uchun ham ertangi tong uchun,  
Osmon kumushjomida quyosh urgan bong uchun,  
Yangi yurish boshlandi,  
So'nggi urush boshlandi –  
E'tiqod-iymon uchun, qalb, tafakkur, ong uchun!  
Qorako'z bolaizor – jamiyatni asragil,  
O'zni, o'zlikni, millat, milliyatni asragil!

2006

### **AYTGIL, DO'STIM!**

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,  
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,  
Ulug' inson boshlab bergen shu yo'l uchun,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?  
Don axtargan go'shtxo'rlarga em bo'ladi.  
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?  
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?  
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,  
Saratonda yaproq bo'lgin dehqonlarga,  
Suyangani tayoq bo'lgin cho'ponlarga,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo'Imagaysan,  
Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan.  
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,  
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,  
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,

Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

2004

## **YANGI YIL**

Qor zarrasin tutib qololmas nigoh,  
Goh zarra nigohdan bag'rim tilindi.  
Qor yog'sin – yopilsin izlaring, gunoh.  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

Qormi – kul ostida miltiraydi cho'g',  
Ketganlar jon uzib ketmaganlar, yo'q!  
Senga etganlar bor, etmaganlar yo'q,  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

Dehqonning uyini to'ldir bug'doyga,  
Sabr ber miskinga, insof ber boyga.  
Tinchlik, ko'nglito'qlik shoxu gadoyga,  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

Qirq yilda bir yigit kelar olamga,  
Yigit yuragimni ko'mma alamga.  
Yana qirq yil xizmat qilay onamga  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

Archajon, yumshatgil ignalaringni,  
Kel, tashla, arazu ginalaringni.  
Ko'kka chiqay bosib zinalaringni,  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

Ko'k toqiga hilolchiroq ilindi,  
Yorug' g'ussalarga oshno dil endi.  
Kipriklar ham oppoq, atirgul endi,  
Yangi yil, yaxshi yil bo'lib kel endi.

2006

## **BAYRAM ERTASI**

Uzun bo'lib yotar charchagan ko'cha,  
Ko'ngilni g'ash qilar kunduzgi chiroq.  
Epkinda ming turli qog'ozlar ko'char  
Va yerga yopishar yana erinchoq.

Ahyonda jimlikni buzar tramvay,

Horg'in sudrab o'tar bo'm-bo'sh qutini.  
Karaxt ko'cha bo'ylab aylanar tinmay  
Kechagi shodlikning oppoq tutuni.

Sening ko'changda ham balki shu ahvol,  
Sening buguning ham balki kimsasiz.  
Sening ham qalbingda g'ashlik va malol ...  
Kecha birga edik. Kecha. Ikkimiz.

1992

## ESKI DARD

Muloyim, beozor, gulgun kapalak,  
Qoraqosh kapalak, durkun kapalak...  
Qurtga aylanarkan bir kun kapalak,  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

Shoирgarchilikni tushuning kelmas,  
Qadimda ehtimol sevgandirman, bas!  
Asiring bo'lganman, mahbusing emas,  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

Ruhimni qozonga solding – qovurding,  
Umidimning latif gulin sovurding.  
Qancha shohbaytlarim kulin sovurding,  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

Jon qushi hilpirab etmoqda parvoz,  
Oq yulduz parpirab so'ylamoqda roz.  
Ko'nglimga burningni suqma, iltimos,  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

Nening badaliga o'lpon so'raysan,  
Kimsanki, betinim qurban so'raysan,  
Suv ichida turib ummon so'raysan,  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

Kecha sog'lom edi, sog' edi yurak,  
Bugun to'nka bo'ldi kechagi terak.  
Qurtga aylanarkan bir kun kapalak.  
Senga nima kerak, ayt, nima kerak?

2006

## AYLANAYIN

Atrofingda aylanadi to'rt fasl,  
Gul aylanar, o'rgiladi qor sendan.  
Oy aylanar, yer aylanar muttasil,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

Tomirida gulob oqqan guloyim,  
Guldek yashnab tur baxtimga, iloyim.  
Meni yaxshi ko'rarkanda xudoyim,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

O'n oltida oqqush bo'lding shaylanding,  
Yigirmada taqdirimga boylanding.  
O'ttizingda alangaga aylanding,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

Qul podshoga borsa shohning izzati,  
Podsho qulga kelsayam shoh himmati.  
Neki qilsang o'zgarmaydi qiymati,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

Hamma oshiq bugun menda jam bo'ldi,  
Ko'zlaringni o'psam ko'zing nam bo'ldi.  
Qancha o'psam yana shuncha kam bo'ldi,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

Atrofingda aylanadi to'rt fasl,  
Gul aylanar, o'rgiladi qor sendan.  
Oy aylanar, yer aylanar muttasil,  
Endi o'zim aylanayin, yor, sendan.

2006

## QANI

Ko'nglimday bo'sh ko'chalar,  
Farg'ona, Mashrab qani?  
Pul sochgan boyvachchalar,  
Devona Mashrab qani?

Kunlar o'tar bema'ni,  
Hech kim tushunmas mani.  
Ishonib sir aytgani,  
Devona Mashrab qani?

Etagin tutay, desam,  
Ko'zimga surtay, desam,

Qo'llarin o'pay, desam,  
Devona Mashrab qani?

Bitmadim shohbayt hali,  
Lekin yo'l yo'q qaytgali,  
She'rlarimni aytgali,  
Devona Mashrab qani?

To'nimni echay, desam,  
Dunyodan kechay, desam,  
Birga may ichay, desam,  
Devona Mashrab qani?

Baxtimga teng kulfat yo'q,  
Do'st yo'q, yor yo'q, ulfat yo'q,  
Yuragimda quvvat yo'q,  
Devona Mashrab qani?

2006

## AZIZ

Kimga sahro aziz, kimga bog' aziz,  
Kimga daryo aziz, kimga tog' aziz.  
Kimdir hayvonlarni aziz tutmishdir,  
Kimga muhtoj bo'lsang, shu ko'proq aziz.

Azizam, dardlaring azizdir menga,  
Ginali xatlaring azizdir menga.  
Anduh, hasratlaring azizdir menga,  
Maktub qatidagi gul-yaproq aziz.

Xudo, aziz qilgin yolg'iz bolamni,  
Duosi tinmaydi munis onamning.  
Qatim nur yoritib turar olamni –  
Onam sochidagi tolim oq aziz.

Yurakda pok tutib mudom niyatni,  
Insonlikka chorlab odamiyatni,  
Ustozlar quchdilar abadiyatni...  
Muhammadlar o'tgan yo'l, so'qmoq aziz.

Shu oyning nurida she'r bitgan bobom,  
Shu kunning qo'rida er yetgan bobom,  
Ko'klarga termulib, yer ketgan bobom,  
Menga shu ko'k aziz, shu tuproq aziz.

2006

## HIJRON

Boshim bukib qo'yib o'lim-azasiz,  
To'yga borgan o'yinchidek shod hijron.  
Yorsiz mazmunsizman, yorsiz mazasiz...  
Balki unga begona va yot hijron.

Yer yuzida yulduzdan ko'p bandalar,  
Hammasing lablarida handalar.  
Nega hadeb bitta odam tanlanar?  
Nega faqat meni aylar yod hijron?

Meni xazon qilgudayin shashding bor,  
Imkonimdan ming bor uzun dasting bor,  
Nima qildim, menda nima qasding bor!  
Sen ham go'yo bir odamiy zot, hijron!

Hiyla qilib chiqib bo'lmas yo'lingdan,  
Urib qochib ketolmayman qo'lingdan.  
Tutquningman, mahkumingman, qulingman,  
Osgil meni, otgil meni, sot, hijron!

Toleimga yozilgani qarg'ishday,  
Boshqalarga visol oddiy bir ishday...  
Men zamondan ortda qolgan darvishday...  
Dod dastingdan, dod dastingdan, dod, hijron!

2006

## OY VA QUYOSH KABI...

Oy va quyosh kabi izchil izma-iz  
Hijron – zulmat quvib sobitqadammiz.  
Birlashmoq qismatda yo'q ekan, garchi  
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

Qo'l ushlashib tushar ko'kdan laylakqor,  
Chechaklarin juftlab sochadi bahor.  
Men bunda zorman, sen unda intizor,  
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

Bizni go'dak bilib o'ynadi taqdir,  
Ustimizdan kulib o'ynadi taqdir.  
Qo'llaring ushlashga qo'ymadidi taqdir,  
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

Sensiz ma'nosizman, sensiz kimman, kim?  
Yarim oy bulutga berkinadi jim.

Yuragim nimtadir, ey go'zal yarmim,  
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

Sinov bu, deymiz-da, bu ko'hna savdo,  
Dunyoni unutsin, dedimi Xudo.  
Qiyomatni kutsin, dedimi Xudo,  
Ikki vujuddagi bitta odammiz.

2006

## **SUVRAT**

"Eslaganda ko'ring... Ko'rgach eslamang..."  
Imzo. Sana. Rasm – qog'oz... Sevgilim.  
Hayotdan rang ketdi va tindi ohang,  
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.

Xushbaxt kunlarimdan xotira – yodgor,  
O'zimdan qizg'anib qarayman takror.  
Baxtning soyasidan bo'lak nimam bor?  
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.

Na shahdu na shiddat, na jur'at qoldi,  
Na ahdu na rag'bat, na sur'at qoldi.  
Tushda ko'rgan kabi shul suvrat qoldi,  
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.

Hech qachon hech kimga etmas-ku dodim,  
Etsa, inobatga o'tmas-ku dodim.  
Armon shu – suvratda qotsa hayotim,  
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.

Suvratdek sarg'ayib o'char izimiz,  
Mazmunin yo'qotib borar ismimiz.  
Jismimiz yuribdi, faqat jismimiz...  
Bizdan suvrat qoldi xolos, sevgilim.

2006

## **ZERU ZABAR...**

Zeru zabar – zabar bilan zer bo'ldi,  
Yer osmonga chiqdi, osmon yer bo'ldi.  
Bog'ni izlab chohni toptim oqibat,  
Tog' deb borgan joyim yaydoq qir bo'ldi.

Ochiq ko'ngil – ochiq sandiq – elniki,  
Atirgulning sarin bo'yi – elniki.  
Yelga, elga, selga ketdi meniki,  
Sizning saqlab qolganingiz sir bo'ldi.

Ko'ngil so'rab, ko'ngil buzdi do'stlarim,  
Ko'nglim so'rab, ko'ngil uzdi do'stlarim,  
Ko'ngillarin engil uzdi do'stlarim,  
Barin mendan hafsalasi pir bo'ldi.

Parilarki, dil qonidan pardozi,  
Joning kuysa hamki, kelmas parvosi,  
Kulim ko'kka sochar har gal parvozi,  
Ko'zlariga boqsam, ko'zim kir bo'ldi.

Orziqaman eslab tandir, savatni,  
O'zim tashlab keldim shunday jannatni.  
Oldim shoir degan tavqi la'natni,  
Endi menga ikki dunyo bir bo'ldi

2002

## **SENI DEB**

Zulm qilsam har qachon o'zimga zulm etdim,  
Qaramadim sen tomon, ko'zimga zulm etdim.  
Imlasang bormadim ham, siltasang ketmadim ham,  
Yerdan uzmadim tovon, izimga zulm etdim.  
Zulmning lazzatini faqat mazlum biladi,  
Baxtiyor kimsalarni ko'rsam rahmim keladi.

Hovuzda xudoyimning aksini ko'rgandayman,  
Bulutlar va baliqlar raqsini ko'rgandayman.  
Yashil quyosh, moviy tosh, safsar ko'z yosh oralab,  
Odamning va Havvoning nafsini ko'rgandayman.  
Yuzimga suvlar urdim, yuzimga zulm etdim,  
O'zimga zulm etdim, ko'zimga zulm etdim.

Ko'rlar hamda karlarning o'zgacha baxti bordir,  
Baxtsizligin bilmagan kimsalar baxtiyordir,  
Ko'rib, tinglab turibman, o'zim anglab turibman,  
Ixтийоридан xorij tilaklar ixtiyordir.  
Bosh bergali dor qayda, ketgali mozor qayda,  
Dil yorgali yor qayda, inon-ixtiyor qayda.

Gulzoringga kirmadim, gulimni asrayin deb,  
Nigohimni bermadim, dilimni asrayin deb.  
Adolat, shafqat, qadr, muruvvat, insof nadir,

Ko'zlarimdan ketmading qulimni asrayin deb,  
Zulmning lazzatini faqat qullar biladi,  
Baxtiyor kimsalarni ko'rsam rahmim keladi.

Dag'al, o'jar o'smirni mayin etgan savdolar,  
Bozorda baholarni tayin etgan savdolar,  
Qorako'z gavharidan shoda munchoqlar tizib,  
Yurakni pufak qilib o'yin etgan savdolar,  
Nog'ora qoq, nog'ora, lunjing to'la zog'ora,  
Eshon, xo'ja va qora o'yin bilan ovora.

Chumoli xirmon yoysa, siz dasturxon yozgaysiz,  
Rizq axtarib kalamush inlarini buzgaysiz.  
Oyni etagingizga kulchadek o'rab olib,  
Atirgulga qaldirg'och jasadini osgaysiz.  
Ko'zning oqu qorasin oqu qora tosh qiling,  
Go'daklar sut tishidan guruch damlab osh qiling.

Baliqlarga rang bergen musavvirga qaranglar,  
Bo'yog'i qurimagan barmoqlarin yalanglar.  
Dilingiz rangin bo'lzin, kapalak, qo'ng'iz qo'nsin,  
Tomoshaga kelsinlar juvonlar, yosh-yalanglar.  
Hovuzda xudoyimning aksini ko'rgandayman,  
Bulutlar va baliqlar raqsini ko'rgandayman.

Har nafasda bir nafas umrim qisqarib borar,  
Cho'pchaklarga ishonib cho'pon qiz qarib borar.  
Chigal, xilvat yo'llimda pisib yotibdi ajal,  
Lahza sayin pichog'i ko'ksimni yorib borar.  
Shayton chalg'itdi, asli senga munosib edim,  
Ko'rgin deb yuragimni loylarga bosib edim.

Ko'klamni tinglab yotsang bug'doy ungan tomlarda,  
Bobo Mashrab nafasi kelar salqin shomlarda.  
Sababsizdek tuyular bo'g'zingdan toshgan o'kinch,  
Simobdek ko'char nedir yuraging tomonlarda.  
Ko'rlar hamda karlarning o'zgacha baxti bordir,  
Baxtsizligin bilmagan kimsalar baxtiyordir.

Chin aytsam, eshicingga suyanib, o'lgim kelar,  
Faryod chekib, o'zimni shu joyga ko'mgim kelar.  
Sochlарim chim otsayu tomirlарim taralsa,  
Boshimga oyoq qo'yib o'tganing ko'rgim kelar.  
Bundayin imkon qani, jon so'ragan jon qani,  
Jonimga xumor bo'lgan ul ofatijon qani.

Otamga begonaman, onamga begonaman,  
Rafiqamga raqibman, bolamga begonaman.  
Do'stlarimga dushmanman, xeshlarimga etti yot,

Senga mahliyo bo'lgan olamga begonaman.  
Qaramasdan sen tomon ko'zimga zulm etdim,  
Zulm qilsam, har qachon o'zimga zulm etdim...

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) -2007